O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Buxoro davlat universiteti

Avliyakulova Nafisa Muzafarovna

“Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi”

O`QUV QO`LLANMA

Bakalavriyatning 5110800-Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma

BUXORO-2021

Taqrizchilar	Buxoro davlat universiteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi Professor **N.Dj. Yadgarov** Buxoro muhandislik va texnalogiya instetuti Pedagogika fanlari doktori, v.b. professor **S.S. Abdullaev.**
Muallif:	**Avliyakulova Nafisa Muzafarovna**
Рецензия	профессор **Н.Дж.Ядгаров**, Доктора педагогических наук, профессор **С.С. Абдуллаев.**
Автор:	**Авлиякулова Нафиса Музафаровна**
Review	Professor **N.J. Yadgarov** Doctor of Pedagogical Sciences, Professor **S.S. Abdullaev**
Author:	**Avliyakulova Nafisa Muzafarovna**

ANNOTATSIYA

Mazkur o`quv qo`llanmada tasviriy san’atni o’qitish metodikasi faniga mo‘ljallangan nazariy va amaliy materiallar berilgan. Qo’llanmada tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi fanining tarixi, o‘rta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at darslarining mazmuni va o‘qitish metodikasi yoritilgan.

O’quv qo’llanma Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi fan dasturi asosida yozilgan bo`lib, oliy o‘quv yurtlarida bo’lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan. Undan oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining boshlang‘ich ta’lim metodikasi fakultet va bo‘limlari talabalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tasviriy san’at o‘qituvchilari foydalanishlari mumkin.

РЕЗЮМЕ

В данном учебном пособии представлены теоретические и практические материалы по дисциплине методика обучения изобразительного искусства. В пособии освещена история дисциплины методика преподавания изобразительного искусства, содержание и методика преподавания уроков изобразительного искусства в средних общеобразовательных школах.

Учебное пособие по методике преподавания изобразительного искусства написано на основе предметной программы и предназначено для будущих преподавателей изобразительного искусства в высших учебных заведениях. Может использоваться студентами факультетов и отделений методики начального образования в высших и средне-специальных учебных заведениях, а также преподавателями изобразительного искусства общеобразовательных школ.

THE SUMMARY

This tutorial presents theoretical and practical materials on the discipline of teaching methods of fine arts. The manual covers the history of the discipline, methods of teaching fine arts, the content and methods of teaching fine arts lessons in secondary schools.

The manual reflects issues such as the history of teaching fine arts in general education schools, the basics of this subject, the content of lesson and extracurricular activities, theoretical and methodological foundations of teaching fine arts.

The manual for teaching methods of fine arts is written on the basis of a subject curriculum and is intended for future teachers of fine arts in higher educational institutions. It can be used by students of faculties and departments of the methodology of primary education of higher and secondary specialized educational institutions, teachers of the fine arts of secondary schools.

So`z boshi

Ilm, Navoiy senga maqsud bil,
Emdiki, ilm o‘ldi, amal aylagil.

Alisher Navoiy

Agar inson ilm nuri bilan o‘z yo‘lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko‘chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma’rifat bilan baquvvat bo‘ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo‘ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko‘rgan emas. Ilmni egallab olish esa bir san’atdir.

Davlatimiz rahbari deyarli har bir chiqishida, aholi bilan muloqotida yoshlar masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Ularni mamlakatimiz buguni va kelajagida tutgan muhim o‘rniga urg‘u beradi. Binobarin, yurtimizda navqiron avlod vakillarining zamonaviy bilimlarni egallashlari, “nou-xau”lar bilan hamnafas qadam tashlashlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

O‘ziga ishongan, intiluvchan, ilmga tashna o‘g‘il-qizlar uchun “sotsial lift”, meritokratiya tamoyillari hayotga samarali tatbiq etilyapti. Chunki taraqqiy etgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 50 foizidan ortig‘i “bilimlar iqtisodiyoti” hisobidan, ya’ni, innovatsiyalar va yuqori malakali kadrlar tomonidan yaratilayotganidan ko‘pchilikning xabari bor.

Keyingi qisqa muddat davomida, mamlakatimizda Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan ilm-fan va texnika taraqqiyotiga alohida e’tibor berilib, pedagoglar, olimlar va professor-o’qituvchilarning jamiyatdagi obro’li mavqeini tiklash, ularning turmush darajasini yanada oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish borasida ko’plab Farmonlar, Qarorlar qabul qilindiki, ularning bajarilishi bugunning o’zidayoq samara bera boshladi.

Hozirgi kunda shiddat bilan yuz berayotgan ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar ta’lim sohasida ham tub islohotlar o‘tkazishni, ta’lim-tarbiyaviy ishlarni davr talablari darajasiga olib chiqishni taqozo etmoqda. Shu boisdan ham «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning «Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari» qismida ta’limning ijtimoiylashuvi – ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish alohida qayd

qilinadi. Milliy dasturda ko‘zda tutilganidek, o‘quvchilarning estetik ongini shakllantirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, ayniqsa, tasviriy san’atdan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Inson qadim-qadimdan san’at vositalari yordamida o‘z hayotini go‘zal qilishga intilgan. Buni anglash uchun avlodlarimizdan meros qolgan me’moriy-madaniy yodgorliklar va tasvirlarga diqqat bilan nazar tashlash kifoya qiladi. Ularning barcha-barchasini rassom, me’mor mehnati mahsuli deyishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitishni takomillashtirish borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilib, yaxshi natijalarga erishildi. Bu tadqiqotlarning natijalari dissertatsiya shaklida himoya qilindi. Ular R.Hasanovning 1994 yilda “O‘zbeksiton umumta’lim maktablarida badiiy ta’lim va tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari” mavzusida doktorlik, A.Turdaliyevning 1996 yilda “Tasviriy san’at darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni badiiy kasb-hunarlarga yo‘llash”, O.Xudoyorovaning 1997 yilda “O‘zbekiston umumta’lim maktablarida tasviriy san’at o‘qitilishining shakllanishi va taraqqiyoti” mavzularidagi nomzodlik dissertatsiyalaridir.

Mustaqillik yillarida tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashga alohida e’tibor berila boshlandi. Xususan, 2002 yilga kelib Toshkent, Buxoro, Namangan, Guliston, Andijon davlat universitetlarida, Nukus, Angren, Jizzax davlat pedagogika institutlarida maxsus fakultet va bo‘limlar faoliyat ko‘rsata boshladi. Tasviriy san’at o‘qituvchilari Xiva, Denov, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Jizzax, Andijon pedagogika bilim yurtlari qoshida ham tayyorlandi.

Dunyo tan olgan, o‘lmas asarlar qoldirib ketgan buyuk olim, musavvir Leonardo da Vinchi «Amaliyotga ilmsiz mehr qo‘yadigan kishilar rulsiz yoki kompassiz suzishga kirishayotgan daholarga o‘xshaydilar, chunki ular qayerga ketayotganlarini hech mahal bilmaydilar, shu sababli oldin ilmni o‘rgan, so‘ngra esa shu ilm orqasidan tug‘ilgan amaliyotga murojaat qil» deya bejiz ta’kidlamagan edi. Biz ushbu qo’llanma orqali tasvirlash san’atiga havas qo‘ygan, rasm chizish san’atini o‘rganib kelayotgan yosh rassomlar, bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilari uchun

boshlang‘ich nazariy va amaliy ma’lumotlarni berish, ularni ijodiy faoliyatga yo‘naltirishga harakat qildik. O‘ylaymizki, yosh rassomlar undan o‘ziga kerakli va foydali ma’lumotlarni topadi.

Qo’llanmada internet materiallari hamda mashhur rassom, rassom-pedagoglarning nazaridan o‘tqazilgan mavzularga daxldor nazariy ma’lumotlaridan hamda ilovalaridan foydalanildi. Bular tavsiya qilingan o‘quv materialining talabalar tomonidan tez egallab olinishi uchun xizmat qiladi degan umiddamiz.

1 MODUL

TASVIRIY SAN’ATNI O‘QITILISH TARIXI

1.1. Chet ellarda tasviriy san’atni o‘qitish tarixidan

Reja:

1. Tasviriy san’atni o‘qitilish metodikasi fanini o’qitishga doir eng qadimgi va o’rta asr boshlaridagi (Misr, Yunon, Qadimgi Rim) ma’lumotlar va ularning xarakteri

2. Tasviriy san’atni o‘qitilish metodikasini rivojlantirishda uyg’onish davri rassomlarining xizmatlari.

3. XVIII asrlarda G’arbiy Yevropada rasm chizishni o’rgatish metodikasiga bo’lgan turli qarashlar.

Tayanch iboralar: Ibtidoiy, piktografik, sinfiy, Fir'avn Exnaten, klassika, proportsionallik, Poliklet, metodologiya.

Ibtidoiy davrda tasvriy san’atda rasm chizish qobiliyati muhim ahamiyatga ega bo'lib, odamlar o'rtasida muloqot vositalaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Inson qadimgi davrlardan boshlab, turli xildagi tasvirlarni, rasm chizish mahoratini rivojlantira boshladi.

Bu orqali ibtidoiy odamlar katta yutuqlarga erishdilar, buni arxeologlar topgan rasmlar tasdiqlaydi. Ushbu tasvirlar orasida biz bug'u kiyimi, dasht oti, mamont va boshqa hayotiy voqealarning ishonchli tarzda namoyish etilgan tasvirini topamiz.(1-rasm)

1-rasm

Shunisi e'tiborga loyiqki, bu tasvirlar sehrli marosim xarakteriga ega bo'lib, inson fikrini yetkazishning o'ziga xos shakli edi. Keyinchalik paydo bo'lgan har bir belgi, so'z yoki uning bir qismi, va nihoyat, birinchi piktografik (rasm), keyin ideografik, keyinchalik esa maktub ishlab chiqildi.

Neolit davrida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va ishlab chiqarish faoliyati insonning san'atga bo'lgan munosabatini o'zgartirdi. Inson chizgan tasvirlarini kulolchilik buyumlariga tushura boshladi. (2-rasm) Arxeologik ma’lumotlariga ko‘ra, Neolit davrida kulolchilik san'ati buyumlari bezak bilan qoplangan. Shu munosabat bilan ta'lim usullari paydo bo'ldi.



2-rasm

Rassom-hunarmand endi shogirdining muvaffaqiyatlariga befarq qolmadi. Shunday qilib, o'qitish usullari rivojlana boshlandi.

Qadimgi dunyo tarixida bir qator muhim 'madaniyat o'choqlari bo'lganki, bularning mavjudligi keyinchalik yer yuzida san'at va madaniyatning ravnaqiga, kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shunday madaniyat o'choqlari orasida ikki daryo oralig'i Misr davlatining roli benihoya kattadir. Misrda 5000 yil burun ilk sinfiy jamiyat - quldorlik davlati paydo bo'ldi.

Misrning tabiiy sharoiti insonni juda erta hayotga, hayot uchun kurashishga da'vat etdi. Bu hol, o'z navbatida, uning ongining o'sishiga, tasavvurining kengayishiga olib keldi, aql taraqqiyotini tezlatdi. Qadimgi Misrda yaratilgan haykaltaroshlik, rassomchilik, kulolchilik san'ati va me'morchilik yodgorliklari hanuzgacha o'zining badiiy qiymatini yo'qotgani yo'q. Tasviriy san'atda shartli belgilardan foydalanish Misr san'atida juda erta boshlandi va uning xarakterli tomonini tashkil etdi. Misrliklarning bunday badiiy fikrlashlarini ular yaratgan sfinkslarda ham ko'rish mumkin. Odam boshli, sher (arslon) tanali haykallar orqali inson kabi aqlli, arslon kabi kuchli zotlar timsolini yaratganlar. Shu obrazlar orqali fir'avnlarni kuchli va donishmand siymo darajasiga ko'tarishga, ilohiylashtirishga harakat qilganlar. Shu bilan Misr san'atida realistik san'at oqimining mavjudligini ham inkor etib bo'lmaydi.

Misr san'atida mayjud bo'Igan bu realizm oqimi, ayniqsa, Fir'avn Exnaten (Amen Xoap IV) davrida yuksak kamolotga erishdi. Shu davrda yaratilgan nodir haykaltaroshlik namunalaridan biri bo'lgan Nefertiti haykali hozirgi kunda ham go'zallik ramzi tarzida kishiga quvonch baxsh etadi. Bu haykal o'zining ishlanish mahorati, o'rinli lopilgan material (sarg'ish qumtosh) obrazning yanada latofatli va ko'rkam bo'lishiga xizmat qiladi. Ochiq chehra, tabassumga shaylanib turgan lablar, katta ochilgan ko'z, qirra burun bularning hammasi ayollarga xos nafis va nazokatli xislatlarni ochishga yordam beradi. Misrda saroylar va ayniqsa ibodatxonalar qurilishiga alohida ahamiyat berilgan. Har bir qurilgan saroy va ibodatxonalarning ichki va tashqi tomoni tasviriy san'at asarlari bilan bezatilgan.



3-rasm

Tasviriy san’atni o’qitish ishi bilan odamlar qadimdan shug’ullanib kelganliklari ko’proq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga o’rgatish muntazam ravishda chizmachilik bilan bog’liq holda amalga oshirilgan. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda maktabni tugallab chihayotgan yoshlar ma’lum maydon yuzasini o’lchash va uni qog’ozga tushura oladigan, bino planini chiza oladigan, ariq va kanallarning chizmasini tasvirlay oladigan bo’lishlari talab etilgan. Bolalarni rasm chizishga o’rgatishda qo’lni erkin harakat qilishiga alohida e’tibor berilgan. Erkin, yengil, ravon chiziqlar chizish doskada yoki papirus qog’ozlarda bajarilgan. Misr maktablarida rasm chizishga o’rgatish nazariyasi bor yoki yo’qligi ma’lum bo’lmasa-da, ayrim rasm chizish qoidalari qo’llanilgan.(3-rasm) O’qituvchilar rasm chizishni

(shakl, rang, o’lchov, tuzilishi) tabiatni kuzatish asosida emas, ko’proq namunadan, sxemadan ko’chirish orqali o’rgatganlar.

Qadimgi dunyo san'ati taraqqiyotining keyingi bosqichi qadimgi Yunoniston bilan bog'liqdir. Qadimgi Yunonistonning eng gullagan davri eramizdan avvalgi V-IV asrlarga to'g'ri keladi. Bu Yunonistonning klassika davri hisoblanadi. Bu davrda yaratilgan me'morlik, tasviriy va amaliy-dekorativ san'at yodgorliklan hanuzgacha o'zining qiymatini yo'qotgani yo'q. Klassika davrida Yunonistonda bir qator ibodatxonalar, teatrlar, majlis zallari qurildi, shaharlarni planlashtirish paydo bo'ldi.

Yunon me'morligining yutuqlaridan biri - bu orderlar tizimini yaratish edi. Bu tizimda binolarning ko'taruvchi va ko'tariluvchi qismlarining bir-biriga hamohangligi muvofiq kelishining qat'iy tartibi ishlab chiqildi. Yunon memorchiligida yaratilgan doriy, ioniy va korinf orderlari keyinchalik jahon me'morchiligi rivojiga katta ta'sir qildi.

4-rasm

Rasm chizishga o’rgatish qadimgi Yunonistonda ham o’ziga xos yo’nalishda amalga oshirilgan. Ularda rasm ishlashga o’rgatishda tabiatni, butun borliqni o’rganishga, unda go’zalliklarni idrok etishga alohida e’tibor berilgan. Rasm ishlash uchun yog’och taxta ustiga asalari mo’mi surtilgan va uning ustini bo’yoq bilan sidirg’a bo’yalgan. Rasm ana shu yuza ustiga o’tkir metall yoki suyak bilan chizilgan. Noto’g’ri chizilgan rasm qo’l bilan ishqalanib, chiziqlar o’rni to’ldirib o’chirilgan. So’ngra tekis yuzaga yangi rasm ishlangan.

Qadimgi Yunonistonda san'atni ilmiy tushunish usuli yaratildi. Yunon rassom-o'qituvchilari o'z shogirdlari va izdoshlarini

tabiatni o'rganishga, uning go'zalligini kuzatishga, nima ekanligini ko'rsatishga chaqirdilar. Yunon rassom-o'qituvchilar birinchi navbatda chizilgan rasmni o'rganish usulini yaratdilar.

5-rasm

Eramizdan avvalgi 432 yilda Yunon haykaltaroshi Poliklet kishi tanasi a’zolari o’rtasidagi mutanosiblik, proportsionallikka doir namuna sifatida “Dorifor” haykalini yaratdi (4-rasm). Keyinchalik u barcha maxsus badiiy va badiiy bo’lmagan maktablarda o’rgatildi.

Uyg`onish davrida qadimgi Rim tasviriy san`ati va uni o`qitish metodi katta rol o`ynagan. Bu davrda rasm chizish umumiy ta`lim beradigan o`quv predmetlari qatoriga kiritildi. Mashhur rassomlardan Chennino Chennini, Leon Batista Alberti, Leanardo da Vinchilar bu borada e`tiborga loyiq ishlarni amalga oshirganlar. Ularning asarlarida fan va san`at o`rtasidagi aloqalar, proporsiya, perspektiva, anatomiya masalalari asosiy o`rinni egalladi. Ularning fikrlariga ko`ra naturaga qarab rasm ishlash o`qitishning asosini tashkil etishi lozim bo’lgan.

Ayniqsa, Leanardo da Vinchi tasviriy san`atni o`qitish metodikasi taraqqiyotiga katta ta`sir ko`rsatgan. U o`zining “Kniga o jivopisi” nomli ishida rassomchilikni jiddiy ilmiy fan sohasi deb qaradi (5-rasm). U ko`p yillar davomida anatomiya, rang, kishi a`zolari o`rtasidagi mutanosiblik qonuniyatlarini ishlab chiqqan.

Rim hukmronligi davri, birinchi qarashda, haqiqiy chizilgan ta'lim usullarini yanada rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratadi. Portret san'ati keng tarqalgan. Biroq, rimliklar yunon rassomlarining yutuqlaridan foydalanishni davom ettirib, o'qitish metodikasi va tizimiga yangi hech narsa kiritmadilar. Bundan tashqari, ular

rasmning qimmatbaho qoidalarini yo'qotishdi, hatto ularni saqlab qolishdi. Rim san'atkorlari asosan Yunonistonning ajoyib rassomlarining asarlarini nusxalashdi.

O'qitish tartibi boshqacha edi: Rimda o'qituvchi rassom-hunarmandni tayyorlashi uchun uylarini bezashda ishning texnik tomoni bilan ko'proq shug'ullanishini o'rgatdi. Demak, chizmachilikni o'rganishda namunalardan nusxa ko'chirish, ish uslublarini mexanik takrorlash ustunlik qiladi.

Rasm chizish uslubida rimliklar birinchi marta guruch materiallari sifatida sanguine (chiroyli qizil-jigarrang rang) sifatida ishlatila boshladilar. Rim san'atkorlari yunonlarning asarlarini juda qadrlashdi, portretni faol ravishda rivojlantirdilar. O'qituvchi chizishni o'rgatib, hunarmand rassomni uy va tijorat buyurtmalarini bajarish uchun tayyorlashga harakat qildi.

Uyg`onish davri rassomlarining katta xizmatlari shundan iborat bo`ldiki, ular tasviriy san`atda anatomiya, perspektiva, yorug`soyaning benihoya katta ahamiyatini asoslab berdilar. Natijada san`at asarlari o`zining yuksak badiiyligi va realistikligi bilan tomoshabinlarni lol qoldiradigan bo`ldi. Shunga qaramasdan tasviriy san`atni o`qitish tizimini yaratish ularga nasib etmadi. Bu muammolar asosan XVI asrdan boshlab echila boshlagan. Bir qator akademiyalar tashkil etilishi ishni engillashtiradi. Bunday akademiyalar Florensiya, Rim, Balon kabi shaharlarda ochildi. Avvalgi vaqtlarda bunday maktablar xususiy shaxslar tomonidan tashkil etilgan bo`lsa, endi davlat va jamoalar ham bunga o`z ulushlarini qo`sha boshlagan edilar.

Bu o`quv yurtlari orasida mashhur rassom, haykaltarosh va muallim aka-uka Karrachilar hamda uning amakivachchalari Agostino va Annibale tomonidan ochilgan Badiiy Akademiya ko`proq iz qoldirdi. Ular yaratgan o`qitish tizimida o`quv materiallarini tez o`zlashtirish, o`quvchilarni ilmiy bilimlar, muntazam mashq, qonun va qoidalar asosida rasm ishlash malakalarni hosil qilish asosiy o`rinni egalladi.

Bu rassom–muallimlar o`zlaridan avval o`tgan rassomlarning tajribalari va yutuqlarini umumlashtirib, talabalarni shu asosda o`qitishga harakat qildilar. Ular o`z faoliyatlarida yorug`soya, kolorit, rang, konstruksiya, anatomiya, perspektiva masalalariga alohida e`tibor berdilar. Ayrim tarixiy va san`atshunoslik ma`lumotlariga qaraganda Dyurer tomonidan bir qator nazariy va amaliy qo`llanmalar yaratilgan.

Lekin ulardan ayrimlari saqlanib qolgan, xolos. Akademik tizimga ko`ra jiddiy ilmiy bilimlarsiz rasm ishlashni o`rganib bo`lmaydi. Bolalar rasm chizish orqali borliqni bilib boradilar. Bu sifat har bir shaxs uchun, u qaysi sohaning mutaxassisi ekanligidan qat`iy nazar zarur deb hisoblandi.

Yevropa pedagoglari orasida rasm chizishni umumiy ta`lim maktablarida alohida o`quv predmeti sifatida o`qitilishi va uni takomillashtirishda I.V.Gyote (Germaniya), I.G.Pestalotssi, I.Shmidt va P. Shmidt (Shvetsariya), A. Dyupyui va F. Dyupyuilar (Fransiya) katta hissa qo`shdilar.

Umumiy ta`lim maktablarida rasm ishlashda natural metoddan ko`ra geometrik metodlarni afzalliklarini N.Pestalotssi, P.Shmidt va I.Shmidt kabi pedagoglar mulohaza qilib chiqdilar. Natijada, maktablarda rasm chizishga o`rgatishda ikkita qarama-qarshi natural va geometrik metodga asoslangan ikki oqim paydo bo`ldi.

Lekin, XIX asrning ikkinchi yarmidan geometrik metod Yevropaning ko`p mamlakatlarida qo`llanila boshlandi. Shunday qilib, XIX asr o`rtalariga kelib, Yevropada rasm chizish fan tarzida umumiy ta`lim maktablarida o`qitilishi ancha rivoj topdi. Bu sohada rassom va muallimlardan tashqari san`atshunoslar, pedagog, psixologlar, shifokorlar shug`ullana boshladilar. Rasm chizishni o`qitish metodologiyasiga doir bir qator adabiyotlar nashr etila boshlandi. Bu borada Kulman, Prang, Elsner, Baumgart, Ausberg, Braunshvig, Tedd kabilar jonbozlik ko`rsatdilar. Bular tomonidan yaratilgan adabiyotlarda rasm chizish qoidalari, uning metodikasida qarama-qarshi fikrlar bo`lsa-da, biroq natural metod borasida bunday qarama-qarshi fikrlar ro`y bermadi.

XX asr boshlarida bolalar tasviriy ijodi borasida biogenetik nazariya yuzaga keldi. Bu borada nemis olimi G.Kershenshteyner, rus san`atshunosi A.Bakushinskiy, amerikalik J.Dyupyuilar faollik ko`rsatdilar. Ularning fikriga qaraganda bolalar badiiy ijodiga aralashmaslik kerak. Ular erkin ijod qilishlari lozim. Ularning ijodiga aralashib ta`limni tezlashtirib bo`lmaydi. Har bir bola yoshiga mos ravishda avvaldan belgilab qo`yilgan bosqichlarni bosib o`tadi. Bu bosqichni o`tamasdan, ikkinchisini o`zlashtirib bo`lmaydi yoki ularning ijodiga aralashib, ularning fikrlari, his-tuyg`ularini

o`zgartirish mumkin emas. Shuning uchun bolalarning ijodiga rahbarlik qilish, aralashish jinoyatdir deb yozdilar.

Nazorat savollari:

1. Tasviriy san’atni o’qitishga doir dastlabki ma’lumotlarni izohlab bering?

2. Yevropada Uyg’onish davri rassomlarining qarashlari haqida nimalarni bilasiz?

3. Neolit davrida insonning tasviriy san'atga bo'lgan munosabatlari qanday?

4. Qadimda Yevropa mamlakatlarida tasviriy san’atni o’qitishga doir turli qarashlarni sanab o’ting?

5. Mutaxassislar orasida tasviriy san’tni o’qitish metodlariga tegishli qanday qarashlar mavjud?

6. Qadimgi Rimning buyuk musavvirlarini sanab o’ting?

1.2. Rossiyada Tasviriy san’atni o‘qitish metodlari

Reja:

1. XVIII-XIX asrlarda Rossiyaning pedagogika o’quv yurtlarida tasviriy san’at fanining o’rni.

2. Rossiyada tasviriy san’atni umumiy ta’lim maktablarida o’qitilishi.

3. Rus pedagoglarining qarashlari va tasviriy san’atni o’qitish uslublari.

Tayanch iboralar: akademiya, xirurgiya, bosmaxona, muhandislik, natura, perspektiva, gips, metodik.

Rossiya tasviriy san’atni o’qitish umumiy ta’lim maktablarida o’quv fan sifatida XVIII asrning boshlarida paydo bo’ldi. Bu davrda rasm chizish maktabi, dengiz akademiyasi, xirurgiya maktabi, fanlar akademiyasi qoshidagi gimnaziyada, qizlar tarbiya bilim yurtida o’qitilgan.

Bu o’quv yurtlarida rasm chizishga o’rgatish rassomlar tayyorlash uchun emas, balki yoshlarni kasbiy faoliyati va kelajak hayotlarida foydalanishlari uchun kerak bo’ladigan soha deb qaralar edi.

XVIII asrga qadar Rossiyada san’at asarlaridan nusxa olish usuli boshlandi. Shunga qaramay, o'qitishning turli xil usullari o'z-o'zidan rivoj topa boshlandi. Keyinchalik vaqt o'tishi bilan nusxa ko'chirish usulidan tashqari tabiatdan chizish huquqi tan olindi.

1711 yilda Sankt-Peterburg bosmaxonasi asosida chizmalar chizishga va muhandislikka ixtisoslashgan maktab ochiladi. Ushbu maktabga yosh rassomlar tasviriy san’atni chuqur o’zlashtirishi uchun Yevropadan o’qituvchilar taklif etiladi.

A. Sapojnikov birinchi bor 1734 yilda tasviriy sanat maktablari uchun o'quv qo'llanma chop etdi. Rossiyada va uning zamondoshlari tomonidan qo’llanma qadrlanadi. Mazkur darslik naturaga qarab rasm chizishga asoslangan edi. Darslik realistik rasm ishlash asosida qurilgan bo’lib, unda perspektiva, yorug’lik, soya qonunlari ham o’z aksini topgan edi.



6-rasm

Shu bilan bir qatorda Sapojnikov karton, gips va sim kabi materiallardan narsalar tuzilishi, perspektiv qisqarishi, xajmiga doir metodik ko’rgazmali qurollar majmuasini ham yaratdi. Muallifning tavsiyalariga ko’ra har qanday natura asosiga turli hajmli va yuzali geometrik shakllar yotishi, shuning uchun ham rasm chizishda geometrik metoddan foydalanish maqsadga muvofiqligi bayon etilgan.

1735-yilda I. D. Preisler nemis va rus tilida “Rasm chizish san'ati bo'yicha asosiy qoidalar” nomli qo'llanma chop etdi. Preisler tizimi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri va

egri chiziqlar, geometrik shakllar va volumetrik jismlarni chizish bilan boshlanadi, undan keyin talaba inson tanasining qismlarini, so'ngra boshni va nihoyat butun qomatni chizishga o'tadi. (6-rasm). Ko'pgina rassom-o'qituvchilar singari, Preisler ham chizilgan rasmni o'rganish uchun geometriyani asos qilib oladi.

Rossiya maktablarida rasm chizish ommaviy tarzda o’qitila boshlangach, rassom-o’qituvchilarning yetishmasligi muammosi paydo bo’ladi.

7-rasm

Maxsus o’qituvchilar tayyorlash maqsadida 1825 yilda Moskvada Strogonov nomidagi texnikaviy rasm bilim yurtida yangi bo’lim ochilib, unda rasm o’qituvchilari tayyorlana boshladi. 1879 yildan esa Sankt-Peterburg badiiy akademiyasi qoshida rasm o’qituvchilari tayyorlovchi kurs ochildi. Bu kurslar uchun dastur, metodik materiallar tayyorlashda badiiy akademiya professori P. Chistyakov faoliyat ko’rsatdi. Bu davrda tuzilgan dastur va qo’llanmalarda A.Sapojnikovning geometrik ko’chirish metodlari amaliyotdan chiqarilib, maktabda rasm darsi faqat natural metod asosida rasm ishlashdan iborat ekanligi qayd qilindi. Mazkur dastur va qo’llanmalarda bolalar tasviriy faoliyatlariga erkinlik berish lozimligi ham belgilab qo’yildi. Rasm chizish muammolarini hal qilishda XIX asr boshlarida Moskva va Peterburg shaharlarida tashkil etilgan “Rasm o’qituvchilari jamiyati” e’tiborga loyiq ishlarni amalga oshirdi.

Rossiyada rasm chizish metodikasini takomillashtirishda 1933 yilda tashkil topgan “Bolalar badiiy tarbiyasi markaziy uylari” muhim ahamiyat kasb etdi. Bu markaz faoliyati bilan bog’liq holda P.Ya.Pavlinovning “Graficheskaya gramota”, N.Radlovning “Risovanie s naturi”, “Sbornik zadaniy po risovaniyu”, Ya.Bashilov va Ye.Kondaxchanlarning “Detskiy risunok” va boshqa qo’llanmalari chop etildi.

Rossiyada tasviriy san’atni o’qitish metodikasini takomillashtirishda pedagog olim A.G.Sapojnikovning o’rni katta ahamiyatga ega. U o’zining pedagogik

mahoratida eng oddiy geometrik shakllardan silindr, prizma,kub kabi oddiy shakllarni chizish metodlarini o’rgatadi. (7-rasm).

Rossiyada 1970-2000 yillar davomida olib borilgan ishlar mazmuni turli-tuman bo’ldi. U estetik va badiiy tarbiyaga doir xalqaro, federatsiya miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlar o’tkazish, ilmiy-metodik to’plamlar nashr etish, o’quvchilarning ijodiy ko’rgazmalarini tashkil etish yo’nalishlarida amalga oshirildi.

Nazorat savollari:

1. Rossiya maktablarida tasviriy san’atni o’qitilishini o’ziga xos xususiyatlari nimada?

2. XVII asrda Rossiya maktablarida tasviriy san’atni o’qitilishi haqida so’zlab bering?

3. I. D. Preislerning “Rasm chizish san'ati bo'yicha asosiy qoidalar” nomli qo'llanmasida qanday rasm chizish metodlari haqida so’z boradi?

4. P.Ya.Pavlinovning qanday qo’llanmalarini bilasiz?

5. Ye.Kondaxchanlarning boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun mo’ljallangan kitobini bilasizmi?

6. Rossiyalik pedagog olim A.G.Sapojnikovning tasviriy san’atni o’qitish metodikasini takomillashtirishda qanday metodlardan foydalanilgan?

1.3. O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda tasviriy san’atning o‘qitilishi

Reja:

1. Sharq miniatyura maktablarining rivojlanish tarixi.

2. O’rta Osiyo,Eron, Misr, Hindiston miniatyura maktablari.

3. Islom dini kirib kelgunga qadar tasviriy san’atni o’qitilishiga doir dastlabki ma’lumotlar.

4. O’zbekistonda dastlabki tasviriy san’atni o’qitish shakllari.

Tayanch iboralar: kompozitsion, axta, tadqiqotchilar, devoriy rasm, minium, qo’lyozma, javohirlar.

Sharq miniaturasi san’ati o‘zining dastlabki ko‘rinishini qadimgi devoriy rasm va haykaltaroshlik namunalari ko‘rinishlaridan oldi. San’atshunoslar taxmin

qiladilarki, Eronda qadimiy qo‘lyo‘zmalar miniatyuralar bilan bezatilgan. U san’at turi sifatida islom davridan, ya’ni VII asrdan boshlangan. Miniatyura san’ati sharq durdonasi sifatida o‘rta asrlar adabiyoti bilan chambarchasi bog‘liq. Tadqiqotchilarning aniqlashlaricha, bu qadimiy san’at turi−buyuk sharq adabiyoti mazmunini tasvir vositasida yoritishning erkin ko‘rinishidir.

Sharq miniatyurasining kelib chiqishi qadimiy qo'lyozmalarga bog'liq. O’sha vaqtda musulmonlarning birinchi vazifasi shariat qonunlariga rioya qilish, odamlarning ijtimoiy, oilaviy va shaxsiy munosabatlarini tartibga solish edi. Inson faoliyatining barcha shakllari o'z vazifalarini belgilab beradigan majburiy qoidalarga bo'ysundi. O'rta asr shoirlarning she’rlariga ma’no mazmuniga mos keladigan miniatyura asarlarini ijodkor rassomlar qog’ozga o’z ijodlarini yaratishdi.

Miniatyura atamasi ilk marta Sharqda XIX asrda paydo bo'lgan. Miniatyura lotincha "minium" so'zidan olingan bo’lib mitti tasvir degan ma’noni anglatadi. Dastlab miniatyura asarlari kitoblarning chekkasida tabiiy bo'yoqlar yordamida harflar, naqshlar va turli badiiy bezaklar bilan boyitilgan holda yaratilgan. Qadimiy manbalarda ham miniatyuralar kichik o'lchamli va badiiy texnika nozikligi bilan ajralib turadigan tasviriy san'at asari sifatida berilgan. Sharq miniatyura maktablarining o'ziga xos xususiyati Islom diniga bo’lgan munosabatlarni tasvirlar orqali namoyon qilishdir. (8-rasm)



8-rasm

Bo'lajak miniatyurachi rassomlarni tayyorlashda ustalar nafaqat rangtasvir usullarini puxta o'rganishgan, balki o'quvchilar tomonidan zarur ko'nikma va bilim olishga e'tibor qaratdilar. Kelajakdagi miniatyurachilarni o'qitish mashhur ustalarning oddiy namunalarini nusxalash bilan boshlandi. Ular qobiliyat va ko'nikmalarga ega bo'lgach, vazifalar murakkablashdi. Odatda nusxa ko'chirish kompozitsiyaning alohida elementlari tomonidan amalga oshirildi.

Kompozitsiyaning elementlarini nusxalash orqali talaba tashqi shakllarning ramziylashtirilgan talqinini va kompozitsiyaning rangli yechimini o'zlashtirdi. Kelajakda zamin yaratish maqsadida kerakli ko'nikmalarga erishish uchun miniatyurachi rassomlar hayvonlar va qushlar, o'simliklar va me'moriy tuzilmalarning turli xil tasvirlari bilan chizmalarni to'plashdi, keyinchalik ular o'z ishlarida foydalandilar.

Tajribali rassom ustalarning kompozitsion elementlaridan foydalanishda turli xildagi texnikani qo'lladilar. Tasvirni qo'llashning bunday usullaridan biri “axta” deb ataladi. Ustalarimiz ushbu uslubdan hanuzgacha ganch va yog'och o'ymakorligida qo'llaniladi. Axta usuli bilan rassomlar bir necha yil davomida nozik cho'tka bilan ishlash qobiliyatlarini mukammal egallagunga qadar mashq qildilar. Ba'zan tajribasiz miniatyurachilar o'z asarlarida boshqa qo'lyozmalar bilan butun kompozitsiyadan foydalanib, ularni ko'zguga aylantirdilar. Albatta, bu ta'lim usuli shafqatsiz edi va o'rta asr san'atiga xos edi.

Yaqin va O’rta Sharqda badiiy va ilmiy asarlar to IX asrning oxirgi choragigacha hattotlar tomonidan ko’chirilib, qo’ldan-qo’lga o’tib kelgan. To’g’ri, Arabiston va Ispaniyasida o’z vaqtida xatni yog’ochga o’yib ko’paytirish usuli ham bo’lgan, ammo bu usul keng rivoj topmagan va tez orada iste’moldan chiqqan.

O’rta asrda Sharqda qo’lyozmalar inson tafakkuri asrlar, ming yillar davomida ajdodlar yaratgan ma’naviy boylik bo’libgina qolmay, yagona tarbiya va bilim berish quroli ham edi. Shuning uchun yaqin vaqtlargacha ham qo’lyozma kitoblarni yaratishga katta ahamiyat berilgan. Kotiblik o’z navbatida madaniy hayotning qay darajada taraqqiy etganligini aniqlovchi omillardan biri hisoblangan. Qo’lyozmalarning qimmati qog’oz, siyoh ayniqsa hattot san’ati turli bezaklar sifati

bilan aniqlangan.Tabiiyki, bir necha san’at ustalari tomonidan mahorat bilan ishlangan qo’lyozmalar faqat davlatmand odamlar tomonidan buyurtirilgan va katta pulga sotib olinib, oltin, javohirlar qatori xazina boyligi hisoblangan.

Qur’onda jonivorlar tasvirini chizmaslik haqida ta’kidlanmagan bo’lsa ham, islom dini asrlar davomida rasm san’atining rivojiga to’sqinlik qilib keldi. Arab hattoligining turli xillari ishlab chiqilib, xatning o’zi san’at asariga aylanib qolganligining sababi ham shunday bo’lsa kerak. Qo’lyozma kitoblar haqida hattotlik san’atining bilimdoni A. Murodov: “Sharq mamlakatlarida va O’rta Osiyoda xristian va buddizm dunyosida ko’rilmagan xattotlik, xat unsurlari bilan bog’langan naqqoshlik, musavvirlik va xat san’ati asosiga qurilgan badiiy qo’lyozmalar san’ati alohida taraqqiy etgan” deydi.

Fikrimizning isboti sifatida bu davr mo’jaz san’atda mehnat jarayoni, mehnatkash xalq vakillari obrazlari, oddiygina oila hayoti, dehqonchilik, bog’dorchilik, hunarmandchilik korxonalari kabilar tasvirini keltirishimiz mumkin. Badiiy adabiyotdagidek, tasviriy san’at markazida ham asosan inson shaxsi, uning hayoti, orzu-umidlari turadi.

Sharq miniatyurasi o‘ziga xos bo‘lib, u g‘arb tasviriy san’atidan farq qiladi. U o’zining yozuv va ichki tuzilishiga ega. Miniatyura o‘zining erkin ifodasi, rasmning nozik va nafisligi, erkin va mayinligi, garmonik muvozanati bilan ajralib turadi. Biz bu yerda istiqlolli yorug‘liklarni ko‘rmaymiz. Miniatyura o‘ziga xos yuz yillar davomida shakllantirilgan ifodali tilga ega. Sharq rassomlari istiqbolni va unga bog‘liq, fazoviy bo‘shliqlarni rejalarni tasvirlaydi. Miniatyuraning dastgohli kartinadan farqi shundaki, diqqat bilan qarashga, kuzatishga, mushohada qilishga mo‘ljallangan. Shu san’atning ba’zi tadqiqotchilari musulmon sharq miniatyurasini g‘arb davlatlariga xos san’atning real tasviri nuqtayi nazaridan ko‘rishga moyillik bildirmoqdalar. Bu muammoni mutaxassis olimlardan G.A. Pugachenkova, L.I. Rempel, S.I. Galerkina va boshqalar ishonch bilan isbot qildilarki, san’atda realizm shakli tarixan o‘zgargan, shu bilan birga miniatyura san’atining dekorativligi uning obrazli o‘ziga xos sharq miniatyurasining realistik, san’ati hisoblanadi va rangtasvirning nodir bir tarmog‘ini tashkil etadi.

Miniatyura badiiy markazining shakllanishi va rivojlanishi bir necha asrlar mobaynida: XI−XII asarlardan boshlanib, ba’zi mamlakatlarda esa XIX asrlargacha davom etgani ma’lum. Sharq miniatyurasi o‘z rivojlanishi davomida uzoq va murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Sharq miniatyurasi san’ati tarixida qator maktablarni o‘zida birlashtiruvchi to‘rt asriy davr mavjud:

1.Temuriylar davri Xuroson va Movarounnahr (Hirot, Samarqand, Tabriz, Sheroz maktablari).

2. Savafiylar davri – Eron (Sheroz, Tabriz, Mashhad, Isfaxon maktablari).

3. Shayboniylar davri – Markaziy Osiyo (Buxoro, Samarqand maktablari).

4. Boburiylar davri – Hindiston (Agra, Dehli maktablari).

5. XVII−XX asrlar Markaziy Osiyo miniatura markazlari.

O‘rta asrlar sharq miniatyurasida rangning ahamiyati juda kattadir. Balki sharq va g‘arb rangtasvirining asosiy farqi shundaki, miniatyurada rangning o‘z estetik qiymatiga ega bo‘lganligidadir. Yalt etib ko‘zga tashlanuvchi gilamni eslatuvchi miniatyuradagi barcha kompozitsiyalar mushohada qilishga yo‘naltirilgan.

V asrga kelib Sheroz maktabi sezilarli darajada orqada qola boshladi. O`sha davrda fan va san'at ixlosmandlariga homiylik qila boshlagan sulton Husayn va shu yerda yashab ijod qila boshlagan shoir Alisher Navoiy Eronning eng yaxshi san'at namoyandalarini Hirotga jalb etadilar. 1519 yili hirotda Jomiyning «Oltin zanjir» dostoni xattot Mir Ali al Husayn tomonidan ko`chirilgan. XVI asrning 50 yillarida o`sha paytlarda Ibrohim Mirzo saroyida ochilgan ustaxonada mashhadlik rassom tomonidan ishlangan.

XVII asr Eron rang tasvirida safaviylar poytaxtiga aylangan Isfoxon shahri bilan boqliqdir. Miniatyuraning Isfoxon miniatyura maktabi mahalliy maktablarni o`zida birlashtirib, shu davrning yangi badiiy g’oyalarini ifodalab, rassomlarning insoniyat ichki dunyosini ifodalashga qiziqtira boshladi.

Manzara elementlari bilan to`ldirilgan portret janri rivojlandi. Miniatyurada yorqinlik va ko`p ranglilik yo`qola boshladi. Bunda Yevropa rang tasviriga xos nur va soya, Yevropacha kiyimlaridagi qahramonlar yuzaga keldi. XVII asrning ikkinchi

yarmida rassom Aliquli Jabbor va italiyada ta'lim olgan Muhammad Zamon yetishib chiqdi. Rizo Abbosiy shoh Abbos – I saroyida saroy rassomi edi. Bu maqsadga yetish uchun rassom naturaga qarab ishlagan. Chunki uning gavdasi harakatlarini, imo-ishoralarini va holatlarini tasvirlarda hayotiy lavhalar va eskizlar saqlanib qolgan.

XVIII – XIX asrlar Eron miniatyurasida jannat va do`zaxni, Muhammad payg'ambarni, imomlarini tasvirlash va boshqa shunga o`xshash qo'pol xarakterga ega bo`lgan but shaklidagi asarlar keng tarqalib ketadi.

XIX asr va XX asr boshlarida rassom Kamol ul Mulki Eron rangtasvirini Yevropaning badiiy obrazlarini qo`llagan holda isloh qiladi. Miniatyura Eron san'atining shunchalik o`ziga hos va yorqin bir ko`rinishi ediki, uning an'analari va ta'siri hozirgi zamon Eron rassomlarining ijodida ham sezilib turadi.

Talaba yoshlar ta'lim jarayonida O'zbekiston hududidagi tasviriy san'atning shakllanishi taraqqiyot tarixiy bosqichlari bilan uzviy bog'liqligi bosqichma - bosqich rivojlanib, mukammallashib kelayotgan metodika fanining, zamonaviy o'qituvchi kadrlar tayyorlashda tarbiyaviy mohiyati yuksak ekanligi haqida bilishlari uchun avvalo o'zimizda rivojlangan tasviriy san'at turlari va tarixi haqida chuqur bilimga ega bo'lishi talab etiladi.

Qadimdan Markaziy Osiyo, Misr, Xitoy, Yaponiya, Hindiston kabi mamlakatlarda tasviriy san'atning ancha qiyin grafik chizmalari paydo bo'lgan. Misr qadimdan tasviriy san'at maktablariga ega bo'lgan davlatlardan biridir. Tasviriy san'at borasida nazariy bilimlarni ilmiy pedagogik jihatdan talqin etish masalasiga san'at tushunchasining o'zini tahlil qilish orqali yondoshish maqsadga muvofiqdir.

Odamlar tomonidan biron-bir ish, narsa, buyum va hakozalarning mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetkazish inson mehnatining san'atkorona bajarilganini bildiradi. Demak, pedagoglarning ham o'z mehnatini puxta, chiroyli, kamchiliksiz bajarishi san'atkorlik namunasi bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya berishda tasviriy san'at tushunchasining o'zi qanday xarakterga ega ekanligi alohida ilmiy pedagogik tahlilni taqazo etadi. Ana shuning uchun ham bu boradagi mavjud nazariy tushunchalar, ularning pedagogika fanidagi o'rni haqida to'xtalishimiz lozim.

Ajdodlarimiz tarixi bizdan qancha uzoq bo'lmasin va ularning diniy e'tiqodlari o'ziga xos bo'lganligidan qat'iy nazar biz bilan ularni bog'lab turadigan izlari bor. U ham bo'lsa, ular yaratgan ajoyib san'at namunalari, ularning ma'naviy qadriyatlari, umumiy dunyoqarashlarida insoniyat tafakkurining uzviy rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazib qolgan tushunchalari va bilimlari hisoblanadi. Shuning uchun ham zamonaviy rassom o'qituvchlarni har tomonlama tarbiyalashda, shakllantirishimizda bunday o'tmish meros namunalariga murojat qilib turishimiz, ularni ta'lim jarayonida nafaqat o'tmish namunasi sifatida, balki uslubiy mukammal vositalar sifatida foydalanishimiz mumkin.

Nazorat savollari:

1. Sharq miniatyura maktablarining rivojlanish tarixi nechanchi asrga borib taqaladi?

2. O'rta Osiyo miniatyura maktablarining namoyondalari yaratgan maktablar qanday metodika asosida ish olib borgan?

3. Eron miniatyura maktablarida qanday tasvirlar aks etgan?

4. Sharq miniatyurasi san'ati tarixida qator maktablarni birlashtiruvchi davrlarni sanab o'ting?

5. Islom dini kirib kelgunga qadar tasviriy san'atni o'qitilishiga doir qanday metodlardan foydalanilgan?

6. O'zbekistonda dastlabki tasviriy san'atni o'qitilishida qanday ta'lim shakllaridan foydalanilgan?

2 MODUL.TASVIRIY SAN’ATNI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDAGI BOSHQA O‘QUV FANLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

2.1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at ta’limining maqsad va vazifalari, mashg‘ulotlarning mazmuni

Reja:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at ta’limining maqsad va vazifalari.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at mashg’ulotlarining mazmuni

3. Bolajak talabalarni tasviriy san’at mashg’ulotlari bo’yicha ijodkorlikka yetaklash

Tayanch iboralar: Estetik, ideologiyasi, proporsiyasi, tafovut, aktiv, chanqoqlik.

Tasviriy san'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo`ldi, mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go`zallik hissi ortdi, voqelikdagi go`zallik qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o`zgarishlar sodir bo`ldi. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi, bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Mashhur san'at ustalari va san'atkorlar shu davrda paydo bo`ldi.

Tasviriy san'at o`zining o`ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ`ib etuvchi kuchli g`oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go`zallik va oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar.

Xalqning turmushi, hulq va odatlari, yutuq va mag`lubiyatlari ularning asarlarida o`z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo`lgan ana shunday san'at hayot go`zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak hislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni kelajakka intilishga da'vat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo`lib qolmay, balki o`zida inson aql-zakovati, hayot to`g`risidagi fikr-uylarini aks ettiruvchi ko`zgu ham hisoblanadi. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o`tmish odamlarning his-tuyg`u, hayotiy tajribalarini o`rganish, g`oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilishdan iborat. Bu so`zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi.

Respublikamizda ro'y berayotgan o'zgarishlar barcha sohalardagi kabi bo'lajak tasviriy san'at pedagoglarining zimmasiga ham o'ta ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi. Darhaqiqat xalqimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritib xalqaro miqyosida to'la o'zligini namoyish qildi.

Tasviriy san'at o'qituvchisi boshqa fanlar o'qituvchilari kabi birinchi galda eng yuksak fazilatli, axloqiy pok, iymon va e'tiqodli, halol va sofdil, talabalarga, o'smir va yoshlarga nisbatan o'ta mehribon, o'ta talabchan va o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analarini mukammal biladigan va hurmatini joyiga qo'yadigan bo'lishi kerak.

O'qituvchining kasbiy xususiyatlari borasida to'xtalganda shuni ta'kidlash lozimki, u eng avvalo o'z kasbining jonkuyari, uni dildan sevadigan, o'z ishiga ijodiy va ilmiy yondoshadigan shaxs bo'lmog'i ta'lab etiladi. Bu shaxsda yangi bilimlar va ilg'or tajribalariga chanqoqlik, muhimi unda tashkilotchilik, kuzatuvchanlik, qat'iylik va insoniylik xususiyatlari yaqqol sezilib tursin. O'qituvchi tasviriy san'atdan maxsus bilim va malakalar bilan qurollanmasdan turib muallimlikni bajara olmaydi yoki o'quvchi yoshlarga tabiat go'zalligini, ona Vatanimizning tarixini, milliy merosimizning tarixini ta'riflab bera olmaydi, hamda o'z kasbiga qiziqtira olmaydi.

Bugungi talaba, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi, o'zbek xalqining hamda o'tmishi bor bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlarning tasviriy san'at borasidagi noyob namunalarini o'zlashtirgan bo'lishi va to'laligicha o'quvchi yoshlarga ulashmog'i ayni davr talabidir. Shu sababli bo'lajak rassom-pedagoglarga quyidagi talablar yuklanadi :

-O'zlari ta'lim berishi lozim bo'lgan o'smir va yoshlarga san'at sirlarini, madaniy meros namunalarini har tomonlama o'rgatish;

-Ayni yangilanish, rivojlanish davrida yosh avlodni bilimdon, yaratuvchan,

yuksak madaniyatli va mustaqil mamlakat taqdiri uchun ma’sul shaxslar qilib tarbiyalash;

-Ulug‘vor bunyodkorlik ishida malakali, g‘ayratli o‘qituvchilar yoshlar peshqadamlik qilmoqlari uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash ;

-Talabalarni tasviriy san’at yo‘nalishi buyicha ijodkorlikka yetaklash, layoqat sezilganda esa astoydil o‘rgatish uchun maxsus maktab yoki to‘garaklarga jalb etish;

-O‘quvchi va yoshlarga nafis san’at sirlarini o‘rgatish borasida o‘z ustida doimo izlanish, talabalar faoliyatini rivojlantirib, to‘g‘ri va asosli shakllantirish uchun pedagogik qoidalar asosida tajribalar olib borish;

- Turli davr, turli xalqlarga mansub tasviriy san’at asarlarini mushohada qila olmog‘i va uni tushunish sirlarini yoshlarga ulashish uslublariga ega bo‘lish;

Yuqorida zikr etilgan talablarni o‘zida mujassam etgan har qanday talabaga kelajak avlodimizni ishonib topshirsak bo‘ladi.

Tasviriy san’at muallimi – ilmiy izlanuvchan ijodkor. Rassom o‘qituvchilar qayerda, qanday o‘quv maskanida ta’lim jarayonini olib borishidan qat’iy nazar pedagogik faoliyati ijodiy izlanishlar bilan boyitib borsa, shundagina yaxshi shogirdlar, haqiqiy rassomlarni shakllanitirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tasviriy san’at o‘qituvchisining o‘z sohasidagi savodxonligi yetarli darajada bo‘lsagina o‘quvchilar bilan yonma-yon o‘tirib o‘zlari amaliy namuna ko‘rsata oladilar. O‘shandagina o‘quvchilar o‘z ko‘zlari bilan murabbiy rassomning egallagan mahorat sirlarini amaliy ishlarida ko‘rib ruhan his qiladi hamda san’atning nozik sirlarini tushunib etishishiga imkoniyatlari kengayadi.

Tasviriy san’at mashg‘ulotlari har tomonlama rivojlangan insonning tarbiyalashi uchun boy imkoniyatlar ochib beradi. Tasviriy san’at bilan shug‘ullanish bolalarning aqliy va estetik jihatdan rivojlantiradi, atrof dunyoni tushunishiga ko‘maklashadi, buyumlarni e’tibor bilan kuzatishga, ularning shaklini tahlil qilishga o‘rgatadi. Tasviriy san’atdan savodni chiqarmasdan turib, kishi san’atni tushunishi ham, qadrlashi ham, undan huzur qilishni ham bila olmaydi. Bolalar tarbiyasida zamondoshlarimiz mehnatini go‘zalligini ko‘rsatishga, mustaqil davlat taraqqiyoti

yutuqlarini o‘rganish alohida o‘rin egallaydi. Bu o‘quvchilarning ijodiy aktivligini oshirishga ularning kuchini, ma’naviy quvvatini yangi hayot qurish uchun kurashga safarbar etishga ko‘maklashadi.

Bugungi kunda madaniy va ma’naviy tarbiya o‘z oldiga insonda mavjud voqelikni ijodiy o‘zlashtirish qobiliyatiga ehtiyojini yaratishdan tashqari, balki unda go‘zallik qonuniga asosan qayta qurish ehtiyojini ham tarbiyalashga qaratilgan.O’rta umumta’lim maktablarning vazifasi estetik tarbiyaning turli metodlari yordamida bolaning aql va vujudiga ta’sir o‘tkazib, unda estetik hissiyotlarini paydo qilish orkali uni go‘zallikka, tabiat ko‘rinishlariga yaqinlashtirish, shuningdek bolaning ijodiy imkoniyatlarini, fikriy faoliyatini rivojlantirib, inson faoliyatining turli sohalarida namoyon bo‘lishiga ko‘maklashishdan iboratdir.

Har bir o‘quvchini hayotda, davlatimizning moddiy va ma’naviy rivojlanishida faol ishtirok etadigan qilib tayyorlash uchun unga faqat bilim berib tarbiyalashgina kamlik qiladi, uning shaxsiy qobiliyatini rivojlantirish, yangilik yaratishni o‘rgatish, go‘zallik qonuni bo‘yicha yashash va ijod qilishni shakllantirish lozim. Hayot go‘zalligini ko‘rishga intilish insonni olijanob qilib tarbiyalaydi, uning kundalik ishini estetik rohat-farog‘at manb’aiga aylantiradi.

Bolalar ko‘nglida go‘zallik va yuksak g‘oyalar hissini uyg‘otishga da’vat etishda tasviriy san’at o‘qituvchisining o‘rni g‘oyat kattadir. Bolalar ma’naviy didini rivojlantirish uchun o‘qituvchi, avvalo, ularning e’tiborini hayotdagi go‘zallikka qaratishga, go‘zallikni payqash, his etish, qabul etish, huzurlanish, quvonishga o‘rgatish kerak. Did insonning tug‘ma xususiyati emas. U rivojlantiriladi, maktabda uni takomillashuviga yordam beruvchi birinchi inson tasviriy san’at o‘qituvchisidir.

O‘qituvchi bolalarga tabiatning rang-barang olamini, rang-birang shakllarini ko‘rsatadi. Tabiat go‘zalligi, ochiq havoda o‘tkazilgan kunlar haqida xotiralar, ular hayotda ko‘rib baxri-dillarini ochilgan, tasvirlash qiyin bo‘lgan gulzorlarning ranglari - ularning ko‘nglini shodixondon etgan, hayajonlantirgan narsalarning xotirasi uzoq vaqtgacha o‘quvchi qalbida saqlanib qoladi. O‘quvchilar naturadan manzara, daraxt shoxlari, yaproqlar, gullargning rasmini chizar ekanlar, ularning shakllarini o‘rganar ekanlar, tabiatga, uning shakl va ranglari naqadar boy va turfaligiga amin bo‘ladilar.

Tabiatdagi go‘zallikka,voqea-hodisalarga mehr-muhabbatlari osha boradi. Maktabdagi tasviriy san’at darslari tufayli kishi dunyonini haryoqlama ko‘radigan bo‘ladi,ularning kuzatuvchanligi rivojlantiriladi, mantqiy fikrlashga o‘rgatadi, ko‘rgan narsani anglab etishga o‘rgatadi.

Bolalar tasviriy san’at darslarida atroflaridagi yaqin turgan predmetlar ularning shakli, rangi, hajmi va boshqa o‘ziga xos jihatlardagi xilma-xillik bilan tanishadilar. Bu tanishuv ulardagi ko‘z xotirasini kuchaytiradi, buyumlar haqidagi aniq va to‘la tasavvurlari paydo bo‘lishiga yordamlashadi. Tasvir jarayoni o‘quvchiga ilgari qisqagina nazar solib o‘tgan buyumlarni endi chuqurroq o‘rganishga imkon beradi.

O‘quvchi rasm chizayotgan vaqtida buyumning formasi, ularning shakliy qurilishi, proporsiyasi, bo‘shliqdagi holati, rangi, uning och-to‘qligi, materialining qandayligi e’tibor bilan o‘rganiladi, shu bilan ularni yanada samaraliroq, ko‘p tomonlama, teran va aniq xis etishga ko‘nikib boradi.

Tasvir chizishga o‘rganish o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki masalani hal qiladi: o‘quvchining ko‘rish qobiliyatini o‘stiradi, hamda tasvirlayotgan, ko‘rayotgan narsa haqidagi tasavvurini oshirib uni chuqurroq anglab etishga o‘rgatadi.

O‘quvchilarning ko‘rish qobiliyatini o‘stirish deganda biz ulardagi bir maqsadga qaratib yo‘naltirilgan kuzatishni tarbiyalashni: buyum va hodisalarini o‘zaro taqqoslash, o‘xshashlik va tafovutni aniqlash, ularning shakl va uslubiga qarab turkumlashtirishga o‘rgatishni tushunamiz. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarining vazifasi jiddiy e’tibor bilan qarashga, fikrlashga, buyumlar shaklini aniq tahlil qilishga o‘rgatishdan iboratdir. Rang-barang tassurotlarini mulohaza qilish, kuzatishlardan umumlashmalar chiqarish va to‘g‘ri xulosalarga kelish natijasida o‘quvchilarning malaka va ko‘nikmalari rivojlanadi, ularda yangi bilimlar egallashga intilish uyg‘onadi.

O‘quvchilarning ongli ko‘rish, e’tiborini takomillashtirib borish natijasida diqqat –e’tiborning boshqa shakllarini, ya’ni maktab yoshdagi bolalar uchun zarur bo‘lgan turlarni rivojlantirishga yordamlashadi. Chunki bu yoshdagi bolalarda odatda uyushmagan, beqaror e’tibor mavjud buladi.

O‘quvchilar dars va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ravishda bajarayotgan

ishlari vositasi bilimga, malakaga, ijodiy ko‘nikmaga ega bo‘ldilar, o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarning mustaqil ishlariga yordam berishi, rag‘barlantirish metodi asosida ilhomlantirish, yutuq va kamchiliklarni o‘z vaqtida ko‘rsatish, ularni o‘z kuchiga ishonchini mustahkamlashida rahbarlik qiladi.

Nazorat savollari:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at ta’limining maqsadi nimada?

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at vazifalarini sanab o’ting?

3. Maktabdagi tasviriy san’at darslari orqali o’quvchilarning psixologik ruhiyatiga qanday ta’sirlarni ko’rsatadi?

4. Bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchisi qanday xislatlarga ega bo’lishi lozim?

5. O’quvchilar tarbiyasida tasviriy san’at faning o’rni nimada?

6. Martabda o’quvchilarni tasviriy san’at darslarida sinfdan tashqari qanday tadbirlar tashkil qilish mumkin?

2.2. Tasviriy san’at fanida davlat ta’lim standarti

Reja:

1. Davlat ta’lim standartlarining maqsadi va vazifalari.
2. Davlat ta’lim standartlarining vazifalari.
3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at fanida davlat ta’lim standartlari asosida namunaviy taqvim-reja va tavsiyalar.

Tayanch iboralar: demokratiyalashuv, estetik, standartlar, ijtimoiylashuv, texnologiya, kadrlar, akkreditatsiya.

Davlat ta’lim standartini bajarish O’zbekiston hududida faoliyat ko’rsatuvchi barcha ta’lim muassasalari uchun majburiy hisoblanadi. DTS ta"lim mazmuni shakllari, vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi.

Hozirda har bir fan bo‘yicha, shu qatori badiiy-estetik turkumdagi fanlardan davlat ta’lim standartlarining yaratilishi, uni hukumat tomonidan tasdiqlanishi katta

ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan voqeadir. Mazkur standartlar O‘zbekiston tarixida birinchi bor yaratilishi bo‘lib, u respublikamiz maktablarida ta’limni yuqori ilmiy-metodik asosda tashkil etish hamda uni jahon standartlari darajasiga olib chiqishga sharoit yaratadi.

Davlat ta’lim standartlarining maqsad va vazifalari. Davlat ta’lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ta’limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta’minlash:

- mamlakatning ijtimoiy va ijtimoiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- ta’limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta’lim oluvchilarning huquqiy iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish:

- sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfatlarini himoya qilish:

- kadrlar tayyorlash sifatini va ta’lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash:

- ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta’minlash, ta’limning barcha turlari va bosqichlarida o‘quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;

- mehnat va ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlilikni ta’minlash;

Davlat ta’lim standartlarining vazifalari:

- ta’lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo‘yiladigan maqbul talablarni belgilash;

- ta’limga va uning pirovard natijalariga, ta’lim oluvchilarning bilimi va kasbiy malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibi va tartibotiga, shuningdek ta’lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo‘yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me’yyoriy bazani yaratish;

- xalqning boy ma’naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta’lim oluvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- ta’limning barcha turlarida ular mazmunini hamda olib boriladigan ta’lim va tarbiyani kelishib olish ularning o‘zaro bog‘liqligini, uzluksiz ta’lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta’minlash;

- o‘quv-tarbiya va ta’lim jarayoniga, uzluksiz ta’lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta’minlanishiga, ta’lim darajasini nazorat qilishga, ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me’èrlar va talablarni belgilash;

- ta’lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning holis tizimini, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;

- milliy standartlar talabining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash;

Tasviriy san’at ta’limi davlat standarti san’atning uch turi-tasviriy, amaliy va me’morchilik san’atlari mazmunini aks ettirgan bo‘lib, u avvalo milliy o‘zbek san’atini, uning badiiy an’analarini, ayrim mashhur o‘zbek tasviriy, amaliy, me’morchilik san’atlari ustalarining hayoti va ijodini, O‘zbekistonda san’atning bu turlari rivoj topgan markazlarni, O‘zbekistondagi yirik san’at muzeylarini bilish tasviriy san’at o‘quv predmetini vazifalaridan biri ekanligini qayd qiladi. Bundan maqsad milliy san’at vositasida o‘quvchilarga badiiy ta’lim berish bilan bir qatorda ularda shaxsni estetik, axloqiy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishdan iboratdir. Milliy o‘zbek san’atini chet el va jahonning hozirgi zamon ilg‘or san’atiga qaraganda kengroq va chuqurroq o‘rgatishdan maqsad har bir o‘zbek o‘quvchisi o‘z halqining tarixini, adabiyotini bilishi shart ekanligi kabi, uning san’atini ham nisbatan kengroq bilishiga erishishdir. Milliy san’at ta’lim mazmunida poydevor bo‘lishi lozim.



Bugungi kunga kelib umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarida belgilangan bilimlarni o‘zlashtirishga imkoniyat yaratish maqsadida Xalq ta’limi vazirligning 2020 yil 25-dekabrdagi 02-02/2-1671-son xatiga asosan joriy o‘quv yilining 3-choragidan boshlab, “Tasviriy san'at” fanlari an’anaviy shaklda o‘qitilishi belgilandi. Shu munosabat bilan, ushbu fanni tig‘izlashtirilgan holda o‘qitish bo‘yicha mazkur namunaviy taqvim-reja va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Boshlang‘ich va yuqori sinflarda mavzular asosan takrorlanishlar va mustahkamlanishlarni hisobiga jipslashtirilgan. Faoliyat turlariga ko‘ra takrorlangan mavzular ham bir biriga singdirilgan.

TASVIRIY SAN'AT

(1 sinf)

Darslar tartibi	**Mavzu nomi**	**Soat**	**Taqvimiy muddat**
	3 chorak		
1-dars	Tasviriy san’at turlari. Chiziqlar va shakllar asosida "Avtomashina" rasmini chizish	1	
2-dars	Rassomning ish qurollari .Bo‘yoqlar va ranglar “Kumush qish” mavzusida rasm ishlash	1	
3-dars	Kuz va qish fasllarini ranglar asosida tahlil qilish”	1	
4-dars	Tasviriy san’atda haykal ishlash sirlari .Xo‘tik	1	
5-dars	Akvariumdagi baliqlar rasmini ishlash	1	
6-dars	Yelkanli qayiqcha rasmini tasvirlash	1	
7-dars	“Uch tulki” ertagi asosida rasm ishlash	1	
8-dars	**Nazorat ishi** “Ikki echki” ertagi asosida haykal ishlash	1	
9-dars	Fil haykalchasini ishlash.	1	
	4 chorak		
10-dars	Samolyot rasmini ishlash	1	
11-dars	Bahor fasli mavzusida suhbat. “O‘lkamizda bahor”	1	
12-dars	Olma va xurmo rasmini ishlash	1	

13-dars	Havo shari rasmini ishlash	1	
14-dars	Gullar rasmini ishlash	1	
15-dars	Kapalak rasmini chizish	1	
16-dars	**Nazorat ishi.** Daraxt barglari rasmini ishlash	1	
17-dars	To‘tiqush rasmini chizish	1	
	UMUMIY	**17**	

TASVIRIY SAN'AT

(2 sinf)

Darslar tartibi	**Mavzu nomi**	**Soat**	**Taqvimiy muddat**
	3 chorak		
1-dars	Tasviriy san’atda rang va tuslar “Qish manzarasi” mavzusida rasm ishlash	1	
2-dars	Yuk mashinasi rasmini ishlash	1	
3-dars	Qush rasmini ishlash	1	
4-dars	“Bo‘g‘irsoq” ertagi asosida haykal yasash	1	
5-dars	O‘zbek xalq amaliy san’ati. Yo'lsimon naqsh namunalaridan nusxa ko‘chirish	1	
6-dars	Doira shaklidagi naqsh kompozitsiyasini chizish	1	
7-dars	**Nazorat ishi.** 8-Mart bayramiga tabriknoma eskizini ishlash	1	
8-dars	“Navro‘z-bahor bayrami” mavzusida rasm ishlash	1	
9-dars	“Mening maktabim” mavzusida rasm chizish	1	
10-dars	Baliq, ot, tuya, mushuk kabi hayvonlarning haykalchalarini yasash	1	

4 chorak			
11-dars	Daraxt bargi rasmini ishlash	1	
12-dars	“Sholg‘om” ertagi asosida haykalchalar ishlash	1	
13-dars	Tuya rasmini ishlash	1	
14-dars	“Bobomning bog‘i” mavzusida rasm ishlash	1	
15-dars	Mevalar rasmini ishlash	1	
16-dars	Nazorat ishi. “Uch jo‘ja va o‘rdakcha” she'ri asosida haykalchalar yasash.	1	
17-dars	"Tulki bilan bo‘ri” ertagi asosida haykal yasash	1	
18-dars	Manzara rasmini ishlash	1	
	UMUMIY	**18**	

TASVIRIY SAN'AT

(3 sinf)

Darslar tartibi	**Mavzu nomi**	**Soat**	**Taqvimiy muddat**
3 chorak			
1-dars	“Qishki o‘yinlar” mavzusida kompozitsiya ishlash	1	
2-dars	“Sirk sahnasidagi tomosha” mavzusida haykal yasash	1	
3-dars	Minora uchun girixli naqsh ishlash. Yo‘lsimon yoki to‘rtburchakshaklda murakkab naqsh ishlash	1	
4-dars	“Toshbaqa bilan chayon” masali asosida rasm ishlash	1	
5-dars	Tennischi mavzusida rasm ishlash	1	

6-dars	Hayvonot bog‘ida mavzusida rasm ishlash	1	
7-dars	“Dorboz bola” mavzusida kompozitsiya ishlash.	1	
8-dars	“Guldondagi lolalar” yoki xonaki gullar ishtirokida natyurmort ishlash	1	
9-dars	Nazorat ishi. Uzum va shaftoli mevalaridan tuzilgan natyurmort ishlash	1	
10-dars	Navro‘z bayramiga tabriknoma eskizini ishlash	1	
	4 chorak		
11-dars	“Gulzordagi kapalaklar” mavzusida rasm ishlash	1	
12-dars	“Koinotga sayohat” mavzusida kompozitsiya ishlash	1	
13-dars	“Oqshom” mavzusida rasm ishlash.	1	
14-dars	“Tulki bilan turna” ertagi asosida haykal yasash	1	
15-dars	Kulolchilik. Lagan uchun naqsh ishlash	1	
16-dars	**Nazorat ishi.** Atlas matosidan naqsh namunasini ko‘chirish	1	
17-dars	Poliz ekinlaridan yoki 2-3 mevadan natyurmort rasmini ishlash	1	
18-dars	“Yoz o‘tmoqda soz” mavzusida rasm ishlash	1	
	UMUMIY	**18**	

TASVIRIY SAN'AT

(4 sinf)

Darslar tartibi	**Mavzu nomi**	**Soat**	**Taqvimiy muddat**
	3 chorak		
1-dars	Tasviriy san’atning turlari va janrlari “Qish keldi” mavzusida rasm ishlash.	1	
2-dars	Doira yoki kvadrat shaklida naqsh ishlash	1	
3-dars	“Ur to‘qmoq” ertagiga illustrasiya ishlash	1	
4-dars	“Tuya bilan bo‘taloq mavzusida” haykalini ishlash	1	
5-dars	“Harakatlanayotgan robot” mavzusida kompozitsiya ishlash	1	
6-dars	“Sport o‘yinlari” mavzusida kompozitsiya ishlash	1	
7-dars	"Tog'da bahor" mavzusida kompozitsiya ishlash	1	
8-dars	**Nazorat ishi. Test**	1	
9-dars	"Futbolchi" mavzusida haykal ishlash	1	
10-dars	“Qovun va anor” mavzusida natyurmort ishlash	1	
	4 chorak		
11-dars	**"Bahor gullari" mavzusida kompozitsiya ishlash**	1	
12-dars	“Qushlar hayoti” mavzusida kompozitsiya ishlash	1	
13-dars	"Bokschi" mavzusiga haykal ishlash	1	
14-dars	Kub rasmini chizish	1	

15-dars	“Poyga” mavzusiga rasm ishlash	1	
16-dars	**Nazorat ishi. Test**	1	
17-dars	“Raqqosa” haykalini ishlash	1	
18-dars	“Bo‘ri bilan turna” masaliga illustrasiya ishlash	1	
	UMUMIY	**18**	

TASVIRIY SAN'AT

(5 sinf)

Darslar tartibi	**Mavzu nomi**	**Soat**	**Taqvimiy muddat**
	3 chorak		
1-dars	"Men ham askar bo'laman" mavzusida kompozitsiya ishlash	1	
2-dars	Tabiatning obrazli manzarasini tasvirlash.	1	
3-dars	Tasviriy san'atda animalistik janr	1	
4-dars	"Binokorlik" yoki “Sharqona shahar” mavzusida kompozitsiya ishlash.	1	
5-dars	Oydin tundagi yoki quyoshning botish chog'idagi (tabiatning turli holatidagi) manzaraning kompozitsiyasini ishlash.	1	
6-dars	Naqsh kompozitsiyasini tuzish	1	
7-dars	Buyumga naqshli bezak berish	1	
8-dars	**Nazorat ishi.** Badiiy bezak grafikasi	1	
9-dars	Rangtasvir va grafikada manzara	1	
10-dars	Bayramga devoriy gazeta ishlash	1	
	4 chorak		
11-dars	Qalamtasvirda geometrik jismlar chizish	1	
12-dars	Rangtasvirda natyurmort chizish	1	

	bosqichlari.		
13-dars	Milliy idishlardan tuzilgan mavzuli natyurmortni ishlash.	1	
14-dars	Tasviriy san'atda portret janri	1	
15-dars	"Adabiy asar qaxramoni" mavzusida portret ishlash	1	
16-dars	Plastilin yoki loydan portret rel'yefini ishlash	1	
17-dars	**Nazorat ishi.** Odam haykalining turli vaziyatdagi holatini yasash	1	
18-dars	"Aqlli mashinalar" yoki “ Sanoat roboti” mavzusida rasm ishlash	1	
	UMUMIY	**18**	

TASVIRIY SAN'AT
(6 sinf)

Darslar tartibi	**Mavzu nomi**	**Soat**	**Taqvimiy muddat**
	3 chorak		
1-dars	Tasviriy san’atda dastgohli rangtasvir. Dastgohli rangtasvir asarlarini badiiy idrok etish	1	
2-dars	Nayurmort kompozitsiyasi	1	
3-dars	Xotiradan mavzuiy natyurtmort ishlash	1	
4-dars	Rangtasvirda syujetli kartina eskizini ishlash	1	
5-dars	Sharq miniatyura san’ati	1	
6-dars	Sharq miniatyura san’ati asarlari namunalarining elementlaridan nusxa	1	

	ko‘chirish (daraxt, suv, tog‘, tosh)		
7-dars	O‘zbek xalq ertaklari sujetlari asosida miniatyura usulida illustrasiya ishlash	1	
8-dars	**Nazorat ishi.** Adabiy asar syujeti asosida mustaqil kompozitsiya ishlash	1	
9-dars	Tayyor quti yoki idish ustiga miniatyura kompozitsiyasini ishlash	1	
10-dars	Xitoy va Yaponiya rassomlarining texnologik usuli. Nam qog‘ozga kompozitsiya (manzara, daraxtning shoxi, gul va hokazo) ishlash	1	
	4 chorak		
11-dars	Tasviriy san’atda tarixiy yoki mifologik mavzularda ishlangan portretlarni badiiy idrok etish, Tarixiy portret ishlash	1	
12-dars	Mifologik mavzuda portret ishlash	1	
13-dars	Harakatdagi odam, sportchi gavdasini grafik usulda yoki haykaltaroshlik usulida ishlash	1	
14-dars	Rangtasvir yoki qalamtasvirda 2-3 figurali mavzuli kompozitsiy aishlash	1	
15-dars	Mayda plastika haykaltaroshligi	1	
16-dars	**Nazorat ishi** Mayda plastik haykaltaroshlik asosida ijodiy ish.	1	
17-dars	Grafik ish (maktab, sinf emblemasini ishlash)	1	
18-dars	Tasviriy san’atda manzara janri	1	
	UMUMIY	**18**	

TASVIRIY SAN'AT

(7 sinf)

Darslar tartibi	**Mavzu nomi**	**Soat**	**Taqvimiy muddat**
	3 chorak		
1-dars	O‘zbekistonning me’moriy yodgorliklari	1	
2-dars	“Sharq me’morligi” mavzusida rasm chizish	1	
3-dars	Men istagan shahar	1	
4-dars	Me’moriy manzara	1	
5-dars	O‘zbekistonning amaliy bezak san’atida ramziy shakllar	1	
6-dars	O‘zbekiston naqsh ramzlari	1	
7-dars	**Nazorat ishi.** Amaliy bezak san’atining obrazli tizimi	1	
8-dars	Dizayn san’ati turlari haqida tushuncha	2	
9-dars	Dizayn san’ati	1	
10-dars	Tasviriy san’atda oqim va yo‘nalishlar. Impressionism uslubida manzara ishlash	1	
	4 chorak		
11-dars	Puantilizm uslubida manzara ishlash	1	
12-dars	Kubizm uslubida natyurmort ishlash	1	
13-dars	Tasviriy san’atda ramziy belgi va giraldika	1	
14-dars	O‘zbekiston kitob grafikasi san’ati	1	
15-dars	Kitobat san’atining badiiy grafik elementlari	1	
16-dars	**Nazorat ishi** “Kitob illyustrasiyasi”	1	
17-dars	Kitob maketini dizayni	1	
18-dars	Kitob maketini yasash	1	
	UMUMIY	**18**	

Davlat ta’lim standartida tasviriy san’at ta’limi mazmuniga bo‘lgan majburiy talablar bayon etilgan. O‘qituvchi uni bajarishi shart. Lekin o‘qituvchi shu bilan chegaralanib qolmasdan uni chuqurlashtirishga harakat qilishi lozim. Biroq ta’lim mazmunini yuqori darajaga olib chiqaman deb bolalarga keragidan ortiq talablar qo‘yish, ularni qiynash ham mumkin emas. Shuni ham yoddan chiqarmaslik lozimki, maktablarimiz nomi umumiy o‘rta ta’lim maktabi deb ataladi. Demak maktablarimizda umumiy, elementlar bilim va malakalar berilishi lozim.

Nazorat savollari:

1. DTS ta"limda qanday shakllarni ta’minlashga yordam beradi?

2. Tasviriy san’at darslarida DTS ning maqsadi nimada?

3. Tasviriy san’at darslarida DTS ning vazifasi nimada?

4. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarida belgilangan bilimlarni o‘zlashtirishga qanday imkoniyat yaratilgan?

5. Nechanchi yilda Xalq ta’limi vazirligning “Tasviriy san'at” fanlari an’anaviy shaklda o‘qitilishi belgilandi.

2.3. Tasviriy san’atni o‘qitishda didaktik prinsiplar.

Reja:

1. Didaktikaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi.
2. Tasviriy san’at darslarida didaktik prinsiplardan foydalanish
3. Tasviriy san’at darslarida didaktik o’yinlarnong o’rni va ahamiyati

Tayanch iboralar: Didaktika, printsip, ilmiy-pedagogik, professional qobiliyat, applikatsiya.

Har bir fan o‘qituvchisi kabi san’at o‘qituvchisi ham pedagogika nazariyasi va uning prinsiplarini mukammal o‘rganishlarini talab qiladi.

Didaktika (grekcha didasko – o‘qitaman) ta‘lim va ma‘lumot haqidagi fandir.Insonning tarbiyasi rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishida ta‘lim va ma‘lumot muhim ahaiyatga ega.

Bu atama birinchi nemis tarbiyachisi Volfgangom Ratke tomonidan tilga olinadi. Keyinchalik tadqiqotchilar tushunchasini kengaytirdi.

Didaktika fani ta‘lim va ma‘lumotning muhim muammolarini o‘rganish bilan birga «kimni o‘qitish kerak», «nimaga o‘rgatish kerak», «qanday o‘qitish kerak» kabi savollarga ham javob bo‘ladi.

Didaktika sohasida birinchi asar yaratgan olim XVII asrning chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670). O‘zining mashhur asari «Buyuk didaktika» (1632y yozilgan, 1975y o‘zbek tilga tarjima qilingan)sida o‘qitish va tarbiya jarayonlari, o‘qitishning yo‘llari va didaktik printsiplar maktabda ta‘lim-tarbiya ishlarini tashkil qilish kabi masalalarni ishlab chiqdi.

Markaziy Osiyo allomalari merosida ham didaktika sohasida yaratilgan bir qancha asarlarda ta‘lim qoidalari, ta‘limni tashkil etish, unda o‘qituvchining roli kabi masalalar bayon etilgan Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) «Tadbiri manozil», Abu Nasr Farobiyning «Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida», «Sharxlar», «Evklid kitobining muqaddimasiga sharxlar», «Hikmat asoslari» kabi bir qator asarlarida, Burhoniddin Marg‘iloniynng (1150-1187) «Ilmga kirishuvchi uchun birinchi asos» kabi asarlari shular jumlasidan.

Didaktika quyidagi masalalar bilan: ta‘lim jarayonining mohiyati, ta‘limni muvaffaqiyatli olib borish shartlari, ta‘limning vazifasi va mazmuni, ta‘limni tashkil etish shakli va metodlari, o‘quvchilarning bilimini tekshirish va baholash kabi masalalar bilan «Ta‘lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida «Ta‘lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustivor» deb e‘lon qilinganligi ta‘kidlanadi. Hozirgi davrda didaktlar vatanimiz va chet ellar pedagogikasi va psixologiyasi yutuqlariga tayanib o‘quvchilarning faolligini va mustaqilligini oshirish, o‘quvchilarni bilimlarni mustaqil egallashga o‘rgatish, ularning bilish faoliyatlarini faollashtirish, darsni takomillashtirish, ta‘lim printsiplari va ta‘limning izchilligi va shu kabi muammolarda tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

Didaktika pedagogika fanlari sirasiga kirgani uchun ham ta‘lim sohasini tadqiq etishda pedagogik ilmiy-tekshirish metodlaridan foydalaniladi. Ular quyidagilar:



Mustaqil O‘zbekistonda didaktika rivojlanishining hozirgi bosqichi «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi» ta‘lim oldiga qo‘ygan muammolar bilan bog‘liq.

Hozirgi davrda ham didaktikaning muhim vazifasi ta‘limning mazmunini bir asosiy masalaa barkamol shaxsni tarbiyalash masalasiga qaratish bo‘lib qoldi. Shuning bilan birga hozirgi va kelgusi didaktika faqatgina shu masalani bajarish bilangina cheklanib qolmaydi.

Hozirgi kunda «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi» va «Ta‘lim to‘g‘risida»dagi Qonun ta‘lim oldiga qo‘ygan muhm vazifalarni yechish hozirgi zamon didaktikasi zimmasiga tushadi.

Bular:

1) boshlang‘ich ta‘lim didaktikasi oldiga o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish yangi pedagogik texnologiya joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish zarur;

2) boshlang‘ich ta‘lim standartlarini ishlab chiqishda fan bilan bolaning bilim imkoniyatlari o‘rtasidagi birlikni o‘rganish sohasida keng tadqiqotlar olib borish;

3) o‘quvchilarning bilish qobiliyatlarini o‘stirish, ilmiy dunyoqarash va erkin fikrlashga o‘rgatish, mustaqil bilim olish va mustaqillikka o‘rgatish bugungi kun

vazifasidir. Chunki boshlang‘ich ta‘limdayoq bo‘larga e‘tibor berilmasa, o‘quvchining mustaqil, erkin va ijodiy fikrlashga o‘rgatib bo‘lmaydi.

4) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini «Kadrlar tayyorlash Milliy modeli» talablari asosida tayyorlash. Ularni yuqori professional qobiliyatga ega, bilimdon, pedagogik mahoratli bo‘lishlariga erishish.

Didaktikaga asoslangan holda biz o`quvchilarga bilim beramiz. Ta’lim jarayonida turli usullardan foydalanamiz. Dars turini to`g`ri va muvaffaqiyatli o`tish uslubini ham to`g`ri tanlasak dars yaxshi natija beradi. Har bir darsni ko`rgazmali va texnika vositalari bilan o`tkazish joizdir. Shundagina dars bilimga boy o`tadi. O`qituvchi izlanuvchan bo`lishi, darslarni rang-barang usulda o’tishi kerak. Dars qiziqarli o`tishi uchun faqat ko`rgazma qurollardan foydalanib qolmay, o`yin elementlaridan, dars davomida harakatli daqiqalardan foydalanish lozim. O`yin orqali bola faoliyati mukammallashadi, ularni jismonan rivojlanishiga yordam beradi. O`yin jarayonida qiyinchiliklarni, to`siqlarni yengishga o`rgatib boradi.

Ko'pgina tasviriy san'at o'qituvchilarning darslarida didaktik o'yinlar zarur. Pedagogik vaziyatlar tizimiga didaktik o'yinlarni kiritish bolalarda atrof-muhitni tushunishga alohida qiziqish uyg'otadi, o'quvchilarning samarali va tasviriy faoliyatiga va ularning darslarga bo'lgan munosabatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'yin bolaning jismoniy kuchini tiklaydi, quvonchli ish kayfiyatini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, didaktik o’yinlar bolaning ko'rish va sezish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Keling tasviriy san’at darslarida didaktik o’yin turlarini ko’rib chiqsak:

1."Teginishni bilish"o'yini.

(9-rasm)

Didaktik vazifa: ob'yektlarni shakli va rangi orqali idrok etish qobiliyatini rivojlantirish.

O'yin vazifasi: Qanday sabzavot yoki meva ekanligini bilish, xato qilmaslik.

Materiallar: Meva va sabzavotlar

9-rasm

to'plami, mato sumkasi.

O'yin harakatlari: Savatda sabzavot va mevalar yotadi. Bolalar o'z navbatida mos keladi, qo'lini sumkaga tushiradi, mahsulotni sezadi. Bu uning shakli, qattiq yoki yumshoq, uning yuzasi, silliq yoki qo'pol, odatda qanday rang ekanligini va oxir-oqibat u qanday sabzavot yoki meva ekanligini aytishi kerak. Vazifani to'g'ri bajargan kishi meva yoki sabzavot shaklida belgi oladi.

2. “Quvnoq naqsh" o’yini. (10-rasm)

Didaktik vazifa: Naqsh va uning elementlari haqidagi tushunchalarni mustahkamlash, estetik hisni rivojlantirish, ritm, shakl, rang hissi.

Materiallar: Sabzavotlar, mevalar, gullar, barglar, gullar.

O'yin harakatlari: Har bir jamoa oldida sinf doskasida naqsh yaratish bo'yicha jamoaviy ish uchun toza qog'oz chizig'i biriktirilgan. O'qituvchining buyrug'iga ko'ra, har bir jamoaning birinchi vakillari o'z guruhlariga mos keladigan, naqshning birinchi elementini tanlaydi va biriktiradi. Keyin ikkinchi vakillar, uchinchisi va boshqalar paydo bo'ladi, har bir kishi naqshning bir elementini tanlaydi va biriktiradi, shakli va rangi hisobga olinadi. Talabalar o'yin qoidalarini buzmasdan ishni to'g'ri, chiroyli va tezkor bajaradigan jamoa g'alaba qozonadi.

10-rasm

3. “Mening do'stlarim” o’yini. (11-rasm)

Didaktik vazifa: O’zbek xalq ertaklari va qahramonlari haqidagi tushunchalarni mustahkamlash, estetik hisni rivojlantirish, ritm, shakl, rang hissi.

Materiallar: "O'yinchoqlar" dekorativ chizig'i, asoslangan ertak

11-rasm

qahramonlariga asolangan multiplikasiya (applikatsiya).

Darsning vazifalari: Qadimgi o’zbek xalq va zamonaviy ertak qahramonlari va hayvonlarining yaxshi va chiroyli dunyosi haqidagi fikrni chuqurlashtirish.

4. “Sovuq va issiq ranglar” o’yini. (12-rasm)

Didaktik vazifa: rang va uning tuslari haqidagi tushunchalarni mustahkamlash, estetik hisni rivojlantirish, ritm, shakl, rang hissi.

12-rasm

*O'yin harakatlari:*Talabalar ikki guruhga bo'linadi. Bir guruh qor malikasining tojini bezash uchun ranglarni tanlashi kerak, ikkinchi guruh esa qushning patlarida ranglarni tanlaydi. Har ikki guruh ranglar aralashmasi qanday rang hosilasini topadi. Ranglar hosilasini topgan guruh g’alaba qozonadi.

5. Crossword "kalit so'zni toping" o’yini (13-rasm)

Didaktik vazifa: badiiy atamalar zaxirasini to'ldirish.

13-rasm

O'yin harakatlari: o'zaro faoliyat jumboqni hal qilish va kalit so'zni o'qish.

Ularni tuzishda talabalar lug'atlar, turli xil adabiyotlar bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Crossword jumboqlarini, testlarni yaratish va hal qilish jarayoni asosiy tushunchalarning mazmunini egallashga yordam beradi.

K. Baxanovning didaktik lug'atida: "o'yin-bu o'z-o'zini boshqarish hatti-harakatini rivojlantiradigan va takomillashtiradigan ijtimoiy tajribani qayta tiklash va rivojlantirishga qaratilgan vaziyat turidir".

Ta'kidlash joizki, so'nggi paytlarda psixologlar, o'qituvchilar, o'yin inson hayotida barcha davrlarini qamrab olishi, bu yosh belgisi emas, balki uning hayotiy faoliyatining muhim shakli ekanligini belgilaydi.

Nazorat savollari:

1. Qaysi olim didaktika sohasida birinchi asar yaratgan?

2. Tasviriy san’at fanini o’qitishda didaktikaning muhim vazifasi nimada?

3. Ta‘lim sohasida qanday didaktik metodlaridan foydalaniladi?

4. Tasviriy san'at o'qituvchilarning darslarida didaktik o'yinlarning roli nimada?

5. “Sovuq va issiq ranglar” o’yini o’quvchida qanday hissiyotni rivojlantiradi?

6. Siz yana qanday didaktik o’yinlarni bilasiz?

3 MODUL. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARINI O‘QITISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI

3.1. Boshlang‘ich 1-4 sinflarda va 5-7 sinflarda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi.

Reja:

1. Boshlang’ich sinf o'quvchilarining umuminsoniy ta'lim harakatlarini rivojlantirish

2. Boshlang‘ich 1-4 sinflarda va 5-7 sinflarda tasviriy san’at fanidan dars ishlanmalar

Tayanch iboralar: taqvimiy, dizayn, parallel, perspektiva, reproduksiya, emotsional.

Boshlang’ich sinflarda tasviriy san’at asarlarini idrok etishga oid o‘quv materiallari-o‘quvchilarning amaliy ishlari bilan bog’liqdir. San’at asarlarining nusxalarini ko‘rsatish va ular haqida so'zlab berish bolalarda san’atga qiziqishni orttiradi va shu sohada shug‘ullanishga yoilaydi. Asarlarni namoyish etishda bolalar unda ifodalangan asosiy fikr va qo’llanilgan badiiy-tasviriy vositalar bilan tanishtiriladi.

Tasviriy san'atni o’qitish metodikasida boshlang'ich sinflarda davlat ta’lim standarti bo’yicha belgilangan ta'limning bir qator vazifalarini belgilaydi va maktab o'quvchilarining umuminsoniy ta'lim harakatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

1. Borliqni idrok etish

2.Ijodiy faoliyat tajribasini takomillashtirish.

3. Rasm chizish usullarini o'rgatish.

4. Muloqot (bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda)madaniyatini o’stirish

1-4 sinf o'quvchilariga tasviriy san’at darslarini o’qitishda pedagog o’qituvchisining roli juda katta ahamiyatga ega. Chunki siz kichkina odamning murakkab, ba'zan ziddiyatli ichki dunyosi bilan shug'ullanishingiz kerak. Keling boshlang’ich sinf o’quvchilarining taqvimiy reja asosida berilgan mavzular yuzasidan dar ishlanmalar bilan tanishib chiqamiz.

Tasviriy san’at o’quv fanidan dars ishlanmalar

1-DARS MAVZU : Tasviriy san’atda “Rang va tuslar”**.**

Sana_____

**Darsning maqsadi: ta`limiy:** DTS talablari asosida dars o`tish, o'quvchilarning badiiy-ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish; ularning kuzatuvchanligi va xotirasini o'stirish; rasm ishlash malakalarini takomillashtirish.

Tarbiyaviy: O’quvchilarning estetik zavq olishini, dizayn san’ati, loyihalash, zavqlanish, badiiylikni oshirish;

Rivojlantiruvchi: tasviriy san’at ifoda vositalari va tasvirlashga ko’nikmalar hosil qilish.

Tasviriy faoliyat turi: Naturaga qarab rasm ishlash.

Darsning usuli: Yangi bilim berish ,takrorlash.

Darsning jihozi: ***a) O’qituvchi uchun:*** O’quvchilar ishidan namuna; Maktab va boshqa binolar aks ettirilgan rasmlar, chizish bosqichlarini ko'rsatuvchi rasm.

b) O’quvchilar uchun: Rasm daftar, qalam, o’chirg’ich, yozuv daftari, toza latta.

Darsning borishi.

I.Tashkiliy qism :Salomlashish , davomatni aniqlash, navbatchining axboroti.

Sinf tozaligini nazorat qilish, o`quvchilarni darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O`tgan mavzuni so`rab baholash.O'tilgan mavzuda berilgan uyga vazifasini tekshirish.

O'tgan darsda uyga vazifa qilib berilgan topshiriqiar tekshiriladi, ba’zi ishlar baholanadi va namoyish qilinadi. Iqtidorli o'quvchilar ishi ham tekshiriladi va ularning muallifflari rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzuning bayoni: Dars mavzusiga kirish: Respublikamizda o'quvchilarning ta’lim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilganligi, ular zamonaviy maktablarda tahsil olayotganliklari aytib o'tiladi. O'quvchilar maktab binosi fotosurati va tengdoshlari chizgan rasm bilan tanishtiriladi va bino tuzilishi haqida suhbat uyushtiriladi. Fotosuratda, asosan, to'rtburchak shakllari va to'g'ri chiziqlar borligi ta’kidlanadi. Binoning rasmini ishlash bosqichlari namoyish etiladi.



14-rasm

Qalamni ushlash.

Siyrak chizilgan chiziqlar och rangir anglatadi. Zich chizilgan chiziqlar to‘q rangni anglatadi.

Asosiy qism:

Topshiriq bayoni. Dars maktab hovlisida o’tkaziladi. O’qituvchi o’quvchilarga oddiy qalam yordamida rasm chizish yo’llarini eslatib o’tadi. Qalam uchini chiqarish va qalamdan foydalanish qoidalari eslatiladi. Dastlab qalam bilan chiziqlar chizish mashqi o’tkaziladi. Mashqlarning sinfda bir necha marotaba takrorlanishi maqsadga muvofiq bo’ladi. So’ngra bino tasvirini qalamda chizish darslikda berilgan bosqichlar asosida o’rgatiladi.

Kamalak jilosi aks etgan rasm yordamida undagi ranglar haqida savol-javob orqali suhbat uyushtiriladi. O'quvchilar e'tibori tabiatdagi va san'atdagi ranglarning o'zaro bog'liqligiga, ranglarni ko'ra bilish kabi muhim masalalarga qaratiladi. Kamalakning 7 xil rangli joylashuvininy doimiy ketma-ketligi buzilmasiigi ta'kidlanadi va ular o'quvchilar tomonidan eslab qolinishiga sharoit yaratish lozim bo'ladi.



Ranglarning ramziy ma'nolari haqida savol-javob o'tkaziladi. Javoblar o'qituvchi tomonidan umumlashtirilib, yashil – ona tabiat, yangilanish; moviy rang – osmon, koinot, tinchlik; qizil – ga'laba, olov, shodlik; sariq – muqaddaslik, yorug'lik, quyosh; qora – motam, qo'rquv, tushkunlik; oq – poklik, ozodlik, baxt ramzi ekanligi ta'kidlanadi.

Qalamda xomaki

Amaliy mashg'ulot:

Ikkinchi sinf o'quvchilari rasm chizishda endigina ko'nikma hosil qilayotganlarini inobatga olib, maktab binosi shartli ravishda yassi deb qabul qilinishi mumkin. Shuning uchun o'quvchilar imkon boricha maktab binosi to'g'risiga

o’tqazilishi kerak. O’quvchilar maktab hovlisiga chiqib «Bizning maktab» mavzusida naturaga qarab rasm chizishga kirishadilar. O’qituvchi aylanib yurib o’quvchilarga amaliy yordam va maslahatlar beradi.

IV.Darsni mustahkamlash;

Maktab rasmini chizganda asosiy e’tibor nimalarga qaratiladi?

Oddiy qora qalam yordamida to‘q ranglarni qanday hosil qilish mumkin?

V. Dars jarayonida faol qatnashgan o’quvchilarni rag’batlantirish va baholash. O’quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko’ra o’qituvchi tomonidan baholab boriladi. Amaliy mashg’ulotni yaxshi bajargan o’quvchilar ishi namoyish etiladi va tahlil qilinadi. O’quvchilarning ishlari baholanib, darsga xulosa yasaladi.

VI.Uyga vazifa : Sinfda ishlana boshlangan «Bizning maktab» rasmini qalamda yakunlang.«Bizning mahalla»

2-DARS. MAVZU : Mevalar va milliy idishlardan tashkil topgan natyurmort rasmini chizish.

Sana_____

**Darsning maqsadi: ta`limiy:** DTS talablari asosida dars o`tish, o’quvchilarga bosqichma bosqich natyurmort tasvirlash usullari haqida ma’lumot berish; yo’lsimon naqshlarni ishlashning o’ziga xos xususiyatlari va uning ahamiyati bilan tanishtirish;

Rivojlantiruvchi: o’quvchilarning tasviriy malakalarini o’stirish;

Tarbiyaviy: badiiy bilim doirasini kengaytirish; ularni estetik va badiiy didlarini rivojlantirish.

Tasviriy faoliyat turi: Dekorativ kompozitsiya.

Darsning usuli: Yangi bilim berish.

Darsning jihozi: ***a) O’qituvchi uchun:*** Naqshlar aks etgan buyurnlar rasmlari va naqshlangan buyumlardan namunalar, shu mavzuda parallel sinf o’quvchilari tomonidan ishlangan naqsh namunalari.

b) O’quvchilar uchun: Rasm daftar, qalam, o’chirg’ich, yozuv daftari, toza latta.

Darsning borishi.

I.Tashkiliy qism :Salomlashish , davomatni aniqlash, navbatchining axboroti.

Sinf tozaligini nazorat qilish, o`quvchilarni darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O`tgan mavzuni so`rab baholash.O'tilgan mavzuda berilgan uyga vazifasini tekshirish.

O'tgan darsda uyga vazifa qilib berilgan topshiriqiar tekshiriladi, ba'zi ishlar baholanadi va namoyish qilinadi. Iqtidorli o'quvchilar ishi ham tekshiriladi va ularning muallifflari rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzuning bayoni: Mevalar rasmini ishlash

Natyurmort – "jonsiz tabiat" tasviridir.Unda uy-ro`zg`or buyumlari mevalar, sabzavotlar, gullar kabi narsalar tasvirlanadi. Naturadan rangda tasvirlash jarayoni o'z qonun-qoidalariga ega. Ishning boshlanish qismida nimalar qilish, o'rtasida qaysi masalalarni hal etish va ish oxirlab qolganida uni qanday yakunlash kerakligini bilish zarurdir. :

-umumiy tus va rang holatlari va natura bo'yoqlarining bir-biriga yaqinligidagi tus va rang munosabatlarini topa bilish;

-katta rang – tusli munosabatlar chegarasidagi rang-tuslarning "cho'zilishi", alohida buyumlarni xajmli shakllarini batafsil rangli qayta ishlanishi.

-butun tasvirning umumiyligi, yaxlitligi hamda kompozitsiya markazini ko'rsata bilish.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish jarayonida o'quvchilarga odam, hayvon shuningdek qushlar turkumining o'lchov nisbatlari, umumiy o'lchovlar: kalla, qo'l, oyoq, tos va boshqa 54lastic anatomiya haqida tushunchalar beriladi. Bundan tashqari faktura haqida ma'lumot berib boriladi, masalan, yuzi g'adir-budir bo'lgan narsalar bilan bir qatorda yuzasi yaltiroq bo'lgan shisha yoki sirli narsalarning shakli chiziladi. Shuningdek, chizilayotgan narsani o'ziga o'xshatib, xarakterini topa bilish bilan birga uning fakturasini ham ifoda etish talab etiladi. Narsaning o'ziga qarab chizilgan tasvirida estetik tomonga ko'proq ahamiyat beriladi. Narsaning o'ziga qarab rasm

chizish darsi jarayonida har bir o‘qituvchi mavzuga oid tasviriy san’at asarlarini keltirib unda rassom qanday tasviriy vositalardan foydalanganligi, uning kompozitsiyasi, asardagi ranglarning moslashuvi haqida chizilayotgan narsalarni taqqoslab ko‘rsatsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.Bu borada o‘quvchilar faqat narsaning o‘ziga qarab rasm chizishdagi malakalari oshib bormasdan balki san’atimiz namoyondalari ishlagan san’at asarlari namunalari bilan tanishib boradilar.

Amaliy mashg’ulot: Olma rasmini ishlash bosqichlari.





15-rasm

IV.Darsni mustahkamlash;

O`quvchilar ishini nazorat qilish. Ular bilan birgalikda rasmni ishlash.

Dars jarayonida fikr yuritilgan tushunchalar savollar yordamida takrorlanadi. Amaliy mashg'ulotni yaxshi bajargan o'quvchilar ishlari namoyish etiladi va tahlil qilinadi. O'quvchilarning ishlari baholanib, darsga xulosa yasaladi.

V. Dars jarayonida faol qatnashgan o’quvchilarni rag’batlantirish va baholash. O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko’ra o'qituvchi tomonidan baholab boriladi. Amaliy mashg'ulotni yaxshi bajargan o'quvchilar ishi namoyish etiladi va tahlil qilinadi.

O'quvchilarning ishlari baholanib, darsga xulosa yasaladi.

***VI.Uyga vazifa* :** Sinfda ishlangan naqshni bo'yang, Mevalardan natyurmort chizing.

3-DARS. MAVZU: MANZARA MAVZUSIDA RASM ISHLASH.

Sana_____

**Darsning maqsadi: ta`limiy:** DTS talablari asosida dars o`tish ,o'quvchilarni badiiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; ularning tasviriy malakalarini shakllantirish; kuzatuvchanlik va xotirani o'stirish;

Tarbiyaviy: badiiy va estetik didlarini o'stirish; ularning badiiy fikr doirasini kengaytirish;

Rivojlantiruvchi: qalam va mo'yqalam bilan ishlash malakalarini takomillashtirish.

Tasviriy faoliyat turi: Borliqni idrok etish va naturadan rasm ishlash.

Darsning usuli: Yangi bilim berish.

Darsning jihozi: ***a) O'qituvchi uchun:*** Shahar va qishloq manzaralari tasvirlangan rasmlardan namunalar, «Perspektiva»ga doir ko'rgazmali qurol.

b) O'quvchilar uchun: Rasm daftar, qalam, o'chirg'ich, yozuv daftari, toza latta.

Darsning borishi.

I.Tashkiliy qism :Salomlashish , davomatni aniqlash, navbatchining axboroti.

Sinf tozaligini nazorat qilish, o`quvchilarni darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O`tgan mavzuni so`rab baholash.O'tilgan mavzuda berilgan uyga vazifasini tekshirish.

O'tgan darsda uyga vazifa qilib berilgan topshiriqiar tekshiriladi, ba'zi ishlar baholanadi va namoyish qilinadi. Iqtidorli o'quvchilar ishi ham tekshiriladi va ularning muallifflari rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzuning bayoni:

Dars mavzusiga kirish: Respublikamiz aholisining bir qismi shaharlarda va yana bir qismi qishloqlarda istiqomat qilishi aytilib, darslikda berilgan shahar va qishloq ko'rinishlari haqidagi rasmlar asosida suhbat uyushtiriladi. O'quvchilardan shahar va qishloqning bir- biridan farqi hamda o'zlarining shahar yoki qishloqlari to'g'risida gapirib berishlari so'raladi. Rasm ishlashda ranglardan to'g'ri foydalanish zarurligi, tabiatni kuzatish jarayonida undagi turli holatlarni narsa va hodisalarni anglash, tasvirlanadigan narsalar haqida ma’lumot beriladi. O'quvchilar narsalarning rasmini chizishda perspektiva qoidalaridan foydalanish tanishtiriladi. O'quvchilarga rasm chizishda perspektiva qoidalariga rioya qilish kerakligi uqtiriladi. Narsalar ko'zimizga qanday ko'rinsa, qog'ozda ham shunday tasvirlanishi lozimligi qayd qilinadi. Tushunarli bo'lishi uchun rasmda oldindagi tasvir orqadagisidan ko'ra kattaroq ko'rinishini daraxtlar misolida tushuntirish mumkin, ya’ni oldingi qatordagi bir xil o'lchovdagi daraxt kattaroq, keyingi qatordagilari kichikroq bo'lib ko'rinadi.

Asosiy qism:

O'qituvchi narsalarning rasm chizuvchidan bir xil uzoqlikda turganda o'lchamlariga mos ravishda bir xil kattalikda tasvirlanishi, rassomdan turli uzoqlikda turganda esa yaqindagisi kattaroq, uzoqdagisi kichikroq tasvirlanishi tushuntiriladi.

Rasm ishlashning sodda qoidalari.

* Yerda tik turgan narsaning qog'ozdagi tasviri ham tik bo'ladi.

* Narsalar rasm chizuvchidan bir xil uzoqlikda turgan bo'lsa, ularning qog'ozdagi tasvirlari nisbati haqiqiy o'lchamlari nisbati kabi bo'ladi.

Perspektiva. Perspektiva deb, rasmda yaqindagi narsalarning kattaroq, uzoqdag narsalarning kichikroq tasvirlanishiga aytiladi. Quyidagi rasm va fotosuratga e’tibor bersangiz, uzoqdagi daraxtlar kichrayib ko‘rinishining guvohi bo'lasiz.



16-rasm

Amaliy mashg'ulot: O'quvchilar mustaqil ravishda «Manzara : mavzusi bo'yicha rangtasvir kompozitsiyasi ishlashga kirishadilar. Rasmni chizishda perspektiva qoidalariga rioya qilishlari lozimligi uqtiriladi. «Manzara)» mavzusida rasmni bosqichlar asosida ishlang. Rasmni ishlashda perspektivaga rioya qiling.

IV.Darsni mustahkamlash;

Dars mavzusi darslikdagi savollar yordamida takrorlanadi. O'quvchilar tomonidan ishlangan rasmlardagi manzaralarning aks ettirilishi kimning ishida mazmunli chiqqanligi, kompozitsiyaning qaysi jihati ishga alohida ko‘rk baxsh etganligi aniqlanadi. Amaliy mashg'ulotni yaxshi bajargan o'quvchilar ishi namoyish etiladi va tahlil qilinadi.

1.Perspektiva nima?

2.Narsa ko'zga yaqin yoki uzoq turganligiga qarab qanday tasvirlanadi?

V. Dars jarayonida faol qatnashgan o’quvchilarni rag’batlantirish va baholash. O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko’ra o'qituvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy baholar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.

***VI.Uyga vazifa*:** Sinfda ishlangan «Mening shahrim (qishlog‘im)» mavzusidagi rasmni ishlashni davom ettiring va uni akvarelda bo'yang.

2*.«Shahrimiz ko‘chalari» mavzusida mustaqil rasm ishlang.

4 -DARS. mavzu: Ustozlar bayramiga tabriknoma eskizini ishlash

Sana_____

**Darsning maqsadi: ta`limiy:** DTS talablari asosida dars o`tish, o'quvchilarning qalam va mo'yqalam bilan ishlash malakalarini mustahkamlash; o'quvchilarni tabiatga estetik munosabatini shakllantirish.

Tarbiyaviy: Ularning badiiy fikr doirasini kengaytirish; o'quvchilarning estetik didini o'stirish;

Rivojlantiruvchi: Ularning tasviriy malakalarini shakllantirish; kuzatuvchanlik va xotirani o'stirish;

Tasviriy faoliyat turi: Borliqni idrok etish va naturadan rasm ishlash.

Darsning usuli: Yangi bilim berish.

Darsning jihozi: ***a) O'qituvchi uchun:*** Mavzuga oid rassomlar tomonidan ishlangan san'at asarlarining reproduksiyalari, slaydlari, gullar.

b) O'quvchilar uchun: Rasm daftar, qalam, o'chirg'ich, yozuv daftari, toza latta.

Darsning borishi.

I.Tashkiliy qism : Salomlashish , davomatni aniqlash, navbatchining axboroti.

Sinf tozaligini nazorat qilish, o`quvchilarni darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O`tgan mavzuni so`rab baholash. O'tilgan mavzuda berilgan uyga vazifasini tekshirish.

O'tgan darsda uyga vazifa qilib berilgan topshiriqiar tekshiriladi, ba'zi ishlar baholanadi va namoyish qilinadi. Iqtidorli o'quvchilar ishi ham tekshiriladi va ularning muallifflari rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzuning bayoni: Dars mavzusiga kirish: 1- oktabr – O`qituvchi va murbbiylar kuni. Ustozlar bizlarga o`qish va yozishni o`rgatadilar. Kelajakda yaxshi inson bo`lishimizni ta`minlaydilr. Bu bayramda ularni tabriklashni unutmasligimiz kerak Gullarning go'zallik ramzi ekanligi, ularning rassomlar asarlarida aks ettirilishi yuzasidan suhbat savol-javob orqali amalga oshiriladi. Barglarning o'ziga xos shakli, ularning ba'zilari dumaloqroq, ba'zilari uzunchoq, ba'zilarining cheti tekis, boshqalariniki jimjimador ekanligiga e'tibor qaratiladi.

O'qituvchi o'quvchilarni tabriknomani eskizini bosqichlar asosida ishlashni bosqichlari bilan tanishtiradi va chizib ko'rsatadi.

Asosiy qism:



1-bosqich

2-bosqich

3-bosqich

Rasmni rang bilan yakunlash.

4-bosqich

17-rasm

Amaliy mashg'ulot: O'quvchilar hayolan gullardan tuzilgan guldasta rasmini ishlaydilar.

O'qituvchi tomonidan gullardan guldasta rasmini ishlash yuzasidan ko'rsatmalar beriladi. O'quvchilar guldasta rasmini chizishga kirishadilar.

IV.Darsni mustahkamlash;

Darslikda berilgan savollar yordamida o'tilgan mavzu takrorlanadi. Amaliy mashg'ulotni yaxshi bajargan o'quvchilar ishi namoyish etiladi va tahlil qilinadi. O'quvchilarning ishlari baholanib, darsga xulosa yasaladi.

V. Dars jarayonida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish va

baholash. O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko’ra o'qituvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy baholar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa **:** Tabriknoma tayyorlash.

5-DARS.MAVZU: “KUZ KELDI” MAVZUSIDA RASM ISHLASH.

Sana_____

**Darsning maqsadi: ta`limiy:** DTS talablari asosida dars o`tish ,o'quvchilarning tasviriy malakalarini rivojlantirish; badiiy-ijodiy qobiliyatlarini o'stirish; Kuz fasli haqidagi bilimlarni boyitish.

Tarbiyaviy: Badiiy-estetik didini o'stirish; kuzatuvchanlik va xotirani rivojlantirish;

Rivojlantiruvchi: Tabiatga nisbatan estetik munosabatni shakllantirish.

Tasviriy faoliyat turi: Borliqni idrok etish va rangtasvir kompozitsiyasi.

Darsning usuli: Yangi bilim berish.

Darsning jihozi: ***a) O’qituvchi uchun:*** Kuz manzaralari aks ettirilgan rassomlarning asarlaridan namunalar, reproduksiyalar, «Iliq va sovuq ranglar» plakati.

b) O’quvchilar uchun: Rasm daftar, qalam, o’chirg’ich, yozuv daftari, toza latta.

Darsning borishi.

I.Tashkiliy qism : Salomlashish , davomatni aniqlash, navbatchining axboroti.

Sinf tozaligini nazorat qilish, o`quvchilarni darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O`tgan mavzuni so`rab baholash.O'tilgan mavzuda berilgan uyga vazifasini tekshirish.

O'tgan darsda uyga vazifa qilib berilgan topshiriqiar tekshiriladi, ba’zi ishlar baholanadi va namoyish qilinadi. Iqtidorli o'quvchilar ishi ham tekshiriladi va ularning muallifflari rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzuning bayoni: Dars mavzusiga kirish: Dars kuz faslida tabiat qo'yniga uyushtirilgan sayohatdan so'ng o'tkaziladi. Yangi mavzuning bayoni kuz fasli

o'zining jozibadorligi bilan ajralib turishi, daraxt barglari sariq, zarg'aldoq va qizil ranglarda tovlanishi haqidagi suhbat bilan boshlanadi. Tabiat manzaralari tasviriy san’at asarlarida juda ko'p tasvirlanishi, manzaralarning turlarga (tabiat, shahar, industrial) bo'linishi haqida gapiriladi. Suhbat davomida respublikamizda ijod qiladigan rassomlar ijodida manzara janri alohida o'rin tutganligi uqtirilib, bu janrda M.I.Kurzin, R.M.Timurov, O'.Tansiqboyev, R.Ahmedov, S.Mirsagatov, Sh.Abdurashidovlarning nomlari sanab o'tiladi. Shu bilan birga yosh bo‘lsa-da, o'z o'rniga ega rassomlar G.Abdurahmonov, Akmal Nur, J.Usmonov kabi ko'plab rassomlar ijod qilayotganligi ta’kidlanadi.

Manzarachi rassom, rangtasvir ustasi, 0‘zbekiston xalq rassomi O'rol Tansiqboyevning manzara janrida asarlar yaratganligi haqida alohida ma’lumot beriladi. lining «Moviy manzara», «Tungi sug'orish», «Jonajon o'lka», «Issiqko'lda oqshom», «O'zbekistonda bahor», «Tog'da kuz» kabi asarlari asosida (tog‘, dala, bog' va daryolar tasvirlangan rasmlar orqali) suhbat (darslikdagi rasm va savollardan foydalangan holda) tashkil qilinadi. «Kuz» mavzusidagi boshqa rassomlarning asarlari asosida ham zaminning rang-barangligi haqida suhbat uyushtirish mumkin.

Darslikdagi rasmda qaysi ranglar ko'proq ishlatilganligi va kuzning nima sababdan oltinga qiyoslanishi o'quvchilardan so'raladi va ularning javoblari to'ldiriladi. lliq ranglar (sariq, zarg'aldoq, qizil, jigarrang) haqida ham eslatib o'tiladi.

Iliq ranglar quyosh vaolov ranglarini eslatadi. Kuz manzarasi rasmi ko‘proq shu ranglarda tasvirlanadi.

Asosiy qism: O‘lkamizda oltin kuz o‘z sepini yoygan. Daraxt barglari sariq, zarg'aldoq vaqizil ranglarda tovlanib, tabiat o'zgacha tarovat kasb etgan. Beixtiyor bu go'zal manzarani qog'ozda tasvirlaging keladi.

O'qituvchi o'quvchilarga yana bir bor rasm chizish va mo'yqalam bilan ishlash, bo'yoqlar yordamida rasmdagi
kayfiyatni ifodalay olish mumkinligini tushuntiradi. O'qituvchi tomonidan tog', dala, bog' va daryolarni chizish bosqichlari tushuntiriladi va sinf doskasida chizib ko'rsatiladi.



18-rasm

Amaliy mashg'ulot: O'quvchilar «Oltin kuz» mavzusida xayolan manzarali rasm ishlaydilar.

IV.Darsni mustahkamlash; O'quvchilar chizgan rasmlaridagi kuz tabiatining kayfiyati ranglar yordamida qanday tasvirlanganligiga, kompozitsiyaning asosiy belgilarining qay daraja mutanosibligiga e’tibor qaratiladi (daraxt, uy, butalar, suv, osmon, bulut va h.k.). Amaliy mashg'ulotni yaxshi bajargan o'quvchilar ishi namoyish etiladi va tahlil qilinadi.

Manzarali rasmlarda nimalar tasvirlanadi?

Tabiat manzaralari tasvirlangan yana qanday asarlarni bilasiz?

V. Dars jarayonida faol qatnashgan o’quvchilarni rag’batlantirish va baholash. O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko’ra o'qituvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy baholar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.

***VI.Uyga vazifa* :** Sinfda ishlangan «Kuz keldi» mavzusidagi rasmni oxiriga yetkazing.

2*.Tassurotlaringiz asosida «Hosil bayrami» mavzusida rasm ishlang

6-dars: 2-3 mevalardan tuzilgan oddiy natyurmort ishlash.

Maqsad: DTS talablari asosida dars o`tish ,o'quvchilarning tasviriy malakalarini rivojlantirish; badiiy-ijodiy qobiliyatlarini o'stirish; Kuz fasli haqidagi bilimlarni boyitish.

Ta'limiy: O'quvchilami natyurmort chizish, qalam va mo'yqalam bilan ishlash malakalarini o'stirish.

Tarbiyaviy: Badiiy-estetik didni o'stirish, Kuzatuvchanlik va emotsional sezgirligini takomillashtirish.

Rivojlantiruvchi: Bilish faolliklarini takomillashtirish , emotsional-estetik sezgirligini rivojlantirish .

O'tish usuli: Tushuntirish , suhbat, ko'rsatmalilik.

Dars jihozi: Mevalar natyurmorti aks ettirilgan rassomlar asarlarining reproduktsiyalari, slaydlar, rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil qilish. 1. Salomlashish.

2. Davomatni aniqlash.

3. O'quvchilarni darsga tayyorlash.

II. Uy vazifani tekshirish: Oldingi mavzu yuzasidan rasmni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni. Natyurmort haaqida tushuncha beriladi, rassomlaming asarlari yordamida suhbat uyushtiriladi.Natyurmort ("jonsiz tabiat") so'zining ma'nosi bolalar yodiga tushiriladi.Natyurmortda insoniyat hayoitida ishlatiladigan meva va sabzavotlar,gullar, turmushda qo'llaniladigan turli asbob-uskunalardan foydalanilishiham qayd qilinadi. Natyurmort janrida ijod qilgan rassomlardan RahimAhmedov, Laylo Salimjonova, G'. Abdiraxmonov, Yu. Yelizarovlar haqidaqisqacha to'xtalib o'tiladi. Rassom Viktor Ivanovich Ufimsevni "Nastarin","Dala gullari", "Moviy gullar", "Baqlajonlar" kabi ishlaridan ayrimlarigabolalar e'tibori

qaratilib, ular o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.O'qituvchi darslikda berilgan rasmlar va savollar asosida o'quvchilami darsda bajariladigan ish mazmuni bilan tanishtiradi. Kuzda qanday mevalar, poliz ekinlari va sabzovotlar pishib yetiladi. Kuzda anor, uzum, olma, behi kabi mevalar, poliz ekinlaridan qovun, tarvuz, qovoq, sabzovotlardan - kartoshka, piyoz, turp, sholg'om, karam, sabzi pishib yetiladi.

a) Darslikda berilgan anor, olma rasmini ishlash bosqichlari ko'rsatiladi.

Anor yoki olmaga qarab, uning rasmini ishlash yuzasidan ko'rsatmalar beriladi

b)Amaliy mashg'ulot: O'quvchilar avval darslikda ko'rsatilgan bosqich asosida mevalar rasmini ishlaydilar. So'ngra bolalar o'qituvchi tomonidan sinfga o'rnatilgan natyurmort rasmini ishlashga kirishadilar.



V. I. Ufimsev. *Baqlajonlar.*

Ufimsev Viktor Ivanovich (1899–1964) – O'zbekiston xalq rassomi. U o'zining «Moviy rum-kali natyurmort», «Dala gullari», «Baqlajonlar» kabi natyurmortlari bilan mashhur.



19-rasm

III. Amaliy ish: Mavzuga oid sodda natyurmort ishlash.

IV. Darsni mustahkamlash:

1. Darslikdagi B. Ufimsevning natyurmortida nimalar tasvirlangan?

2. Kuzda qanday mevalar, poliz ekinlari va sabzovotlar pishib yetiladi?

3. Mevalarga nimalar kiradi?

4. Sabzavotlarga nimalar kiradi?

V. Uyga vazifa: Mavzuga oid tasvirlar ishlash va sinf ishlarini yakunlash..

7-DARS: HAYKALTAROSHLIK. "SUV OSTIDA SALTANATI" MAVZUSIDA RELYEF YASASH

Maqsad: DTS talablari asosida dars o`tish ,o'quvchilarning tasviriy malakalarini rivojlantirish; badiiy-ijodiy qobiliyatlarini o'stirish; Kuz fasli haqidagi bilimlarni boyitish.

Ta'limiy: O'quvchilami plastilindan haykal yasash va ular bilan ishlash malakalarini o'stirish.

Tarbiyaviy: Badiiy-estetik didni o'stirish, Kuzatuvchanlik va emotsional sezgirligini takomillashtirish.

Rivojlantiruvchi: Bilish faolliklarini takomillashtirish , emotsionai-estetik sezgirligini rivojlantirish .

O'tish usuli: Tushuntirish , suhbat, ko'rsatmalilik.

Dars jihozi: Haykallar aks ettirilgan rassomlar asarlarining reproduktsiyalari, slaydlar, rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsni tashkil qilish. 1. Salomlashish.

2. Davomatni aniqlash.

3. O'quvchilarni darsga tayyorlash.

II. Uy vazifani tekshirish: Oldingi mavzu yuzasidan rasmni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni.

Haykallar tosh, marmar, granit, bronza, mis, yog'och, gips va shu kabi materiallardan, o'rganish uchun esa haykallar asosan loy va plastilinlardan yasalishi haqida ma'lumot beriladi. Loydan ko'ra plastilinning afzalligi shundaki, loy qurigach sinuvchan bo'lib qoladi, plastilin esa o'zining egiluvchanligini umuman yo'qotmaydi. Haykallar tasvirlanish uslubiga ko'ra ikki turda: hartomonlama aylanib ko'rishga mo'ljallangan uch o'lchovli, fazoviyjism va relyefli haykallarga bo'linishi aytib o'tiladi.

Relyefli haykal esa tekis sathga (devorga yoki biror tekis asosga) bo'rttirib ishlangan haykaldan iborat.

Unga misol sifatida 50 so'mlik tangada ishlangan haykalni keltirish mumkin. O'qituvchi tomonidan relyefli haykal ishlash bosqichlari tushuntiriladi. Buning uchun plastilin yoki loy tekislanib, silliqlab olingach yupqa taxtacha yoki faneraga qo'l bilan bir tekisda yotqiziladi. Uning ustiga baliq shaklini belgilovchi chiziq chiziladi. Stek yordamida tasvir chiziq bo'yicha kesib chiqiladi. Ortiqcha loy yoki plastilin olib tashlanadi, chetlari tekislanadi. Stek bilan baliqning tangachalari, ko'zi va suzgichlari ishlanadi.

a) O'qituvchi tomonidan loy va plastilin bilan ishlash tartibi o'rgatiladi. Yasalishi tavsiya etilayotgan baliq relyefini yasash bosqichlariko'rsatiladi. Stek yordamida shaklga ishlov berish o'rgatiladi.

b) Amaliy mashg'ulot: O'quvchilar mustaqil ravishda baliq relyefini yasashga kirishadilar.



20-rasm

Amaliy mashg'ulot: Mavzuga oid sodda releyf ishlash.

IV. Darsni mustahkamlash:

1. Darslikda qanday baliqlar?

2. Releyf nima?

3. Releyf qanday ishlanadi?

4. Relyef ishlash haqida gapiring?

V. Uyga vazifa: Mavzuga oid tasvirlar ishlash va sinf ishlarini yakunlash..

8-DARS : HARAKATDAGI ODAM, SPORTCHI GAVDASINI (FIGURASI) GRAFIK VA HAYKALTAROSHLIK USULIDA TASVIRLASH

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga harakatdagi odam, sportchi gavdasini (figurasi) grafik va haykaltaroshlik usulida tasvirlashga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarga ahloqiy tarbiya berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Chizish ko'nikmava malakasini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi bilim berish

Dars medoti: suhbat, amaliy.

Dars jihozi: Qog'oz ,qalam, ko'gazmali qurollar

DARSNING BORISHI

21-rasm

1.Tashkiliy qismi: salomlashish,sinf davomati aniqlash,mavzuga oid yangiliklar

2.O'tilgan mavzuni takrorlash : savol-javob ,uy vazifasini tekshirish

3.Yangi mavzu haqida tushuncha berish

4.Amaliy mashg'ulot

5.Darsni mustahkamlash

6.Baholash.

7.Uy vazifa berish

O’tilgan mavzuni takrorlash : savol-javob, uy vazifasini tekshirish

Yangi mavzuni bayoni:

Harakatdagi odam gavdasini tasvirlash uchun inson gavdasining qanday o'lchamlar asosida tasvirlanishi haqidagi ma'lumotlarni bilib olishimiz va o'rganishimiz zarur bo'ladi. Qadimgi Misr rassomlik maktabi inson gavdasini bo'y barobar tasvirlashda o'lcham sifatida qo'lning o'rta barmog'ini 19 marta o'lchab olish uslubiga tayangan.

Bunda inson bosh uzunligi 3 ta o'rta barmoq uzunligiga teng bo’ladi. Quyidagi rasmda bosh o'lchami 5 barobar olingan maktab yoshidagi bolaning turli harakatdagi holatlari berilgan. Yuqorida berilgan rassomlar tomonidan inson gavdasini chizishning o'ziga xos metodlarini o'rganib, shunday xulosa qilish mumkinki, agar biz 6-sinf o'quvchisining gavdasini chizmoqchi bo'lsak, bosh o'lchamini 6 barobar, katta odam gavdasini chizmoqchi bo'lsak, bosh o'lchamini |8 barobar o'lchab olishimiz kerak bo'lar ekan. Yuqoridagi va quyidagi chizish qonun-qoidalariga tayangan holda harakatdagi sportchi gavdasini grafik usulda chizing!

Amaliy mashg’ulot.





22-rasm

Darsni mustahkamlash: Harakatdagi odam gavdasini tasvirlash uchun inson gavdasining qanday o'lchamlar asosida tasvirlash mumkin?

Baholash : o’quvchilar izohli baholanadi.

Uyga vazifa: Sportchilar rasmini chizish

9-DARS : RANGTASVIR YOKI GRAFIKA USULIDA KOMPOZITSIYA YARATISH.

Ta’limiy maqsad: O’quvchilarga rangtasvir yoki grafika usulida kompozitsiya yaratish haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: O’quvchilarga ahloqiy tarbya berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Chizish ko’nikmava malakasini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi bilim berish

Dars medoti: suhbat,amaliy mashg’ulot

Dars jihozi: Qog’oz ,qalam, ko’gazmali qurollar,rasmlarda namunalar

DARSNING BORISHI:

1.Tashkiliy qismi: salomlashish, sinf davomati aniqlash,mavzuga oid yangiliklar

2.O’tilgan mavzuni takrorlash : savol-javob ,uy vazifasini tekshirish

3.Yangi mavzu haqida tushuncha berish

4.Amaliy mashg’ulot

5.Darsni mustahkamlash

6.Baholash.

7.Uy vazifa berish

O’tilgan mavzuni takrorlash : savol-javob ,uy vazifasini tekshirish

Yangi mavzuni bayoni:

Kompozitsiya - lotincha so'zdan olingan bo'lib, badiiy qurilishi, g'oyasi, xarakteri, degan ma'noni bildiradi (kompozitsiya so'zining ma'nosi - tasvir ifodasini tuzmoq, shakl yarattiil gan shakllarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirml miylikka olib kelmoq, ularga badiiy mazmun ifodasini beadi. Kompozitsiya - san'atning barcha turlarida, shu jumladan san'atda asosiy o'rinni egallaydi. U asar yaratishdagi eng muhim hisoblanadi. Tasviriy san'atda kompozitsiyaning uch turi mavjud. Rangtasvir kompozitsiyasi insonda badiiy didni| o'stiruvchi, dunyoqarashni kengaytiruvchi rang go'zalligj tasvirianadigan rangtasvir asarlarni yaratish qoidalarini o'z oladi.

Kompozitsiya asarini yaratish uchun bir necha bosqichli jarayonni amalga oshirish zarur bo'ladi:

-Asar mavzusini tanlash.

-Mavzu bo'yicha eskiz variantlarini ishlash.

-Eskizlar orasidan eng yaxshisini tanlash.

-Eng yaxshi eskizni imkon darajasida boshqa eskizlar bilan uyg'unlashtirib, mavzuga mos haqiqiy asarni yaratish.

Amaliy mashg'ulot.



24-rasm

Darsni mustahkamlash: rangtasvir yoki grafika usulida yaratgan kompozitsiyalarini tahlil qilish.

Baholash : o'quvchlar izohli baholanadi.

Uyga vazifa: Sinf ishini tugatish.

10-Dars: ***IMPRESSIONIZM USLUBIDA MANZARA ISHLASH. "PUANTILIZM"***

Ta'limiy maqsad: Mavzu bo'yicha o'quvchilarga to'g'ri tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Tarbiyaviy maqsad: Tarbiyali, e'tiborli, xushmuomalali, intizomli bo'lishga tarbiyalash.

Kommunikativ kompetensiya: Hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va guruh a'zolari fikrini tinglay bilish, hurmat qilish, to'g'ri qabul qilish; muloqotda o'zidan kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsata olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: Axborot manbalaridan (ommaviy axborot vositalari: jurnal, gazeta, televizor, radio audio-video yozuv, kompyuter) foydalana olish;

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi: O‘zining qiziqishlariga ko‘ra qobiliyatlarini namoyon qila olish;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: O‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya: San’at asarlarini tushuna olish va undan zavqlanish.

Darsning turi. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsda foydalaniladigan turli xil metodlar: Amaliy.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: Ko’rgazmali qurollar va plakatlar.

1.Tashkiliy qism	4 minut
2. O’tilgan mavzuni takrorlash	12 minut
3.Yangi mavzu bayoni	10 minut
4.Yangi mavzuni mustahkamlash	14 minut
5.O’quvchilarni baholash	3 minut
6. Uyga vazifa	2 minut

O’tilgan mavzuni takrorlash.

Yangi mavzu bayoni:

O‘tgan darsda impressionistik rangtasvir haqida tasawurga ega bo‘lgan, shuningdek, impressionizm uslubida rangtasvir kartinalari yaratgan xorijlik hamda mamlakatimiz rassomlarining ishlarini tahlil qilgan edik. Endi egallagan nazariy bilimingizni amaliy-ijodiy faoliyatga tatbiq eting. Mustaqil ishni bajarishdan avval impressionizm uslubida ishlangan hamda sizning diqqatingizni tortgan asarlaming kompozitsiyasini ko‘z oldingizga keltiring. Ularga mos hayotiy misollami eslashga harakat qiling.

Impressionizm uslubida ishlash qulay bo‘lishi uchun sizga sxematik rasm tavsiya qilinayapti. Buning uchun italiyalik rassom Annibal Karrachi asos solgan klassik manzara ishlash uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq. U birinchi bo‘lib

manzara ishlashni planlarga ajratgan. Rassom birichi qatomi to‘q va aniq ranglarda, o‘rta qatomi o‘rtacha iliq ranglarda, uchinchi - orqa qatomi sovuq ranglarda ishlash vositasida asarlarida fazoviy kenglikni tasvirlashga erishgan. Puantilist rassomlar, o‘tgan darsda ta’kidlanganidek, toza rang surtmalarini to‘rtburchak va nuqtasimon shakllarda yonma-yon qo‘yib tasviriy san’at asarlari yaratganlar. Manzaraga mavzu sifatida tabiatning o‘zingizga tanish bo^{c}lgan ko‘rinishini tanlashingiz ham mumkin. Namuna sifatida Pavel Benkovning “Meshkobchilar” nomli kartinasini tahlil qiling. Unda rang surtmalari va ulardan hosil bo‘lgan ranglar gammasi yaqqol ko‘ri- nib turadi. Quyida keltirilgan Respublika rassomlik kolleji o‘quvchisining ishida puantilizm uslubi qo‘llanilgan.



25-rasm.Puantilizm uslubida ishlangan natyurtmort. Respublika rassomlik kolleji o‘quvchisining ishi.

Anibal Karrachi (1560-1609) Italiyaning Bolone shahrida yashab ijod qilgan. Tasviriy san’at asoslarini o‘rgatishning o’ziga xos maktabini yaratgan. Bu maktab aka-uka Karrachilaming badiiy ta’lim maktabi deb ataladi. Boloneda tasviriy san’at akademiyasini tashkil qilgan.

Uning nazariyalari akademik usulda tasviriy san’at asarlari yaratishda muhim rol o’ynagan. Ular mahobatli rangtasvir, portret, manzara janrida ijod qilish bilan birga bolalarga tasviriy san’at asoslarini o‘rgatish metodikasini yaratganlar.

Sxematik rasmning birinchi planida yorqin va aniq ranglardan foydalanish tavsiya etiladi. Ikkinchi planda esa ulaming yorqinligi biroz kamay- tiriladi. Uchinchi plandagi elementlar esa havo perspektivasi qonuniyatiga ko‘ra sovuq ranglar, asosan,

havorangning turli tuslaridan, shuningdek, havorangga yaqin bo‘lgan nim yashil ranglardan foydalanish orqali man- zaradagi uzoqlikni tasvirlash mumkin bo‘ladi.

11-DARS: O’RTA ASRLAR TASVIRIY SAN’ATDA USUL VA YO’NALISHLAR. SUHBAT.

Ta’limiy maqsad: O’quvchilarga o’rta asrdagi tasviriy san’at haqida umumiy tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: O’quvchilarga ahloqiy tarbya berish va san’atga bo’lgan qiziqishii uyg’otish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O’quvchining chizish usullari va ishlash malakasini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi bilim berish

Dars medoti: suhbat, amaliy mashg’ulot

Dars jihozi: Qog’oz ,qalam, ko’gazmali qurollar.

DARSNING BORISHI:

1.Tashkiliy qismi: salomlashish,sinf davomati aniqlash,mavzuga oid yangiliklar

2.O’tilgan mavzuni takrorlash : savol-javob ,uy vazifasini tekshirish

3.Yangi mavzu haqida tushuncha berish,

4.Amaliy mashg’ulot

5.Darsni mustahkamlash

6.Baholash.

7.Uy vazifa berish

O’tilgan mavzuni takrorlash : savol-javob, uy vazifasini tekshirish

Yangi mavzu bayoni:

O'rta asrlar san'ati turli mamlakatlarda turli davrlarda boshlangan va davom etgan. Yevropada IV asrdan boshlanib, XIII-XIV asrlarda Italiya shahar davlatlarining vujudga kelgunicha davom etdi. Yevropadagi boshqa Qadimgi Rus, Vizantiya mamlakatlarida VII- VIII asrlarda boshlanib, XVII asrning oxirigacha davom etdi. Sharq mamlakatlaridan Xitoy, Hindistonda o'rta asrlar san'ati birmuncha erta

boshlanib, XIX asrda ham davom etdi. O'rta Osiyoda O'rta asrlar san'ati VII asrdan boshlanib XVII asrgacha davom etdi. O'rta asrlar san'ati jahon xalqlari milliy madaniyatining gullab-yashnashida asosiy bosqich hisoblanadi.





O'rta asr san'atida muhim madaniyat o'choqlaridan biri Vizantiya san'atidir. Mazkur san'at IV asrdan boshlanib, VI-VII asrlarda gullab yashnadi. Vizantiya tasviriy san'atida rangtasvir yetakchi o'rinni egallaydi. Iso obrazi, apostollar, Bibi Maryam va avliyolar tasviri ikonografiyasi yaratilib, boshqa joylarga tarqatildi.

X-XII asrlarda san'at taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarila boshladi. Bu taraqqiyot bosqichi roman asri san'ati deb ataladi. Roman so'zi lotincha "rimniki" degan so'zdan olingan. Roman uslubida qurilgan binolar birmuncha past, ko 'rinishi jiddiy va og’ir, devorlari qalin va mustahkam, eshik, darvoza va derazalari ensiz. Bino ustunlari dag'al va yo'g'on. Ichki devorlarida tekis yuzalar ko'pligi mahobatli rangtasvir ishlashga imkoniyat yaratdi. Me 'morlik san 'ati vitraj va haykaltaroshlik bilan bog'liq holda rivojlandi. Roman me'morligining yana bir jihati tomining gumbaz shaklida yopilib, darchalarining joylashtirilganligidir.

Yevropa XII-XV asrlar san'ati "gotika san'ati" deb ataladi. Gotika - italiyancha "gotlarniki" degan ma'noni bildiradi. Gotli german qabilalaridan biri bo'lib, ular san'atining ta'siri, san'at rivojidj kuchli bo'lganligini anglatadi. Gotika san'ati XII asrning ikkin yarmida Fransiyada pay do bo'lgan.

Darsni mustahkamlash*:* Qaysi davrlarda san'at taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarila boshladi?

Baholash : o’quvchlar izohli baholanadi.

Uyga vazifa: Tasviriy san’atga O’rta asrlar rassomlar haqida ma’lumot to’plash.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1.Manzara janridagi tasviriy san’at asarlarida planlilik nima maqsadda qo’llaniladi?

2.Manzarada planlilik prinsipi kim tomonidan joriy etilgan?

3.Kamil Pissarroning “Yomg‘irli kun” nomli asaridagi impressionistik usulga xos xususiyatlami sharhlab bering.

4.O‘zbekistonlik rassom Dilyus Mirsalimovning “Daraxt” nomli asarini tahlil qiling.

Uyga vazifa:

Mustaqil tarzda puantilizm uslubida manzara janrida kompozitsiya ish-lang.

Impressionistik uslubda ijod qilgan rassomlarning ishlaridan namunalar yig‘ing.

Ushbu dars ishlanmalar 1-sinfdan 7-sinfgacha Tasviriy san’at darslarida uchraydigan mavzular asosida tayyorlangan. Quyidagi dars ishlanmalar orqali bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilari foydalanishlari mumkin.

12-DARS: SAN'ATDA OQIM VA YO'NALISHLAR

Ta’limiy maqsad: Mavzu bo’yicha o’quvchilarga to’g’ri tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Tarbiyaviy maqsad: Tarbiyali, e’tiborli, xushmuomalali, intizomli bo’lishga tarbiyalash.

Kommunikativ kompetensiya:

hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va guruh a’zolari fikrini tinglay bilish, hurmat qilish, to‘g‘ri qabul qilish;

muloqotda o‘zidan kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsata olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

axborot manbalaridan (ommaviy axborot vositalari: jurnal, gazeta, televizor, radio audio-video yozuv, kompyuter) foydalana olish;

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

o‘zining qiziqishlariga ko‘ra qobiliyatlarini namoyon qila olish;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

san’at asarlarini tushuna olish va undan zavqlanish.

Darsning turi.

O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsda foydalaniladigan turli xil metodlar: Amaliy.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: Ko’rgazmali qurollar va plakatlar.

1.Tashkiliy qism	4 minut
2. O’tilgan mavzuni takrorlash	12 minut
3.Yangi mavzu bayoni	10 minut
4.Yangi mavzuni mustahkamlash	14 minut
5.O’quvchilarni baholash	3 minut
6. Uyga vazifa	2 minut

O’tilgan mavzuni takrorlash.

Yangi mavzu bayoni:

Tasviriy san’at tarixida buyuk islohotlar davrini boshlab bergan impressionizm oqimining pay do bo‘lishi aniq tarixiy sana bilan bog'liq. 1874-yilning 15-aprel tasviriy san’atning rangtasvir turida impressionizm oqimiga asos solingan.

XIX asr tasviriy san’atida, asosan, katta avlod vakillari tomonidan bajaril- gan buyurtma kartina, ya’ni shohona ko'rinishda, qat’iy tarzda akademik tasviriy san’atining realistik qonuniyatlari asosida yaratilgan tasviriy san’at asarla- riga bo‘lgan talab o‘sha davr madaniy hayotining estetik ehtiyojini belgilab berar edi. Biroq shu davrga kelib bir guruh rassomlar yaratayotgan kartinala- rida atrof-muhitdan, tabiatdan olgan taassurotlar ta’sirida yuzaga kelgan obrazlar tabiat fasllari, uning o'zgaruvchan holatlari (erta tong, peshin, oqshom, nam havo, yomg‘irli kun, bulutli kun), shahar ko‘chalari, xiyobonlar tasvirlana boshlandi.

An’anaviy rangtasvirdan farqli tarzda ranglami asosiy vosita sifatida qabul qildilar va o‘z palitralarida faqat spektr ranglar (qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, havorang, to‘q ko‘k, binafsharang)dan foydalangan holda o‘z asarlarini bevosita tabiat qo‘ynida yaratishga intildilar. Impressionistlarning ijodiy uslubining yana bir jihati

ular ranglami bir-biriga qorishtirish orqali emas, balki turli tusdagi rang surtmalarini yonma-yon surtish vositasida asar yaratdilar. Impressionistlar o‘z asarlarida quyosh nuri, yangi unib chiqqan maysa, tiniq suv, suvdagi nilufarlami go‘zalligini mohirona tasvirlashga intildilar.

Klod Mone. Dengiz ko'rinishi

Biroq, bu uslub san’at ixlosmandlari va san’atshunoslaming qattiq tanqidiga uchradi. Qolaversa, shu davrda Yevropada, xususan Fransiyada tahlikali siyosiy jarayonlar har yili Luvrda o‘tkaziladigan “Salon” ko‘rgazmasiga yangi oqim vakillari qo‘yilmasligi ular uchun moddiy jihatidan muammolar keltirib chiqargan bo‘lsa-da, ular o‘z qarashlari, ilgari surayotgan tendensiyalariga sodiqlik bilan ijod qilishda davom etdilar.

Keyin o‘z ittifoqlarini tuzib, 1874-yil 15-aprelda Parijning Kaputsinlar bulvaridagi uyda joylashgan “Gerbua” kafesida o‘zlarining dastlabki ko‘rgazmalarini tashkil etdilar. Unda Klod Mone, Ogyust Renuar, Edgar Dega, Pol Sezann, Alfred Sisley kabi rassomlar o‘z asarlari bilan ishtirok etganlar. Namoyish etilgan ishlar orasida Klod Monening aslida nomsiz bo'lgan, biroq ko‘rgazmaga osilayotganda

Renuarning ukasining taklifi bilan “Quyosh chiqayotganidagi taassurot” deb nomlangan asari ulami“taassurotchilar” (taassurot - fransuzcha “impression”) sifatida e’tirof etilishlariga sabab bo‘lgan. Aslida “Figaro” gazetasining jumalistlari ko‘rgazma haqidagi hisobotlarida bu so‘zni kinoya bilan ularga qo‘yilgan laqab sifatida qo‘llaganlar.

Omma esa ulami impressionistlar deb atay boshlaganlar. Shu tariqa 1874-yilning 15-aprelidan e’tiboran tasviriy san’at tarixida impressionizm oqimiga asos solingan. Bu oqim tez orasida Yevropa, Amerika, Osiyo mamlakatlariga sezilarli ta’sir o‘tkazdi hamda san’atda yangi oqim va yo‘nalishlami yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Klod Mone. Quyosh chiqayotganidagi taassurot.

Klod Oskar Mone (1840 - 1926). Impressionizm oqimining asoschilaridan biri. U o‘z kartinalarida oddiy kishilaming hayoti, tabiat ко ‘rinishlarini kuzatuv asosida shakllantirgan taassurotlar asosida yaratgan. Tasviriy san’at asoslarini Ejen Buden-dan o ‘rgangan. Klod Monening "Sent-Adressdagi plyaj” , ".Monening Arjantedagi uyi”, “Teraklar”, t(Fontenblo o'rmonida”, "Nilufarli hovuz”, "Quyosh

chiqayotganidagi taassurot” kabi asarlari dunyoning eng nufuzli muzey, kartinalar gale- reyalarida saqlanadi.

O‘zbekiston tasviriy san’atida Lev Bure, Oganes Tatevosyan, Aleksandr Volkov, Pavel Benkov, O‘rol Tansiqboev, Anvar Mirsoatov, Javlon Umarbekov, Shuhrat Abdurashidov, Abdumannon Yunusov, Yanis Salpinkidi, Ortig‘ali Qozoqov, Dilyus Mirsalimovlaming ijodida impres-sionizm elementlarini ko‘rish mumkin.

Impressionizm jahon tasviriy san’ati tarixida yangi davr san’atining turli oqim va yo‘nalishlari boshlanishiga yo‘l ochib berdi. Impressio- nizmdan keyin urf bo‘lgan oqimlardan biri postimressionizm deb atalib, uning vakillari impressionistlaming tasviriy usullaridan ilhomlanib, realistik tasviriy san’at qonuniyatlaridan oqilona foydalangan holda asosiy e’tibomi asarlaming falsafiy va ramziy ma’nosini ochib berishga intildilar.

Rassomlar va tasviriy san’at ixlos- mandlari orasida alohida qiziqish uyg‘otgan oqimlardan biri ishlanish uslubiga ko‘ra puantilizm deb ataluvchi neoim- pressionizm oqimi bo‘ldi. Bu oqimning asoschilari Joij Sera, Pol Sinyak bo‘lib, ular o‘z asarlarini sof, toza spektr ranglar, yam kamalaknmg yetti rangidan matolarfonidagi guldasta foydalanib, rang surtmalarini yonma-yon qo‘yib rasm ishlash uslubini kashf etdilar. Ular qo‘llagan rang surtmalari to‘rtburchak va yumaloq shaklda bo‘lganligi uchun ulaming ish uslublarini puantilistik uslub deb atadilar (puantilizm - fransuzcha “puantillisme” - nuqtalar bilan ishlash).

O‘zbekistonlik rassom Dilyus Mirsalimovning “Daraxt” nomli rangtasvir asari puantilizm uslubida ishlangan Bu asarlarda rang surtmalari xuddi mozaika kabi surtilgan bo‘lib, rang- lar bir-biri bilan ta’sirlanib boshqacha tusda ko‘rinadi. Masalan, sariq va havo rang yonma-yon surtilganda ular uzoqdan kuzatilsa yashil tusli rang sifatida idrok etiladi. Sariq va qizil ranglar yonma-yon surtilganda esa zarg‘aldoq gamma hosil bo‘ladi.



Kamil Pisairo. Avtoportret. Yomg‘irli kun.

Tasviriy san’atda “fovizm” deb ataluvchi oqim ham rassomlar nomi bi-lan bog'liq. 1905-yilda Anri Marke, Joq Rio, Anri Deren, Anri Matis o‘z qarashlari, rangtasvir kartinalari yaratish uslubiga ko‘ra realistik tasviriy san’atning qonun-qoidalarga, ayniqsa, perspektiva, borliqni ay nan tasvirlashda qo‘llaniladigan qonuniyatlarga amal qilmay ishlaganliklari uchun ulami “yovvoyilar” (fransuzcha “fauvizme”, “fauve” - yovvoyilar) deb atashgan. Bu uslub vakillari realizm, naturalizm, impressionizm uslubla- ridan farqli ravishda sodda-primitiv asarlar, jumladan, o‘rta asr san’ati., Sharq xalqlari san’ati uslubiga yaqin bo‘lgan asarlar yaratishga intildilar.

Keyinchalik tasviriy san’atda keng tarqalgan uslublardan biri kubizm bir qator yetakchi rassomlar e’tiborini tortdi.

Shunday qilib, jahon tasviriy san’ati tarixida bir qator oqim va yo‘nalishlar vujudga keldi. Endilikda yuqorida nomlari tilga olingan rassom- lardan tashqari Vinsen Van Gog, Anri de Tuluz Lotrek, Anri Matiss, Edgar Dega, Ejen Delakrua, Onore Dome, Jan-Batis Kamil Koго, Ogyust Renuar, Pol Sezann, Alfred Sisley kabi rassomlar tomonidan yaratilgan kartinalar san’atshunoslar hamda san’at ixlosmandlari tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida tasviriy san’atda qanday oqimlar pay do bo‘lgan?

2.Tasviriy san’atdagi yangi oqimlar realistik tasviriy san’atdan qanday xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi?

3.“Impressionizm” termini qanday ma’noni anglatadi?

4.Impressionistik oqimning nomlanishiga qaysi rassomning asari asos bo‘lgan?

5.Yevropa tasviriy san’atida qanday oqimlar yuzaga keldi?

6.Yangicha oqimlarda ijod qilgan yevropalik va o‘zbekistonlik qaysi rassomlami bilasiz?

Uyga vazifa:

1. Impressionistik uslubda ishlangan kartinalami tahlil qilish hamda shu mavzuda mustaqil ishlash uchun tayyorgarlik кo‘rib kelish.

2. Matndan yotiq to‘q shriftdagi so‘zlami daftaringizga ko‘chirib, ma’nosini tushunib oling.

Nazorat savollari:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining umuminsoniy ta'lim harakatlarini rivojlantirishda qanday metodlardan foydalaniladi?

2. Impressionistik uslubda ijod qilgan rassomlar kimlar?

3. 1-4 sinf tasviriy san'at darslari 5-7-sinfdan qanday farqlanadi?

4. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarining umuminsoniy ta'lim harakatlarini rivojlantirishga qanday vazifalar mavjud?

5.Bo'lajak o'qituvchilar uchun dars ishlanmalar nima uchun zarur?

6. 1-4 sinf va 5-7 sinf o'quvchilarini tasviriy ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda qanday metodlardan foydalansa dars samarali bo'ladi?

3.2. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasidan topshiriqlar, ularni nazorat qilish va baholash

Reja:

1. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasidan topshiriqlar berish va ularni nazorat qilish.

2. O'qituvchining o'quvchini nazorat qilish maqsadlari

3. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasida o'quvchilar faoliyatlarini baholash

Tayanch iboralar: eksperiment, funktsiya, dinamika, frontal va individual, differentsial yondashuv, viktorina savollari.

Talabalarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish o'quv jarayonining muhim elementi hisoblanadi. Uning turli xildagi jarayonlari maktab o'qituvchilarining doimiy e'tiborini tortadi.

Ta'lim jarayonining samaradorligi asosan bilimlarni nazorat qilish metodologiyasini ishlab chiqishning chuqurligiga bog'liq. Bilimlarni nazorat qilish har qanday ta'lim tizimida va o'quv jarayonini tashkil qilish uchun zarur. Bu o'quvchining o'quv faoliyatini boshqarish vositasi hisoblanadi. Biroq, tekshirish funktsiyasi bilan bir qatorda, o'qitish funktsiyalari ham amalga oshirilishi uchun ma'lum shart — sharoitlarni yaratish kerak.

Bilimlarni tekshirishning faoligi test savollarining to’g’ri ifodasini o’z ichiga oladi, natijada to’g’ri javobni noto’g’ri deb farqlash uchun aniq imkoniyat yaratiladi. Bundan tashqari, bilimlarni tekshirish shakli natijalarni osongina aniqlash imkonini beradi. Individual turli darajadagi ta’lim muammolarini hal qilishning bir usuli bo’lib xizmat qiladi. Individual test topshiriqlari talabalarning bilimlarini tezkor baholash uchun zarur. Sinov nazorati barcha o’quvchilar uchun teng bo’lgan faol tekshirish shartlarini ta’minlaydi. Nazorat shakllari juda ko’p, chunki har bir o’qituvchi o’z vazifalarini bajarish va amalga oshirish huquqiga ega.

O’qituvchining o’quvchini nazorat qilishi uchun quyidagi maqsadlari mavjud:

1) o’quvchilarning bilim va ko’nikmalarini tashhislash va tuzatish;

2) o’quv jarayonining alohida bosqichining samaradorligini hisobga olish;

3) ta’limning yakuniy natijalarini turli darajalarda aniqlash.

Nazorat talabalar tomonidan faqat o’qituvchiga kerak bo’lgan narsa sifatida emas, balki talaba o’z bilimlari haqida bilib olishlari mumkin bo’lgan bosqich sifatida uning bilim va ko’nikmalari talablarga javob berishiga ishonch hosil qilishlari kerak.

Agar o’qituvchi nazorat qilishni o’quvchilar uchun muhim bo’lgan faoliyat deb hisoblasa, uni amalga oshirish shakli, natijalarni muhokama qilish, tekshirish boshqacha bo’lishi mumkin. Misol uchun, natijalarni tekshirish va belgilarni joylashtirish o’quvchilar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Ushbu tekshirish shakli bilan ular nazoratning ahamiyatini sezadilar, xatolarini aniqlaydilar, o’z-o’zini tanqid qilish va mas’uliyat belgilarini rivojlantiradi.

Nazorat funksiyasi nazoratning asosiy funktsiyalaridan biri hisoblanadi. Uning mohiyati talabalarning bilim va ko’nikmalarini aniqlashdan iborat. O’quvchilarning mustaqil va nazorat ishlarini bajarishda nazorat qilish funktsiyasi ortadi.

O’quvchilar yangi mavzuni o’rganishda asosiy sinovining o’quv funktsiyasi hisoblanadi. Shuning uchun barcha savollar o’rganilayotgan mavzuni mustahkamlash uchun emas, balki tekshirishga qaratilishi kerak. Tekshiruvning rivojlanish funktsiyasi o’z bilimlari va qobiliyatlarini boshqarish qobiliyatini aniqlaydi. O’quvchilarning ma’ruzalari, umumlashmalari va xulosalarini bajarishda to’liq namoyon bo’ladi.

Bilimlarni nazorat qilish va mustahkamlash jarayonini yanada samarali o’tkazish, tasviriy san’at o’qituvchisi ishini osonlashtirish uchun jadvallar, kartochkalar va boshqalar taklif etiladi. Test topshiriqlari mezonlari darslarda belgilangan badiiy va ijodiy vazifalar, shuningdek, o’quvchilarning xulq-atvorini shakllantirish shartlaridan biri bo’lgan bolalarning o’zini o’zi qadrlashiga yordam beradi.

Test sinovlari-talabalarning bilimini baholashning samarali shakli bo’lib, bu o’quv jarayonini faollashtiradigan 91oda91ogic vositalarni to’ldirish imkonini beradi. Tavsiya etilgan test va mashqlar natijalariga ko’ra, o’qituvchi darsning har qanday mavzusini o’rganganidan so’ng talabaning individual yutuqlarini tahlil qilishi mumkin. Sinovlar shuni ko’rsatadiki, talabalar nazariy materiallarni muvaffaqiyatli yodlashlari mumkin. Shuningdek, amaliy faoliyatning nazorat o’lchovi natijalarning aniq va xolis qayd etilganligi, talabalarning tajribali guruhdan olingan chizmalarining sifat jihatidan ijobiy o’zgarishidan dalolat beradi. Ushbu sinovlarning afzalligi badiiy ifoda vositalarining quyidagi mezonlardan iboratdir:

- rejalashtirish va undan foydalanish;
- belgilarning dinamikasini uzatish;
- jismlar hajmini aniqlash;
- hissiy kayfiyatni ifodalash.

O’quvchilarni tekshirishni tashkil etish butun sinf bilan amalga oshiriladi. Ma’lumki, har qanday tashhis natijalarining ishonchliligi asosan eksperiment davomida sub’ektlarning motivatsiyasiga bog’liq. Boshlang’ich maktab yoshidagi bolalar uchun topshiriqning yuqori va ijobiy motivatsiyasi sinov natijalarining ishonchliligi uchun zarur shartdir.

Tekshiruvning asosiy vazifasi shundaki, uning natijalari o’qituvchiga o’quvchilarning bilimlaridagi bo’shliqlar va kamchiliklarni bartaraf etish va dasturiy materiallarni o’zlashtirishda yanada ko’proq yordam berishga imkon beradi. Yangi materialni o’rganishdan oldin tekshiruv orqali o’qituvchi talabalarning bilim va ko’nikmalarini ochib beradi, ular yangi narsalarni tushunish va o’rganish uchun mos bo’lishi kerak. Bunday tekshirish-shuningdek, o’qituvchi uchun talabalarning qo’llab-

quvvatlash bilimlarining yetarliligi yoki yetishmasligi va yangi materiallarni idrok etishga tayyorgarlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

O’qituvchilar yangi mavzuni tushuntirishda talabalarga savollar berish usuli tavsiya etiladi. Bu tekshiruvning asosiy funksiyasiga ega, chunki u bir tomondan o’quvchilarni asosiy materiallarni ajratishga yo’naltiradi, ikkinchidan, o’qituvchiga har bir darsda ushbu asosiy mashg’ulotni o’rganishda zamin yaratadi.

Nazorat bosqichining vazifalari belgilangan nazorat vazifalariga javob berishi kerak. Muammoni faqat ushbu mavzuni o’rganish davomida talabalarning bilim olgan va ko’nikmalarini tashhislash bilan aniqlagan holda, nazorat funktsiyalari nazorat va yo’nalish deb atash mumkin. Bu faoliyatni yaxshiroq tashkil etishga, intizomga va mas’uliyatga o’rgatadi.

O’quvchilar faoliyatlarini baholash maqsadida nazoratning quyidagi turlari qo’llaniladi:

1. Og'zaki so'rov. Nazoratning bu turida o'quvchilarning tasviriy san'at va me'morchilik san'atlaridan nazariy bilimlari (kompozitsiya, yorug'soya, rangshunoslik, perspektiva), maxsus atamalar, rassom va xaykaltaroshlarning ishlatadigan asosiy ish qurollari va materiallari, tasviriy san'atning tur va janrlari, mashhur rassomlar va ularning asarlari haqidagi tushunchalari hajmi aniqlanadi. Og'zaki so'rov frontal va individual tarzda amalga oshiriladi hamda u o'quvchilarni tez-tez nazorat qilish imkonini beradi. Shuningdek, og'zaki so'rov o'quvchilarni tasavvuri, tafakkuri, xotirasi va nutqini rivojlantirishga ham yordam beradi. Nazoratning bu turida hikoya qilish, tavsif berish, sharhlash va boshqa usullardan foydalanish samaralidir.

2. Mashqlar. Nazoratning bu turida o'quvchilarning qalam, mo'yqalam, stek va boshqa ish qurollari, badiiy materiallar bilan ishlash malakalari va ko'nikmalarining darajasi aniqlanadi. Bu ish ko'proq naturaga qarab rasm ishlash va kompozitsiya mashg'ulotlari bilan bog'liq bo'ladi.

3. Tasviriy-ijodiy mustaqil ishlar. Nazoratning bu turida o'quvchilarni badiiy tafakkuri va qobiliyatlari, rivojlanish darajalari aniqlanadi. Bu ish ko'proq rangtasvir, dekorativ ishlar va haykaltaroshlikdan kompozitsiyalarni bajarishda qo'llaniladi.

4. Yozma (matnli) mustaqil ish. Mustaqil ishning bu turida o'quvchilar tomonidan olingan bilimlarni qanchalik o'zlashtirilganligi aniqlanadi. U bevosita tasviriy san'atning san'atshunoslik asoslari kursi bilan bog'liq bo'lib, unda o'quvchilar chaynvord, krossvordlar echadilar, viktorina savollariga javob qaytaradilar, tasviriy san'atdan insho va referatlar yozadilar.

5. Test sinovlari. Nazoratning bu turida o'quvchilar tomonidan tasviriy san'atning nazariy asoslari, maxsus atamalar, rassom, haykaltaroshlar va ularning asarlari, ish qurollari va ishlatadigan materiallari, bolalar tomonidan rang nomlarini o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Testlardan foydalanish tasviriy san'at darslarining barcha turlari (naturadan rasm ishlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari) bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

6. Uy vazifasi. Uy vazifalari sinfda o'tilgan mavzu bilan bog'liq bo'lgan ijodiy ishlarni bajarish, naturaga qarab ranglama va qoralamalar ishlash, mashqlarni bajarish, sinfda tugallanmay qolgan ishni tugatish, tevarak-atrofdagi ko'rinish va hodisalarni kuzatish, sinf ishiga doir adabiyotlar o'qish, muzey va ko'rgazmalarga, san'at yodgorliklariga 94oda94og, kelgusi dars uchun materiallar to'plash yoki tayyorgarlik ko'rish, sinfda o'tilgan mavzular bo'yicha insho, referatlar yozish, krossvord, chaynvordlar echish, viktorina savollariga javob qaytarish, san'atkorlar, ota-onalar bilan topshirilgan mavzuda suhbatlar qilish, san'at asarlarining reproduktsiyalari va foto nusxalarini, illyustratsiya va rasmlarni to'plash yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Uy vazifalari tasviriy san'at mashg'ulotlarining barcha turlariga taaluqli bo'lib, u nafaqat yangi materiallarni o'zlashtirish, balki o'tilganlarni mustahkamlash, bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, malakalar va ijodiy qobiliyatlarni o'stirishga xizmat

qiladi. Nazoratning bu turlaridan barcha sinflarda bir xil foydalanib bo'lmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshlik xususiyatlari, bilim va malakalari saviyasining pastligini hisobga olib, 1-2 sinflarda test sinovlari, 1-5 sinflarda yozma mustaqil ishlar (insho, referat, krossvord, chaynvord, viktorina) o'tkazish tavsiya etilmaydi.

Nazorat savollari:

1. Tasviriy san'at darslariga boshlang'ich sinf o'quvchilariga qanday topshiriqlar berish tavsiya etiladi?

2. Berilgan topshiriqlarni nazorat qilishning qanday turlari mavjud?

3. Bilimlarni nazorat qilishda test sinovlarining ahamiyati nimada?

4. O'quvchini nazorat qilish turlarini sanab o'ting?

5. O'quvchi faoliyatini baholashda o'g'zaki so'rov turida qanday usullardan foydalaniladi?

6. Tasviriy-ijodiy mustaqil ishlarni nazorat qilishda qanday baholash turidan foydalanamiz?

3.3. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanidan darsdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi

Reja:

1. Maktabda darsdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi

2. Darsdan tashqari tadbirlarni tahlil qilish turlari

3. O'quvchilarnining darsdan tashqari ishlarida san'at asarlari bilan tanishtirish

Tayanch iboralar: Senariy, korupsiya, psixologik-pedagogik, kalendar-tematik, normativ hujjatlar, ekskursiya.

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi maktabda darsdan tashqari ishlarni tashkil etish, uning mazmuni, usullari, tasviriy san'atda dars mashg'ulotlari bilan aloqalarning asoslarini ishlab chiqadi.Tasviriy san'at bo'yicha darsdan tashqari ishlariga to'garaklar, ko'rgazmalar, tanlovlar, fan bayramlari, olimpiadalar, tasviriy san'at haftalari kiradi.

Darsdan tashqari tadbirlarni ishlab chiqish o’qituvchilarning ushbu turdagi faoliyatni tayyorlash uchun vaqt sarflashini talab qiladi. Chunki bu mavzu bo’yicha qiziqarli, dolzarb materiallarni topish uchun kerak. Bu nafaqat talabalarni qiziqishini oshiradi, balki ularni befarq qoldirmaydi. Bundan tashqari, tadbirning barcha qismlarini aniq rejalashtirish, materiallarni topshirish usullari va usullarini tanlash, darsni o’tkazish shakli va zarur asbob-uskunalar, darsdan tashqari tadbirni o’tkazish uchun zarur.

Bundan tashqari, tadbirning barcha qismlarini aniq rejalashtirish, materiallarni topshirish usullari va usullarini tanlash, darsni o’tkazish shakli va zarur asbob-uskunalar, darsdan tashqari tadbirni o’tkazish uchun zarur.

Darsdan tashqari tadbirlarning ssenariysi adabiy jihatdan yaratilgan va aniq mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan darsdan tashqari tadbirning barcha elementlari va harakatlarini ochib beruvchi tadbir mazmunini batafsil ishlab chiqishdan iborat. Tadbir senariysida mavzu va maqsad oshkor qilinishi kerak. Tadbirning bir qismidan ikkinchisiga barcha mantiqiy o’tishlar amalga oshiriladi. Senariyni yozishda eng muhimi, umumiy mavzuni aniqlab olish, jamoani eng ko’p tashvishlantiradigan ko’tarilgan savolning muammoli jihatini topish va yoritishdir.

Har bir darsdan tashqari tadbir, odatda, muayyan bayramga, muhim kunga yoki shaxsga yoki muammoli mavzuga bag’ishlangan. Sinfdan tashqari tadbirning senariysi talabalarning yosh xususiyatlariga mos kelishi muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, ma’lum bir yoshdagi bolalar uchun muhim bo’lgan muammoli mavzu ham ko’tarilishi mumkin: giyohvand moddalarning zarari, korupsiyaga qarshi kurash, jamiyatdagi odam, OITSga qarshi kurash va boshqa mavzular.

Har qanday shaklda darsdan tashqari tadbir o’tkazilgandan so’ng, o’qituvchi darsdan tashqari tadbirni tahlil qilishi kerak. Darsdan tashqari tadbirni tahlil qilishning ikki xil turi mavjud: mavzu-mazmunli va psixologik-pedagogik. Birinchi turdagi tadbirning mazmunli qismi, uning ta’lim yo’nalishi tahlil qilinadi. Ikkinchi turi, birinchi navbatda, darsni pedagogik nuqtai nazardan ko’rib chiqadi. Darsdan tashqari tadbirni tahlil qilish sxemasi quyidagicha: birinchi nuqta: ushbu tadbir mavzusining asosini baholash. Bundan tashqari, tadbirning maqsad va vazifalarini va dars davomida

qanchalik erishilganligini tahlil qilish. Keyin darsning joyini va shaklini ko'rib chiqish va tanlangan mavzuga qanchalik mos kelishiga e'tibor berishdan iborat.

Sinfdagi o'quvchilarning faoliyati o'qituvchining materialni o'quvchilarga etkazishga muvaffaq bo'lganligi va tadbirni o'tkazish usullari va usullari to'g'ri tanlanganligini baholashga yordam beradi. Tahlilning eng so'nggi nuqtasi-tadbirning pedagogik ahamiyatini va har bir talabaning alohida va umuman jamoani yanada rivojlantirish uchun ahamiyatini aniqlash.

Har bir o'qituvchi ham amalga oshirilgan tadbirni o'z-o'zini tahlil qilishi kerak. Bu esa, darsdan tashqari tadbirning qanchalik muvaffaqiyatli ekanini baholash, o'z pedagogik mahoratini baholash va keyingi mashg'ulotni tayyorlashda ularni tuzatishga yoki ularga alohida e'tibor berishga arziydigan daqiqalarni aniqlash imkonini beradi. O'z-o'zini tahlil qilish o'z-o'zini yaxshilashga yordam beradi va har kimni, shu jumladan o'qituvchilarni yanada rivojlantirishga undaydi.

Darsdan tashqari tadbirni o'tkazish o'qituvchining ishining muhim qismidir. Bu maktab hayotining eng qiziqarli qismlaridan biridir. Darsdan tashqari tadbir darsning samarali bo'lishi, o'quvchilarni qiziqtirishi va dars mavzusiga befarq qoldirmaslik uchun tadbirni o'tkazishdan oldin juda ko'p tayyorgarlik ishlarini talab qiladi, aksincha, bu muammoni yanada o'rganish, muhokama qilish va tushunish uchun harakat qildi. Darsdan tashqari tadbir har doim bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga va talabalarning shaxsiy o'sishiga yordam beradi. O'quv mashg'ulotidan tashqari tadbirni o'tkazish o'qituvchi va o'quvchilarning maktab hayotining muhim qismidir, bu esa har ikki tomonning salohiyatini ochib berishga yordam beradi va amalga oshirilgan tadbirni tahlil qilish ko'pincha jamoada mavjud muammolarni aniqlash, bartaraf etish va muvofiqlashtirishga yordam beradi. Darsdan tashqari tadbir o'qituvchi va talabalar uchun har doim qiziqarli. Talabalar yangi foydali ma'lumotlarni o'rganadilar, faol bo'lishadi va o'qituvchi o'z o'quvchilariga boshqa tomondan qarash imkoniga ega bo'ladi.

Darslarni rejalashtirish konsepsiya mavzusi bo'yicha normativ hujjatlarda, fakultativ uchun o'quv yili uchun darslarni raqamlash, dars va amaliy ish mavzusi, ish formati, badiiy materiallar va texnikalar ro'yxati, darslarning maqsad va vazifalari kabi

jadval shaklida taqdim etiladi. Darslarning mavzularini va amaliy ishlarni shakllantirish, agar kerak bo'lsa, o'qituvchi tomonidan tuzatilishi mumkin. Shuningdek, u dars mavzularini o'rganish ketma-ketligini o'zgartirish huquqiga ega

O'quvchilarni san'at asarlari bilan tanishtirish jarayonida badiiy asarlarning muayyan turlarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'p media prezentatsiyalar rassomlarning rasmlarini, o'quvchilarning ijodiy ishlarini va boshqalarni aks ettirish bilan almashtirilishi mumkin.

"Namunali kalendar-tematik rejalashtirish" tasviriy san'at o'qituvchisiga ishni to'g'ri tashkil etishga yordam berishni maqsad qilib qo'yadi, ammo uning tashabbusi va ijodiy yondashuvini ixtiyoriy ravishda o'qitishga to'sqinlik qilmasligi kerak. O'qituvchi har bir sinfning xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv materiallarini boshqacha tarzda tarqatishi mumkin.

Shunday qilib, darsdan tashqari tadbir o'qituvchining ishining eng muhim qismidir. Ushbu darslarni o'tkazish har doim barcha yoshdagi o'quvchilarga ta'lim ta'siriga ega. Sinfdan tashqari tadbirlar-to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchi yoki umumta'lim muassasasi tomonidan tashkil etilishi va tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi kerak bo'lgan guruhdagi tadbirlar yoki tadbirlar. Bunday tadbirlar, shuningdek, o'yin, ekskursiyalar, muzeylarga sayohat va boshqalarni o'z ichiga oladi. Har bir o'qituvchi ma'lum bir mavzuga qiziqish ko'pincha darsdan tashqari tadbirni o'tkazishda yoki, masalan, kelajakdagi kasbni tanlashda qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini biladi.

Nazorat savollari:

1. Maktabda qanday turdagi darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish mumkin?

2. Darsdan tashqari tadbirlarni tahlil qilish turlari nimalar?

3. O'quvchilarnining darsdan tashqari ishlarida san'at asarlari bilan tanishtirishda ekskursiyalarning ahamiyati?

4. Darsdan tashqari tadbirni tahlil qilishning necha xil turi mavjud?

5. Darsdan tashqari ishlarda tasviriy san'at muzeylarga sayohat o'quvchida qanday imkniyatlar yaratadi?

6. Tasviriy san’at haftaligida qanday tadbirlar tashkil qilish mumkin?

4 MODUL. TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHISINING MA’NAVIY VA KASBIY SIFATLARIGA BO‘LGAN ZAMONAVIY TALABLAR

4.1. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi o‘qituvchisi tashkilotchi va ijodkor

Reja:

1. Tasviriy san’at o’qituvchisining pedagogik faoliyati

2. Tasviriy san’at darslarida talabaning shaxsiyatini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish.

3. Tasviriy san’at o’qituvchisi ijodiy shaxs

Tayanch iboralar: mahoratli faoliyat, tadqiqot, estetika, dekorativ mahsulot, individual texnik metod, kompyuter grafikalar.

Tasviriy san’at o’qituvchisining mahoratli faoliyati o’quv, ilmiy-uslubiy va madaniy-ma’rifiy ishlarni o’z ichiga oladi. Bu o’quvchilarni san’at yo’li bilan rivojlantirish, o’qitish va tarbiyalashga qaratilgan. Tasviriy san’at o’qituvchisi rasm, kompozitsiya, turli dekorativ texnika, san’at tarixi, pedagogika va psixologiyani yaxshi o’zlashtirishi zarur. Har bir yaxshi rassom, muvaffaqiyatli o’qituvchi bo’lishi mumkin. Pedagogik mahorat maxsus tayyorgarlik va mashaqqatli mehnatni talab qiladi.

Tasviriy san’at darslari bolalarning badiiy didini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Buning uchun o’qituvchi suhbatlarda estetikaning asosiy tamoyillari bilan tanishish, tasviriy san’at asarlaridan foydalanish va amaliy ishlarda chizmalar, haykalchalar va dekorativ mahsulotlar go’zallik mezonlariga mos kelishini ta’minlashi kerak.

Tasviriy san’at darslarida talabaning shaxsiyatini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari ta’lim maydonini badiiy vositalar bilan tashkil etish, darsda hissiy va qulay muhit yaratish, psixologik yordam, o’qituvchi va talabalar o’rtasidagi muloqot, o’quvchilarning tasviriy faoliyatda shaxsiy tajribasiga bo’lgan qiymati va boshqalarni o’z ichiga oladi.

Tasviriy san’at o’qituvchisi talabalarning ijodiy o’z-o’zini rivojlantirishga qaratilgan ilg’or texnologiyalarga ega bo’lishi kerak. Ular san’atni tushunish va his qilish, tasviriy faoliyat qobiliyatlari haqida shaxsiy tajribaga ega bo’lishlari kerak.

Kasbiy va pedagogik tayyorgarlik uchun o’qituvchiga ijodiy fikrlash sifati zarur. Chunki u pedagogik faoliyati davomida hal qiladigan amaliy vazifalar murakkab va ko’p tomonlama vazifalarni o’z ichiga oladi. Ularni hal qilishda o’qituvchi muayyan faoliyat holatini shakllantiradigan shart-sharoitlarning xilma-xilligini hisobga

olishi kerak. Shuning uchun nazariy bilimlarni amaliyotga o’tkazish bevosita emas, balkim bu butun va ko’p tomonlama xarakterga ega bo’lgan muayyan amaliy muammolar atrofida birlashtirilgan va o’qituvchining amaliy harakatlari tiliga tarjima qilingan bir qator o’tish yo’nalishlarini o’z ichiga oladi.

O’qituvchi ijodiy fikrlash, tezda bir harakat usulidan ikkinchisiga o’tish, o’qitish usullarini tahlil qilish, turli xil ta’lim va tarbiya vazifalarini hal qilishning yangi usullarini topish, fikrlash faoliyati jarayonini va natijalarini nazorat qilish va baholash imkoniyatiga ega.

Darslarda o’qituvchi, qoida tariqasida, o’quvchilarning bilim va ijodiy faoliyatiga bevosita va bilvosita rahbarlik qiladi: vizual materialni namoyish etadi, tushuntiradi, ish uslublarini ko’rsatadi, muammoli vaziyatlarni yaratadi, bolalarning mustaqil ishini kuzatadi va nazorat qiladi.

Loyiha uslubi va tadqiqot usulini amalda qo’llash o’qituvchining salohiyatini o’zgartirishga olib keladi. Tayyor ma’lumotlarning tashuvchisidan u o’quvchilarning bilim va tadqiqot faoliyatini tashkil etuvchi tashkilotchiga aylanadi. Sinfdagi psixologik iqlim ham o’zgaradi, chunki o’qituvchi o’z o’quv-tarbiyaviy ishlarini va o’quvchilarning turli xil mustaqil faoliyat turlariga, tadqiqot, qidiruv, ijodiy tabiatning ustuvorligiga yo’naltirishi kerak.

O’qituvchi o’quvchilarga turli ob’ektlarning tasvirlari ketma – ketligini, individual texnik metodlarni, o’quvchilarning xatolarini tuzatishni aniq ko’rsatish uchun turli xil badiiy materiallarni mukammal tushuntirishi kerak.

Eng dolzarb vazifalardan biri-o’qituvchining pedagogik madaniyatini oshirish, ularni mukammal darajada hatti-harakatlarni bartaraf etishdir. Tasviriy san’at o’qituvchisi ijodiy shaxs bo’lishi, rasm, turli xil badiiy materiallarni qayta ishlash, yangi texnologiyalar, kompyuter grafikalarini o’zlashtirish darajasini oshirishi kerak. Bunga asosan o’qituvchilarning malakasini oshirish tizimi, ilg’or pedagogik tajribani o’rganish, o’z-o’zini o’qitish tizimi yordam beradi.

Darsga tayyorgarlik ko’rayotganda o’qituvchi butun chorakning mazmuni bilan tanishib chiqishi, topshiriqlarning mantig’ini tushunishi, ularning rivojlanishida va butun yil davomida har chorakning yetakchi g’oyalarini amalga oshirishi kerak. Darsni

umumiy maqsadi va ushbu o’quv mavzusining umumiy vazifalari bilan bog’liq dars tizimining bir qismi sifatida ko’rib chiqishi zarur.

Darsga tayyorgarlik jarayonida o’qituvchi vaqtni daqiqali taqsimlash rejasini va faoliyatning bir turidan ikkinchisiga (suhbat, hislar, ijodiy ishlar va boshqalar) mantiqiy ravishda oqilona o’tish bilan mashg’ulotning batafsil rejasini ko’rib chiqish tavsiya etiladi. Dars uchun zarur bo’lgan barcha materiallarni tayyorlashi zarur. (reproduktsiya, slaydlar, musiqiy yozuvlar, badiiy materiallar va boshqalar). Dars mavzusi bo’yicha kichik ko’rgazma tayyorlanishi mumkin. Masalan, kitoblar va jurnallardan tasviriy san’at materiallari, dekorativ san’at buyumlari, kichik shakllar haykallari va hokazo. Bu vizual qator nafaqat san’at asarlaridan slaydlarni, balki tabiatning ifodali, majoziy tasvirlarini, shuningdek, o’qituvchi tomonidan tayyorlangan o’quv jadvallarini ham o’z ichiga olishi maqsadga muvofiqdir.

Ko’pincha tasviriy san’at darslarida turli tanlovlar o’tkaziladi (“kim tezroq?”, “Kim yaxshiroq?”, “Nima, qaerda, qachon?”va boshq.) va viktorina. Misol uchun, yosh san’at tanqidchilari tanlovi o’yin shaklida so’rov o’tkazishga imkon beradi. Bolalar 2-3 jamoalariga bo’linishi mumkin. Dars davomida nazariy va amaliy materiallar qanday o’rganilganligi tekshiriladi. O’yin davomida bolalar turli xil kompozitsion jadvallarni tuzish bo’yicha vazifalarni bajarish uchun dastur yordamida tezda takrorlashni, eslashni, chizishni, xatolarni qidirishni o’rganadi. Raqobat ruhi talabalarning ijodiy faolligini oshiradi. Tashkilotchi-o’qituvchi quyidagi dars turlarini tasviriy san’at drslarida foydalanishi mumkin:

Darslar-testlar. So’nggi yillarda, tasviriy san’at darslarida talabalar bir necha taklif variantlari to’g’ri javob tanlash uchun talab qilinadi, turli testlar bilim sinash uchun ishlatiladi. Bir necha tasvirlarni solishtirish, o’tkazib yuborilgan so’zlarni, qo’shimcha tasvirni aniqlash uchun, muallif yoki ishning janri va boshqalar. Sinovni o’tkazish butun darsni yoki uning faqat bir qismini egallashi mumkin. Sinovlar joriy nazorat va yakuniy darslar uchun tavsiya etiladi.

Darslar-o’yinlar. Yangi materiallarni o’rganishda va muayyan mavzu bo’yicha sarhisob qilishda ishlatiladi. O’qituvchi uchun o’yinli darsga yaxshi o’ylangan ta’lim harakat turidir. Dars jarayonida o’yinlar tashkil qilish ta’lim va

tarbiya maqsadlariga javob beradigan faol muloqotning maqsadga muvofiq shakli hisoblanadi. Talabalar uchun o'yin o'z-o'zini ifodalash, o'z taqdirini belgilash, o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini hurmat qilishning bir usulidir. Agar o'qituvchi uchun o'yin muayyan pedagogik maqsadga erishish vositasi bo'lsa, talabalar uchun esa maqsad o'yin jarayoni hisoblanadi.

Dars-o'yin murakkab ma'naviy va moddiy olamni bilish va tushunish uchun birinchi qadam. O'quvchilarning yoshi va qiziqishlariga muvofiq darsning deyarli har qanday bosqichida alohida o'yin nuqtalari kiritiladi.

Tasviriy san'at darslarida asosan badiiy va didaktik o'yinlar qo'llaniladi. Pedagogik mantiq hissiy va estetik tasvirni yaratish uchun badiiy mantiqqa bo'ysunadi. O'yin maydoni o'qituvchilar va talabalar o'zaro ta'sir o'tkazadigan pedagogik yo'naltirilgan badiiy va o'yin maydoni sifatida namoyon bo'ladi. Darsning vazifalariga va bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'yin jarayonining badiiy-hissiy va badiiy-intellektual tarkibi o'rtasidagi munosabatlar o'zgaradi. Kichik sinflarda o'yinlarning hissiy va badiiy mazmuni birinchi o'rinda turadi, o'rta sinflarda hissiy va intellektual muvozanat nisbatda, o'rta maktabda badiiy va intellektual boshlang'ich bo'lishi mumkin.

Umumta'lim maktab o'quvchilari uchun o'yinning qiziqarli boshlanishi juda muhim. O'yinning roli tasviriy san'at darslarida va o'smirlik davrida juda katta bo'lgani uchun biz unga maxsus bo'limni bag'ishladik.

Jamoaviy ish darslari. Ushbu dars turid tasviriy faoliyatda bolalarning vazifalarini mustaqil ravishda taqsimlash, harakatlarni birlashtirish, jamoaviy nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish kuchaytiriladi, bolalarning harakatlarning izchilligiga bo'lgan istagi namoyon bo'ladi. O'quvchilarda qo'shimcha shijoat paydo bo'ladi, qiyinchiliklarni bartaraf etish va murakkab ijodiy vazifalarni hal qilish osonroq bo'ladi. O'quvchida jamoaviy tashabbus va raqobat tug'iladi. Bolalarning o'zaro mas'uliyati o'rnatilgani muhim ahamiyatga ega. Ular bir-biriga yordam berishadi, o'z faoliyatlarini o'zgartiradilar.

Tasviriy-ijodiy, dekorativ, konstruktiv yoki rasm chizish jarayonida maktab o'quvchilarining jamoaviy va individual shakllarini birlashtirishning o'ziga xos

usullari ko’p bo’lishi mumkin. Ular o’qituvchi va bolalarning birgalikdagi ijodkorligi natijasida tug’iladi.

Shu bilan birga, jamoaviy ish shakllaridan foydalanishda pedagogik choralar ko’rish zarur. Agar jamoaviy rasm juda tez-tez tashkil etilsa, u bolalar uchun yangilikning elementini yo’qotadi va shuning uchun jozibadorlik, shuningdek, uning asossiz ustunligi bilan maktab o’quvchilarining yangi bilim va ko’nikmalarni egallash jarayoni qiyinlashtiradi.

O’qitish amaliyotida ta’lim maqsadlari (darslar-bilimlar, mustaqil ish darslari, darslar-takrorlash va yakuniy darslar) bo’yicha farq qiluvchi darslar o’zlarining o’ziga xos xususiyatlariga ega. Badiiy texnologiyalarni o’rganish o’quvchilarga materialni his qilish, ijodiy ishlarni yaratishda uning ta’sirchan imkoniyatlaridan erkin foydalanish imkonini beradi.

Ko’pincha, bir darsda bir nechta maqsadlarga erishish va yangi narsalarni o’rganish, takrorlash va mustaqil ishlash kerak. Shu bilan birga, darsning asosiy maqsadi, birinchi navbatda, uning yetakchi ta’lim vazifasini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Yakuniy darslar ota-onalar, taniqli rassomlar va boshqa qiziqarli insonlar ishtirokida bayramlar, tanlovlar va maktabdan tashqari tadbirlar shaklida qiziqarli va o’ziga xosdir.

Strukturaviy birliklar bo’yicha darslar. Strukturaviy birliklar bo’yicha dars turlarini aniqlash didaktik vazifalarni va o’qitish usullarini birlashtiradi.

Dars turlarini aniqlashning har bir yondashuvi bir xususiyat asosida qurilganligini ko’rish qiyin emas. Hozirgi vaqtda dars turlarini aniqlashda pedagoglar turli xil xususiyatlarni hisobga olishni boshlaydilar va ularning tizimli birliklarni oladi. Ushbu yondashuv bilan darslar bir-biridan alohida emas, balki ketma-ketlik shaklida ko’rib chiqiladi va oddiy va murakkab turlarga bo’linadi.

Murakkab turlarga bir nechta didaktik maqsadlarga erishishga bag’ishlangan darslar kiradi. Misol uchun, qog’oz xususiyatlarini o’rganish va badiiy dizayn qobiliyatlarini shakllantirish bo’yicha darslar, akvarel bo’yoqlari texnikasini o’rgatish va mum bo’yoqlardan foydalanish qobiliyatini mustahkamlash bo’yicha darslar misol bo’la oladi.

O’qituvchining vazifasi har bir o’quvchining qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish, ma’naviy boy, erkin, jismonan sog’lom, ijodiy fikrlaydigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsad ta’lim-tarbiya jarayoniga ijodiy salohiyatni yuksak darajada oshkor qilish uchun sharoit yaratish bo’yicha bilim va ko’nikmalarni egallash darajasini o’rganadi.Bular:

-o’quv-tarbiya jarayonini tashkil etish:

- o’quv rejasi va o’quv dasturlarini takomillashtirish;

-fanlararo aloqalar asosida o’quv fanlarining o’zaro hamkorligini rivojlantirish;

-ta’lim metodikalari va texnologiyalarini takomillashtirish, tabaqalashtirilgan va shaxsiy yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalariga alohida e’tibor berish.

Zamonaviy pedagog-rassom bo’lish nafaqat turli metodlar bilan ishlash bo’yicha mukammal darajadagi ko’nikmalarga ega bo’lishi, balki turli muammolarni hal qilishi, tashkilotchi bo’lishi hamda badiiy bilim egasi bo’lishi zarur.

Nazorat savollar:

1. Tasviriy san’at o’qituvchisida qanday faoliyat turini uchratish mumkin?

2. Mukammal darajadagi tasviriy san’at o’qituvchisi bo’lish uchun qanday pedagogik imkoniyatlarni qo’llash zarur?

3. Tasviriy san’at o’qituvchisining amaliyotida dars turlarining ahamiyatlarini sanab o’ting?

4. Ijodkor o’qituvchi bo’lish uchun qanday xususiyatlarga ega bo’lish kerak?

5. Zamonaviy pedagog-rassom qanday ta’lim metodikalari va texnologiyalarini takomillashtirish yo’llarini bilishi zarur?

6. O’quvchida jamoaviy tashabbus va raqobat paydo bo’lishida pedagog-rassomning o’rni nimada deb o’ylaysiz?

4.2. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi mashg‘ulotlarining zamonaviy ta’limi

Reja:

1. Tasviriy san’at darslarini o’qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish

2. Interfaol ta’lim metodlarining tasnifi va ko’rinishlari

3. Tasviriy san’at darslarida axborot texnologiyalarini qo’llashning didaktik imkoniyatlari

Tayanch iboralar: Interfaol, keys, insert, zig-zag, blist-so’rov, innovatsion, grafik organayzer, venn diagrammasi.

Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatib kelingan edi. Bunday usul o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so‘ndirar edi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar (zamonaviy innovatsion 106oda106ogic va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish va e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi mashg‘ulotlarida zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg’ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot — ta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat. So’nggi yillarda ta’lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnalogiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta’lim beruvchi tomonidan o’zlashtirilib va qo’llanib borilishi ta’lim mazmunini tubdan o’zgartirib yubordi desak mubolag’a bo’lmaydi.

Zamonaviy o’qituvchi dars jarayonida “aktyor” emas “rejissyor” bo’lishi kerak. U o’z o’quvchilarini fanga ijodkorlik bilan qarashlarini tashkil etish, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirish, shuningdek yangi 106oda106ogic texnalogiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak. Buning uchun esa

o’qituvchi yangi ta’lim usullari va me’todlarini bilishi,dars jarayonida ulardan samarali foydalanishi maqsadga muvofiq.

O’qitishning zamonaviy metodlarini qo’llash o’qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda 107oda107o’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasi o’sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy 107oda107ogic texnologiyalarni qo’llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko’p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo’llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko’p bo’lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo’llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to’g’ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Tasviriy san’at darslarini o’qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o’ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o’rganish va amalda qo’llash o’quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to’g’ri echimini topishlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. O’quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o’quvchi-talabalarning bilim, ko’nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Yuqorida aytilganlardan interfaol ta’lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma’lum bo’ladi. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. *Interfaol metodlar:* “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”), “Blist-so’rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va boshqalar.

“Keys-stadi”-metodi inglizcha “case-study” so’zlaridan olingan. Bunda “case” – yashik, quti, gilof, jild, “study” – o’rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug’ullanish, o’quv fani, saboq olish, o’qish ma’nolarini bildiradi. Bu metod haqida inglizcha aytiladigan “case – true life”, ya’ni “keys – haqiqiy hayot” iborasiga ko’ra keys – real hayotning “bir parchasidir”**.** Shunga ko’ra bu metodni “amaliy holatlarni o’qitish metodi” deb ham ataladi.

Keys-stadi metodi bo’yicha o’rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig’indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta’lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan. Bu esa, hozirgi kunlarda ta’lim sohasidagi dolzarb bo’lgan muammolardan hisoblanadi.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	**Faoliyat shakli va mazmuni**
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓axborotni umumlashtirish; ✓axborot tahlili; ✓muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o’quv topshirig’ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarbligini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig’ining yechimini izlash, hal etish yo’llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓muqobil yechim yo’llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to’siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓muqobil variantlarni amalda qo’llash

	✓imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Blis-so`rov” metodi. Ushbu usul orqali talabalarga tarqatilgan qog`ozlarda ko`rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o`z fikrini boshqalarga o`tkaza olish yoki o`z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikr bo`la olish kabi ko`nikmalarni shakllantirishda yordam beradi.

“Modellashtirish” metodi. Bilish ob‘yektlarini ularning modellari yordamida tadbiq qilish, mavjud predmet va hodisalarning modellarini yasash, modellash uslubidan hozirgi zamon fanida keng foydalanilmoqda. U ilmiy tadqiq ot jarayonini yengillashtiradi, ba‘zi hollarda esa murakkab ob‘yektlarni o‘rganishn ing yagona vositasiga aylanadi. Mavhum ob‘yekt, olisda joylashgan ob‘yektlar,juda kichik hajmdagi ob‘yektlarni o‘rganishda va ma‘lum xususiyat va munosabatlarini aniqlashda ham foydalaniladi.

2. Interfaol ta’lim strategiyalari. “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor”.

“Aqliy hujum”ni uyushtirish bir muncha 109oda bo’lib, muammolarining yechimini topishda ham juda qo‘l keladi. Dastlab guruh yig‘iladi va ular oldiga muammo qo‘yiladi. Bu muammo yechimi to‘g‘risida barcha ishtirokchilar o‘z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o‘z o‘rtoqlari g‘oya va fikrlariga hujum qilishi yoki baholashiga haqqi yo‘q. Demak, “aqliy hujum” yo`li bilan qisqa minutlarda o‘nlab g‘oyalarni yuzaga chiqarish imkoniyatlari mavjud bo’ ladi.

Aslini olganda, g‘oyalar sonini qo‘lga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammo yechimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo’ladilar. Bu usul shartlaridan biri hech qanday tashqi ta’sirsiz qatnashuvchilarning har biri faol ishtirokchi bo’lishi kerak.

“Aqliy hujum” ta’lim metodining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt bo’yicha qancha bosqichlarga g‘oyalarni

generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish ajratishdan iborat.



Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi.

“Zig-zag” metodi. Sinf o`quvchilari 7 ta guruhga bo`linadilar va guruhlar nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlarga topshiriladi. O`quvchilar matnlarni diqqat bilan o`rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh a’zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a’zolari tomonidan to`ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarning o`quvchilari o`zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so`zlab berganlaridan so`ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o`rganib chiqilgach o`quvchilar o`tilgan mavzu bo`yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o`zaro mantiqiy bog`liqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan g`oyalar asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So`ngra o`zlashtirilgan bilimlar asosida o`quvchilarning o`zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

Muzyorar metodi – *muomaladagi tusiklarni yengib o‘tishga va o‘zaro munosabatlardagi «muzni» yorishga qaratilgan mashqdir*. Muzyorar, birinchidan, tanishuv jarayonini rivojlantiradi, ikkinchidan, ishtirokchilarni o‘zini bemalol his qilishlariga yordam beradi.

«MUZYORAR» USULLARI

Muomaladagi to’siqlarni yengib o’tishga va o’zaro munosabatlardagi «muzni» yorishga qaratilgan mashq. Muzyorar (1) tanishuv jarayonini rivojlantiradi, (2) ishtirokchilarni o’zini bemalol his kilishlariga yordam beradi. Treninga kirish jarayonida xar bir ishtirokchi uzini tanishtiradi. Ishtirokchilarning soni, kayfiyati va boshka xolatlaridan kelib chikib, turli tanishuv usullarini tanlash mumkin.

«BESH DAQIQALIK SUHBAT»

Trening ishtirokchilari juftliklarga bo’linib, o’zaro besh daqiqalik suhbat o’tkazadilar, so’ngra har bir ishtirokchi o’zining suhbatdoshini tanishtiradi.

«DOIRADA KOPTOKCHA BILAN O’YNASH»

Trening ishtirokchilari doira bo’lib turadilar, o’rtada boshlovchi turadi, qo’liga koptokcha tushgan har bir trening ishtirokchisi uzi hakida qisqacha ma’lumot beradi.

«O’XSHASH VA O’XSHASH BO’LMAGAN XUSUSIYATLARINI TOP»

Trening ishtirokchilarini 5-6 ta kishidan iborat bo’lgan kichik guruhlarga bo’linadi. Har bir guruhga guruh a’zolarini o’zaro bog’laydigan 5 ta umumiy o’xshash xususiyatlarni yoki o’xshash bo’lmagan 3 ta xususiyatni topish vazifasi beriladi. So’ngra guruhlar barcha guruh ishtirokchilarining ismini aytib, topshiriq natijasini taqdim etadilar.

3. Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqlar.

Baliq skeleti- muammoni qo`yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammolarni ta’riflash va yechib ko`rishga imkon beradi.



Ushbu sxema muammolarning o`zaro bog`liqligi, ularning kompleks xususiyatlarini aks ettiradi. Muammolarni ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.

1. Bir varaq oq qog`ozda (vatman yoki A-3 varag`i) baliq skeleti chiziladi (boshi, kemirchagi, qovurg`alari).
2. Yuqoridagi «suyagiga» muammo ifodalanishi, pastidagiga esa - ushbu muammo mavjudligini (yoki uni hal qilish yo`lllari, o`qituvchi o`z oldiga qo`ygan maqsadga qarab) isbotlovchi faktlar yozib qo`yiladi.
3. To`ldirilgan sxemaning taqdimoti.

Tabiiy va aniq fanlarda, muammoli ta’lim berish uslubidan foydalanganda.

“Ven diagramasi-”ikkita bir-biri bilan kesishgan doiralar ko`rinishidagi sxema, faktlar, hodisalar, g`oyalar, tarixiy qahramonlarni taqqoslash uchun qo`llaniladi.

Aylanma diagramma.

Har bir doiradagi bo`sh joylar tafovutlarni yozish uchun ishlatiladi; doiralar kesishganda hosil bo`lgan umumiy maydon ikki solishtirilayotgan hodisalarning (faktlar, tushunchalar va hokazolar) umumiy jihatlarini qayd qilish uchun foydalaniladi.

«Insert» metodi-sinf o`quvchilari guruhlarga bo`linadilar, guruhlar nomlanadi. O`qituvchi yangi mavzuni e'lon qiladi va har bir guruhdan yangi mavzuga oid ikkitadan fikr bildirishlarini so`raydi. Guruhlar navbati bilan (ushbu jarayonda guruhning barcha a'zolari faol ishtirok etishlarini ta'minlash maqsadga muvofiq) fikr bildiradilar. Bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi. Faoliyat yakunlangach, o`qituvchi yangi mavzu mazmuni yoritilgan matnni o`quvchilarga tarqatadi. So`ngra shunday topshiriq beriladi:

Topshiriq.

a) Matn bilan tanishib chiqing;

b) Matnning har bir qatoriga quyidagi belgilarni qo`yib chiqing:

Z - matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikr o`z aksini topgan bo`lsa;

S - matnda guruxlar tomonidan bildirilmagan fikr yuritilgan bo`lsa;

D - matnda bildirilgan fikrlarga zid fikrlar mavjud bo`lsa;

? - matn bilan tanishish jarayonida tushunmovchiliklar yuzaga kelsa.

So`ngra guruh a’zolari shaxsiy qarashlarini o`zaro o`rtoqlashadilar, guruh bo`yicha belgilar soni umumlashtiriladi. Liderlar vositasida har bir belgining miqdori bayon etiladi va izohlanadi. O`qituvchi guruhlar tomonidan qayd etilgan sonlarni ularning nomlari yozilgan ustunga yozib boradi.

O`qituvchi har bir guruh lideri fikrini tugatgach, yuzaga kelgan qarama qarshilik va tushunmovchiliklarni o`quvchilar to`g`ri hal etishlariga va tushunib olishlariga yordam beradi. Shundan so`ng guruhlar darslikda berilgan matn bilan tanishib chiqib, asosiy tushunchalarni ajratidalar ular o`rtasidagi mantiqiy munosabatlarni ochib berishga harakat qiladilar (modellashtiradilar). Guruhlar tomonidan ilgari surilgan fikrlar umumlashtirilib, liderlar tomonidan sinf jamoasida yetkaziladi.

“Klaster” metodi -bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg’ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko’rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ularning orasida boshqa farqlar yo’q.

Buning uchun Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag’batlantirib turilishi, o’quv materialini kichik-kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo’naltiruvchi matn, loyiha,

rolli o’yinlar kabi metodlarni qo’llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.



Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o’zaro muloqotda, o’zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o’quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o’rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasida interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o’quv muassasasining o’quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o’qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasida zamonaviy jamiyat sharoitida harakat qilish va muvaffaqiyatli bo'lish qobiliyatini shakllantirish zarur. Shuning uchun, o'quv jarayonini yanada samarali tashkil qilish haqida o'ylash kerak.. Tasviriy san’atni o’qitish metodikasi darslari vizual ketma-ketlikda qurilganligi sababli, multimedia uskunalarining imkoniyatlaridan foydalanish o'qituvchining tez-tez ko'rinadigan dars uchun tayyorlanishini osonlashtiradi. San'at dunyosiga o'zingizni bag'ishlang, rassom, dizayner, me'mor rolini bajaring, bolalar uchun ba'zan mavjud bo'lmagan materiallarni talab qilmang. Shuni yodda tutish kerakki, kompyuter o'qituvchini almashtirmaydi, faqat uni to'ldiradi.

Darsdagi multimedia texnologiyasidan foydalanish birinchi navbatda o'quvchilar tomonidan o'yin darajasida qabul qilinadi va ularni asta-sekin talabaning shaxsiyatini rivojlantiradigan jiddiy ijodiy ishlarga jalb qiladi.

Natijada, tasviriy san’at darslarida kompyuterdan foydalanish shakllarini aniqlash mumkin:

1.Axborot manbai sifatida;

2.O'qituvchi yordami bilan;

3.Talabaning loyiha faoliyatini tashkil etish;

4.Grafik dasturlardan badiiy faoliyat vositasi sifatida foydalanish.

"Ta'lim to'g'risida" gi qonun va ta'lim tizimi talablariga muvofiq, umumiy ta'lim maktabida tasviriy san’atni o’qitish metodikasi ta'lim berishning yangi yondashuvlariga ehtiyoj bor. Bu ko'p jihatdan mintaqaviy komponent doirasida milliy madaniyat, xalq an'analari, tasviriy san’at asarlarini qayta tiklashning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Dars yanada samarali bo'ladi, chunki u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'rganilayotgan mavzuga qiziqishni kuchaytiradigan pedagogik texnikadan foydalangan holda o'quv materiallarining jozibadorligi;

- o'qituvchi va talabalarning chuqur bilim olish va olingan ma'lumotlarni qo'llash uchun yaratilishi printsipi;

- multimedia ijrosi bilan darsni o'tkazish;

- uy vazifasini bajarish va talabalarning mustaqil ishi;

Dars tipologiyasiga qarab turli filmlar-prezentatsiyalar, Slayd filmlari yoki test topshiriqlari qo'llaniladi.

Slayd filmi-barcha darslarda ishlatiladi, darsning har qanday bosqichiga kiritilishi mumkin. Slayd filmini tomosha qilganda, talabalar odatda darhol ishga kirishadi. Asta-sekin chizilgan darslarda ideal.

Axborot texnologiyalari, to'g'ri tanlangan ta'lim texnologiyalari bilan birgalikda, ta'lim va tarbiya sifatini, o'zgaruvchanligini, differentsiatsiyasini va individuallashtirishni talab qiladi. Tasviriy san'at darslarida axborot texnologiyalarini qo'llashning didaktik imkoniyatlari orasida quyidagilar aniqlanishi mumkin. Bular:

-dars bosqichining maqsadiga qarab axborot texnologiyalaridan qismli foydalanish;

-ta'limni individuallashtirish, muayyan talabaga e'tibor berish;

- o'yin bilan mashg'ulotlarni birlashtirish; ta'limning turli bosqichlarida maktab o'quvchilarining mustaqil faoliyatini boshqarish.

Ko'pgina talabalar kompyuter texnologiyasiga ega va tasviriy san'at o'qituvchisi bunga muhtoj. Internetning ta'lim resurslariga havolalar nazariy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga va aloqa bo'yicha sheriklarni topishga yordam beradi. Tasviriy san'atni o’qitish metodikasi, nazariya va amaliyotning birligi dasturini amalga oshirish, milliy va jahon badiiy madaniyatining professional rassomlari va xalq ustalari asarlari bilan muloqot qilishning asosiy tajribasini shakllantirish uchun taqdimotlardan foydalanish mumkin. Microsoft Power Point elektron prezentatsiyalaridan foydalanish o'quv materiallarini turli xil va qiziqarli tarzda taqdim etishga yordam beradi, darsda taqdim etilgan ma'lumotlarning idrok darajasini oshiradi. O'qituvchi darsning ketma-ketligini o'ylaydi va uni taqdimot slaydlarida ushlaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ta'lim jarayonini optimallashtiradi, axborot berishning an'anaviy shakllarini o'zgartiradi, qulaylik va qulaylikni ta'minlaydi. Raqamli fotosuratlar va videolar darslar uchun taqdimotlarni ishlab chiqish uchun asos yaratadi. O'yin shaklidagi kompyuter ta'lim dasturlari muzeylar, san'at galereyalari, kontsert zallari uchun virtual tashrif buyurib, rassomlar,

bastakorlar, me'morlar, haykaltaroshlar ijodining nozikliklariga kirishga imkon beradi. Internet resurslari sayyoradagi eng qiziqarli joylarda "bo'lish" va nazariy fanlarni o'rganishda yuzaga keladigan savollarga javob topish imkonini beradi. Raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish yangi materiallarni taqdim etish vaqtini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi, o'quv vaqtida bolalarning ishlaridan ko'proq daromad olish, darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish, mavzuga qiziqish uyg'otish, loyiha faoliyatini tashkil etish imkonini beradi.

Kompyuter - bu o'rganish yanada qiziqarli va sodda bo'lishi mumkin bo'lgan vosita va olingan bilim yanada chuqurroq va umumlashtiriladi. Multimedia texnologiyasidan foydalanish bolalarning qiziqishi va bu qiziqishni qondirish vositasi uchun tabiiy bo'lgan yondashuvlarga asoslangan.

Tasviriy san'at darslarida kompyuter texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari aniq. Ular o'qituvchining ishida yangi imkoniyatlar ochib beradi, turli ta'lim vazifalarini hal qilishga imkon beradi.

Talabalar uchun ta'lim faoliyati turlarini kengaytirish (internetdagi mavzu bo'yicha ma'lumot qidirish va axborotni qayta ishlash).

Internet-muzeylar, ko'rgazmalar, galereyalar va boshqalar orqali tashrif buyurish talabaning shaxsiy rivojlanishining tabiiy muhitiga aylanadi.

O'quv faoliyatini samarali tashkil etish uchun klassik va axborot-texnologiya texnikasi va o'qitish usullarini optimallashtirishga erishish kerak. Ta'limning muvaffaqiyati, uning maqsadlari va mazmunini to'g'ri aniqlashga, shuningdek maqsadlarga erishish yo'llariga, ya'ni o'qitish usullariga bog'liq.

Darsda talabaga faqat hodisani tasvirlash emas, balki bu hodisaga o'z munosabatini yetkazish taklif etiladi. Hissiy ta'sirni kuchaytirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar va ta'lim shakllari qo'llaniladi. Zamonaviy texnologiyalar, tasviriy san'at darsida o'qitish shakllari va usullaridan to'g'ri va mohirona tashkil etilgan, metodik jihatdan savodli foydalanish ta'lim, tarbiya va rivojlanish jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi, va talabalarning faolligini, qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Tasviriy san’at darslarini o’qitish jarayonida qanday interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi?

2. Interfaol ta’lim metodlarining tasniflarini so’zlab bering? va ko’rinishlari

3. Interfaol ta’lim metodlarining tasviriy san’at darslarida qo’llash yo’llarini izohlang?

4.Tasviriy san'at darslarida axborot texnologiyalarini qo'llashning didaktik imkoniyatlari nimalar?

5. “Keys stadi” metodi qanday metod?

6. Tasviriy san’at darslarida “Ven diagrama” metodidan foydalanish yo’llari haqida so’zlab bering?

4.3. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi xonasini tashkil etish va jihozlash

Reja:

1. Talabalar ta'lim faoliyatini kengaytirishda tasviriy san’at o‘qitish metodikasi xonasining ahamiyati

2. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi xonasini jihozlash.

3. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi xonalariga qo'yiladigan talablar.

Tayanch iboralar: Molbert , televideniya, parta, natura, taglik, shkaf, proektsion ekran, texnik qurilmalar, gidroproyektor, maket.

Hozirda tasviriy san`at darslarini davlat ta`lim standartlari talablari darajasida o`tkazish uchun uning moddiy texnikaviy asoslarini yaratish zarur. Chunki, tasviriy san`at darslarida texnika vositalari, ko`rgazmali va metodik materiallar shunchalik ko`p ishlatiladiki, ularni maxsus xonalarsiz to`plab bo`lmaydi. Tasviriy san`atdan olib boriladigan ishlarning hajmi va turlari ham xilma-xildir. Maxsus xonaning zaruriyati quyidagilar bilan izohlanadi:

- tasviriy san`at va chizmachilik darslarini yuksak metodik saviyada olib borish;

- tasviriy va amaliy san`atdan to`garak ishlarini o`tkazish;

- tasviriy va amaliy san`atdan sinfdan tashqari ishlarni (uchrashuv, tanlov, ko`rgazma, suhbat, munozara, har xil tadbirlar) tashkil etish;

- o`quvchilarning darsdan tashqari mustaqil ishlarini o`tkazish;

- jamoa bo`lib televideniya orqali beriladigan maxsus ko`rsatuvlarni tomosha va munozara qilish.

Ayniqsa, san`at asarlarini perspektiva, rangshunoslik, yorug` soya qonunlarini, rassomlarning hayoti va ijodini o`rganishda tasviriy san`at xonasining ahamiyati beqiyosdir. Tasviriy san`atdan ko`rgazmali qurollar hisoblangan gipsli geometrik shakllar, gipsli rozetkalar, uy-ro`zg`or buyumlari (lagan, ko’zalar, choynak, piyola, guldon, kapkir, bidon, qumg`on, patnis, sabzi taxta va turli xildagi buyumlar) musiqa asboblari (rubob, dutor, nay, childirma, surnay, skripka, gitara) meva va sabzavotlar (olma, nok, behi, qovun, tarvuz, qovoq, sabzi, piyoz, baqlajon, uzum, anor)ning modellari, qush va hayvonlarning (quyon, chumchuq, qaldirg`och, kabutar, qarg`a, bulbul, sa`va, to`ti, tipratikon, laylak, turna) tulumlarini saqlash va ulardan foydalanish uchun maxsus xona talab etiladi.

26-rasm

Tasviriy san`at mashg`ulotlarini dastur talablari darajasida o`tkazish, rasm chizish uchun molbert yoki moslamali parta, natura qo`yish uchun taglik, naturani sun`iy ravishda yorug`lantiruvchi asboblar kerak bo`ladi.

Tasviriy san`at xonasi bo`lmagan taqdirda bu ko`rsatilgan ko`rgazma va texnika vositalarini (mavzuga taaluqli bo`lganlarini albatta) o`quvchi sinfdan-sinfga ko`tarib yurishiga to`g`ri keladi. Bu ishlar esa ma`lum qiyinchiliklar bilan bog`liq bo`lganligi sababli ularni amalga oshirib bo`lmaydi. Natijada, mashg`ulotlarning ko`pchiligi ko`rgazmaliliksiz o`tiladi va u dastur talablariga javob bermaydi.

Hozirda, boshqa fanlar qatori tasviriy san`at darslarini texnika vositalarisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Chunki, san`atshunoslik asoslari kursini o`tishda ko`plab slayda, diopozitiv, diafilm, kinofilmlar namoyish etish kerak. Maktablarni kompyuterlashtirish amalga oshirilayotgan bir davrda maxsus xonaning bo`lishi yanada oydinlashadi. Mana shuning uchun ham hozirda tasviriy san`at predmetining o`qitilishini talab darajasiga ko`tarish uchun har bir maktabda bu fandan maxsus xona bo`lish shart. Tasviriy san’at o’qitish metodikasi xonasi oynalari ufqning barcha tomonlariga, shu jumladan shimolga yo'naltirilishi mumkin. Derazalarning janubiy holati to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari ta'siridan oq pardalar yoki maxsus pardalarni ishlatishni talab qiladi. Xona ish joyida chap tomondan yoritilgan bo'lishi kerak.

27-rasm.*Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi xonasining ko’rinishi*

O’quvchilarni rasm chizish uchun shunday joylashtirish kerakki, nur chap tomondan tushadi va qo'llardan tushgan soyalar yozuv va rasm chizishga xalaqit bermaydi. Yorug'lik teshiklarini to'sib qo'yish taqiqlanadi (ichki va tashqi tomondan). Shkafning yorug'lik teshiklari quyosh nurlaridan himoyalanadigan, pardalar, ochiq rangdagi mato pardalari kabi qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Sun'iy yoritish uchun lampalardan foydalanish zarur. Yoritgichlar derazalarga parallel ravishda shkaf bo'ylab qatorlarga o'rnatilishi kerak. Yoritgichlarni alohida (qatorda) yoqishni ta'minlash kerak. Qo'shimcha yoritish uchun bir qator yoritgichlardan foydalanish tavsiya etiladi. Yo'nalishga qarab xonani bo'yash, to'yinganlikning issiq yoki sovuq tonlarida bajarilishi kerak.

Janubga qaragan binolar. sovuq tonlarda, shimolda esa iliq ranglarda bo'yalishi zarur. Oq, qorong'i va qarama-qarshi ranglarda bo'yash tavsiya etilmaydi. Tasviriy san’atni o’qitish xonasining devorlari silliq bo'lishi kerak va ularni ham tozalash mumkin. Deraza romlari va eshiklari oq rangga bo'yalgan. Uy ichidagi harorat 18-21 daraja oralig'ida saqlandi. Havoning namligi 40-60 oralig'ida bo'lishi kerak.

Shkafda rasm, badiiy hunarmandchilik, dizayn, haykaltaroshlik uchun suv ta'minoti (sovuq va issiq suv) bo'lishi kerak. Har xil texnik o'quv vositalaridan foydalanish uchun xonada elektr ta'minoti mos ravishda bo'lishi va talablarga muvofiq xavfsizlik qoidalariga rioya qilish shart.

Tasviriy san'at xonalari binolariga qo'yiladigan talablar qanday bo’ladi?

Asosiy maktabda tasviriy san'atni o'qitish har biri kamida 80 kvadrat metr bo'lgan boshlang'ich va o'rta sinflar uchun ikkita xonada o'tkazilishi kerak. Amaliy mashg'ulotlarni kamida 36 kvadrat metr bo'lgan qo'shimcha xonalarda o'tkazish tavsiya etiladi.

Tasviriy san'at xonasida o'qituvchining ish joyi sinf oldida joylashgan bo'lishi va stul, jihozlar uchun ko’rgazmali qurollar, doska va proektsion ekran bilan jihozlangan o'qituvchi stolidan iborat bo'lishi kerak. Tadqiqot uchun asosiy taxtadan va ikkita katlamadan tashkil topgan beshta ish yuzasi bo'lgan taxtadan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu taxtalar magnit yuzaga ega bo'lishi shart.

O'qituvchi o'rnini jihozlash o'qitish texnologiyasi bilan to'liq aniqlanishi kerak. Chizish va chizish uchun talabalar jadvallarida ishchi sirt gorizontal holatdan moyillikka 75 gradusgacha burchakka o'zgarishi mumkin. Ishchi yuzaning qiyshaygan holati bo'yash va chizish darslari uchun, gorizontal holat esa yozish, modellar tayyorlash va boshqa faoliyat uchun mo'ljallangan. Guruh faoliyatini tashkil etish uchun harakatlanuvchi ekranlar, bo'linmalar yoki mebellardan foydalangan holda xonani alohida zonalarga bo'lishini ta'minlash zarur.

Tasviriy san’atni o’qitish metodikasi o’quv xonasini texnik qurilmalar va jihozlar bilan jihozlashga qo'yiladigan talablar: Tasviriy san’atni o’qitish metodikasi o’quv xonasini jihozlangan bo'lishi zarur.Bular:

Proyeksiya, video va audio uskunalar: - gidropektor, epiproektor,

- gidroproyektor, boshqa proektorlar;
- videomagnitofon bilan kamida 61 sm diagonali ekranli rangli televizor.

Tasviriy san’atni o’qitish metodikasi o’quv xonasini o'quv jihozlari va zarur hujjatlar bilan jihozlashga qo'yiladigan talablar. Tasviriy san’atni o’qitish metodikasi o’quv xonasi quyidagi dars turlari uchun o'quv qo'llanmalari bilan jihozlangan bo'lishi zarur. Bular:

-Tasavvurdan chizilgan rasmlar jamlamasi, badiiy hunarmandchilik darslari;

-oddiy maketlarni loyihalash;

-ishlab chiqarish, san'at haqida suhbatlashish.

Ta'lim uskunalari maktab tanlagan o'quv dasturining mazmuniga mos kelishi va O’zbekiston Respublikasi Oliy va O’rta Maxsus Ta'lim vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan amaldagi "O’zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalari uchun tasviriy san'at darslai uchun o'quv jihozlari ro'yxati" ni shakllantirish zarur. O'quv xonasida talabalar uchun yetarli miqdordagi uslubiy adabiyotlar to'plami, shu jumladan ushbu mavzu bo'yicha uslubiy jurnal, ushbu ta'lim muassasasida tasviriy san'atni o'qitish dasturlari, me'yoriy xarakterdagi ma'lumotnomalar, tasviriy san'at bo'yicha ta'lim standarti bo'lishi kerak. Tasviriy san’atni o’qitish metodikasi o’quv xonasida ma'lumotnomalar, o'qituvchi uchun talabalar uchun uslubiy adabiyotlar, sinflar bo'yicha tizimlashtirilgan o'quv qo'llanmalar, mavzular bo'yicha, o'qituvchilarning

darsga tayyorlanish rejalari, shaxsiy tarkibidagi tematik taqvimiy o’quv rejalari bo'lishi shart.

Nazorat savollari:

1. Talabalar ta'lim faoliyatini kengaytirishda tasviriy san’at o‘qitish metodikasi xonasining ahamiyati nimada?

2. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi xonasini qanday jihozlash tavsiya etiladi?

3. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi xonalariga qo'yiladigan talablarni sanab o’ting?

4. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi xonasiga qanday texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilish zarur?

5. Tasviriy san’atni o’qitish metodikasi o’quv xonasini texnik qurilmalar va jihozlar bilan jihozlashga qo'yiladigan talablarni bilasizmi?

6. Sizda tasviriy san’at ustaxonasini bo’lganida, uni qanday jihozlar edingiz?

5 MODUL. TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISH METODIKASI BO'YICHA BO'LAJAK O'QITUVCHILARINI AMALIY ISHLASH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

5.1 Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari faoliyatida bajariladigan amaliy ishlar

Reja:

1. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini amaliy ishlash faoliyatini samarali shakllantirish yo'llari.

2. O'qituvchi rahbarligida bo'lajak o'qituvchilarni maktab ostonasiga tayyorlash.

Tayanch iboralar: Kompozitsiya, innovatsion texnologiyalar, psixo-emotsional, realistik yo'nalish, tus, kolarit, lessirovka.

Inson uchun zarur bilimlar tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig`indisini o`zlashtirish bilan cheklanib bo`lmaydi. Shuning uchun o`quvchilarga o`z bilimlarini mustaqil ravishda to`ldirib va boyitib borishni, o`zining diqqat-e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o`rgatish zarur. Bu vazifa o`quvchilarning tasviriy san`at va ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog`liq holda kengaytirish va rivojlantirishni taqozo etadi.

Yoshlarni barkamol avlod darajasida tarbiyalashda tasviriy san'at fani alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o`z navbatida, oliy o`quv yurtlarida maktablarda o`qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo`lishini taqozo etadi. Bu esa pedagog, olim va rassomlar zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklaydi. Tasviriy san'at sohasida yetarli bilim va malakani egallamay turib, o`quvchi kompozitsiya, rangtasvir, qalamtasvir,haykaltaroshlik minatyura san'ati va boshqa mutaxassislik fanlarini yuqori darajada o`zlashtira olmaydi. Kelajakda tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash maqsadlariga erishishda o'qituvchining badiiy va pedagogik mahorati yuksak darajada bo'lishi lozim.. Talabalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini amalga oshirish uchun o'qituvchi badiiy-pedagogik bilim va ko'nikmalarning yuqori darajasiga ega bo'lishi, kelajakdagi o'qituvchilarni kasbiy, badiiy va ijodiy tayyorgarligi nuqtai nazaridan o'qitish jarayonini boshqarishni amalga oshirishi kerak.

Oliy o'quv yurtida talabaning o'qish davri mobaynida chizmachilik, rangtasvir,qalamtasvir, kompozitsiya bo'yicha darslarni o'tkazishda o'qituvchi uning asosiy maqsadi nafaqat umumta'lim maktabi uchun o'qituvchi, balki o'qituvchi-rassom, ya'ni yuqori psixologik-pedagogik va metodik bilimlarga ega bo'lgan tasviriy san'at o'qituvchisini tayyorlashdir. Shuni ta'kidlash kerakki, maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchi didaktik va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishi kerak. Ushbu vazifalar darslarda o'quv-ijodiy muhitni yaratish sharti bilan hal etiladi va o'qituvchi va talabalarning o'z faoliyatining maqsadlari aniq va tushunarli bo'lishi juda muhimdir.

O'qituvchi faol ijodiy ish natijasida, talabalarda o'quv va ijodiy faoliyatni faollashtirish uchun o'ziga xos rag'bat uyg'otishi kerak, bu jarayonda talabalar tomonidan bilimlarni yanada to'liq o'zlashtirib olish, ularga tayangan holda mahorat va ko'nikmalarni ishlab chiqish, kelajakda yoshlarni o'qitish va tarbiyalashning murakkab vazifalarini ijodiy hal etishga xizmat qiladi. Natijada, o'qituvchi va talabalar o'rtasida jonli pedagogik jarayonda yuzaga keladigan munosabatlar hamda kelajakdagi o'qituvchilarning kasbiy shakllanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Bo’lajak o’qituvchi tasviriy san'at darslarni muvaffaqiyatli olib borishi uchun nazariy va amaliy tayyorgarligi darajasiga bo'lgan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda, barcha didaktik tamoyillarni birlikda va o'zaro bog'liqlikda kuzatib borishi va ijodiy amalga oshirishi kerak. Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda, badiiy – ijodiy muhitni yaratishga ko'maklashadigan pedagogik, psixologik, madaniy, tashkiliy shart-sharoitlar majmui-bakalavrni kompleks tayyorlashni shakllantirishning vakolatli modeli hisoblanadi.

Rassom-pedagogni samarali shakllantirish uchun o'quv jarayoning barcha tarkibiy qismlarini yaxlit uslubiy tizim bilan ta'minlanishi lozim. Malakali mutaxassis tayyorlashning zamonaviy talablariga javob berishi shart. Shu munosabat bilan tasviriy san'at sohasidagi ta'lim va ijodiy ishlarning yetakchi usuli tabiatdan olingan tasvirlardir. O'quv jarayonida tabiatni tushunish, hislarning bevosita bo'lishini ta'minlash muhim hisoblanadi.. Tabiatning bu tushunchasi ijodkorlik uchun old shartlarni yaratadi.

Tabiatning eng samarali tushunchasi plenar amaliyotda o'rganish davrida sodir bo'ladi. Talabalarni o'qitish jarayonida tasviriy san’atni yuksak darajada o’zlashtirishi, konstruktiv tasvirni o'zlashtirishi, rang-tus munosabatlar yechimni o'zlashtirishi, ochiq muhit bilan bog'liq bo'lgan, madaniy-tarixiy, milliy, mintaqaviy va boshqa ko'plab sharoitlarga muvofiq fazoviy muammolarni yaxlit uyg'un hal etishni tashkil etish bilan bog'liq.

Bo’lajak tasviriy san’at fan o’qituvchilarning umumiy amaliyoti davrida quyidagi omillar amalga oshirilmoqda. Bular:

-tasviriy savodxonlik,

-me'moriy modellashtirish,

-psixo-emotsional,

-ta'lim va tarbiya,

-vaqtinchalik, shaxsiy,

-yuksak mahorat.

O'qituvchi o'quvchilar oldida go'zallik olamini ochib beradi, ularning estetik didlarini rivojlantiradi, bilim olishga, kamolatga erishishda, ularni qurshab turgan hamma narsani yaxshiroq va go'zalroq qilishga bo'lgan intilishlarini tarbiyalaydi. Pedagog buning hammasiga o'quvchilarni katta san'at realistik yo'nalishidagi san'at asarlari bilan ixomlantiribgina emas, balki tasviriy savod asoslarini o'qitish bilan erishish mumkin.

Tasviriy san'at asarlarini o'quvchi faqat o'qituvchi ko'magidagina o'zlashtirish mumkin. Ta'limning dastlabki qadamlaridanoq unga ustoz va rahbar darkor. Masalan, naturdan rasm chizish, o'quvchi unga qanday qilib kirilmog'i kerakligini, ishini nimadan boshlash zarurligini, qanday qilibbir varaq oq qog'ozdagi ishning uddasidan chiqmoq kerakligini bilmaydi. Tajribali pedagog unga o'zi ishini alohida bo'laklarga qanday qilib bo'lish va ularni qanday izchillikda hal qilish mumkinligini ko'rsatib beradi.

Naturadan rasm chizishni o'rgatish pallasida pedagog dastavval naturani kuzatish va qabul qilish masalasiga e'tibor beradi.

To'g'ri ko'ra olish qobiliyati insonda tabiiy bo'lib, u rivojlanmog'i zarur.

Buning uchun bolalik chog'dan narsalarni-diqqat-e'tibor bilan ko'zdan kechirishga, uning shaklidagi, rangidagi, proportsiyasidagi o'ziga xos xususiyatlarga e'tibor berishga, buyumlar qurilishini taxlil qilishga o'rgatmoq kerak.

Naturani taxliliga kirishmasdan turib, o'qituvchi bolalarning e'tiborini mazkur buyumga qaratib, quyidagiday qator savollar beradi: buyum shaklining xususiyati qanday? Proportsiyalar qanday, ya'ni buyumning balandligi enidan ziyodmi, yo aksinchami? Buyumga yorug' qanday tushmoqda? Natura bilan shu tariqa tanishish uni keyinchalik o'rganib borishda yo'llanma bo'ladi.

Pedagog asta-sekin chuqqurroq kuzatishlarga o'tadi: u natura ko'rilishining taqsimlanishi qonuniyatini, perespektiv xodisalar qonuniyatini tushuntiradi.

O'rganilayotgan ob'ektni aniq tasavvur etish uchun o'quvchi dastavval uning shaklini butunligicha qamrab olishi, so'ng mazkur buyumning barcha belgilarini, uning barcha muhim detallarini, xususiyatlarini aniq ilg'ab olmogi va shu bilan birga mazkur elementlarning o'zaro joylashishi, ya'ni naturaning qurilish birligini yorqin tasavvur qilmog'i zarur.

O'qituvchining tushuntirishlarini sinf doskasida rasmlar bilan ko'rsatmali qilib izohlab berilsa yoki metodik qo'llanmalarda foydalanib tushuntirilsa hammaning anglab olishi osonlashadi.

O'quvchi natura bilan tanishib olgandan keyin rasm chizishga o'tishi mumkin bo'ladi. Pedagog uning oldiga o'quv vazifalarni qo'yadi, ma'lum sistemaga ko'ra tasvirni chizish jarayonida uning kuzatishlarini tashkil qiladi, natura ko'rilishidagi eng muhim xususiyatlarga uning e'tiborini kuzatadi.

Pedagog o'quvchi fikrining faoliyatini diqqat bilan kuzatib boradi, doim uni to'g'rilab, qo'llab-quvvatlab turadi. "O'quvchi uchun o'ylash" kerak emas, ayniqsa uning o'rniga rasm chizishning hojati yo'q, u o'z fikri, ko'nikmalarini mashq qildirsin, lekin uning ishini ham nazardan chetlatib bo'lmaydi. O'quvchi mushkullariga duch kelganida unga o'z vaqtida ishora, yordamchi savol bilan ko'maklashishi kerak.

Boshlang'ich kurslarda bolalar naturani tasvirni bunyod etish jarayonida taxlil qilishga o'rganmagan bo'lib, rasmni dastlabki taassurot bo'yicha bajaradilar. Ular naturaga kamdan kam murojat qiladilar, o'z rasmlarini natura bilan taqqoslamaydilar

ham desa bo'ladi. Ularning o'quvchilar bolalar diqqatini yuzaki kuzatishdan naturani qanday taxlil qilishga yo'llagan holda ko'niktirib o'rgata boradi. Rasm chizayotib o'quvchilar shoshmasdan, extiyotlik bilan bir qiyinchilikdan ikkinchisiga o'tib bormoqlari zarur.

Agar o'quvchi nato'g'ri chizsa, pedagog darhol uning xotasini ko'rsatib, tuzatishni maslahat beradi. O'quvchi tasvirni ilgarigiday, qalamning uchini qog'ozga asta tegizgan holda, iloji boricha o'chirg'ichdan foydalanmasdan tuzatadi, rasm juda kirlangan bo'lsa, uni tuzatib bo'lmaydigan xoldagina o'chirg'ich ishlatiladi.

Xatolarni tuzatish texnikasini o'qituvchi shogirdining o'zi chizgan rasmini ko'rsatib beradi. Shu bilan birga xatoni tuzata turib o'quvchiga batafsil tushuntirish kerak, toki u o'z xatosining sababini va uni tuzatish metodikasini yaqqol anglab olsin. Amalda bu qoidaga ko'pincha amal qilinmaydi. O'qituvchi "noto'g'ri" deb qo'yaqoladi, xato nimaligini va uni qanday qilib kuzatmoq kerakligini tushuntirmaydi.

Xatoni o'z vaqtida ko'rsatish va o'z vaqtida yordam berish kerak. Bu borada o'qituvchi kechikar ekan, keyinchalik o'quvchiga xatosini tuzatishda ko'maklashish ancha mushkul bo'ladi.

O'quvchilar endi rasm chiza boshlaganda o'quvchi sinfda o'z ishini qanday qilib yaxshiroq uyushtirish mumkin? Tushuntirgandan so'ng 2-3 minut o'tgach u xonani aylanib chiqadi va o'quvchilarning ishini kuzatadi. Shunday qilib, o'qituvchining birinchi aylanib chiqishida har bir o'quvchi pedagogdan ishini davom ettirishda to'g'ri ko'rsatma oladi. Auditoriyani aylanib chiqqan o'qituvchi yana o'sha eng oldin ko'rsatma bergan o'quvchining yoniga qaytadi.

Pedagog hamma bolalarda tipik xatoni sezib qolsa, u ishni to'xtatib, barcha o'quvchilarning diqqatini ana shu xotoga jalb etadi. Bunday hollarda tushuntirishni doskaning yonida turib olib borgan ma'qul. O'qituvchi dastlabki xatoning sababini batafsil tushuntiradi, so'ng auditoriya doskasida uni qanday tuzatish kerakligini ko'rsatib beradi.

O'quv materialini bayon qilish jarayonida o'qituvchi oldida doim o'quvchilar uni tushunib olishlari uchun qilish kerak bo'lgan barcha ishni bajarish vazifasi turadi. O'qituvchining har bir so'zini o'quvchilar anglab olmoqlari lozim. O'quv materiali

shunday bayon etilsinki, bolalar uni qiynalmasdan o'zlashtirib olsinlar. Buning uchun esa o'quvchi tushunmaydigan, u birinchi bor eshitayotgan so'zlar va iboralarni ishlatmaslikka harakat qilish kerak. Agar o'qituvchi bunday so'zlarni ishlatmaslikka harakat qilish kerak. Agar o'qituvchi bunday so'zlarning ishlatmaslikning iloji bo'lmasa (masalan , tus, kolarit, lessirovka), u shu yerdayoq ularning ma'nosini o'quvchilarga tushuntirib, bu haqda aniq va yorqin qilib aytib berishi lozim.

Material bayoni quruq va zerikarli bo'lib qolmasligi ham ahamiyatlidir. O'quvchilarni qiziqtirib, maftun etmoq kerak.

O'qituvchi materialni oddiy va marokli tarzda gapirar ekan, uni odatda, butun sinf jiddiy e'tibor bilan tinglaydi. O'qituvchi temani noaniq, chalkashtirgan tusda aytib bersa, o'quvchi temani noaniq, chalkashtirgan tusda aytib bersa, o'quvchilar asta-sekin uni eshitmay qo'yadilar.

Pedagog amaliyot davrida biz o'quvchilar va o'qituvchini ko'p kuzatib, shunday xodisalarning shoxidi bo'lishiga to'g'ri keladi. O'qituvchi sinfga kirar ekan, darhol hamma bolalarning diqqatini o'ziga tortadi. Endi ular o'qituvchining ixtiyorida va bundan keyingi vaziyat muallifning bolalar diqqatini shu holatda saqlay olishga bog'liq bo'ladi. Tajribali o'qituvchi darhol bolalarning e'tiborini o'ziga qaratadi va bir daqiqaga ham vaziyatni o'zgartirmasdan dars temasiga o'tadi. Kam tajribali o'qituvchi esa ko'pincha o'z o'quvchilarning diqqat e'tiborini bo'lib qo'yadi, yo o'quvchilarga dars temasini zerikarli tarzda e'lon qiladi, yoki materialni shu qadar zavqsiz ayta boshlaydiki, bolalar unga quloq solmay qo'yadilar.

Ko'p xollarda dars bolalarning emas, balki o'qituvchining aybi bilan yomon o'tadi. Masalan, o'qituvchi san'at haqida suxbat dars o'tkazar ekan, ko'plari tinglamayotganini sezadi. U darsni bo'lib hammani tartibga chaqiradi va so'zida davom etadi. O'qituvchi bu bolalarni hech narsa bilan qiziqtirib bo'lmas ekan deb o'ylay boshlaydi. Lekin buning sababi o'qituvchi bolalarga notanish ibora va terminlarni ishlatishida edi. Bu terminlarning mazmunini tushuntirib berishni xayoliga ham keltirmasdi. Bu narsa, albatta, bolalarni charchatar, tushunarli bo'lmagan gaplar ularni qiziqtirmasdi.

Yuqorida aytilganidek, dekorativ va tematik rasm chizish darslarida o'quv

jarayonini uyushtirish metodikasiga alohida e'tibor bilan qarash lozim. Ko'pchilik o'quvchilar bu mashg'ulotlarni passiv tarzda o'quvchilarni o'z xollariga tashlab qo'ygan xolda o'tkazishadi. Ular bolalarning ana shu mashg'ulotlarda mustaqil ijodiy ish olib bormoqlari zarur degan fikrga amal qiladilar. Masalan, agar o'quvchilar o'qituvchi bergan topshiriq bo'yicha naqshlar chizib, asosan xalq ijodiy namunalaridan nusxa ko'chirsalar, keyingi topshiriqlarni, ba'zi bir o'quvchilarning fikriga ko'ra, ular mustaqil ravishda, pedagogning yordamisiz bajarishlari lozim. Bu esa noto'g'ridir. O'qituvchi o'zini chetga olib qolmasdan, doim o'quvchilarni boshqarib borishi, ularga murakkab ijodiy masalalarda yordam berishi kerak.

Mavzu asosida rasm chizish darslarida ayniqsa kompozitsiyadan dars berish metodikasi masalalariga alohida e'tibor berish kerak. Shuni aytish kerakki, ba'zi rasm o'qituvchilari ko'pincha o'quvchilarni tematik rasm chizish darslarida o'z holatiga tashlab qo'yadilar. Bunda o'qituvchilar kompozitsiya uchun tema berish bilan chegaralanadilar.

Bolalarning ijodiy faoliyatiga aralashmay "erkin tarbiya" printsipida ish ko'radilar. Bunday hol bolalarning ijodiy rivojlanishiga, avvalgi mashg'ulotlarda o'zlashtirgani grafik malakalarini mustahkamlashiga, qolaversa umumiy rivojlanishiga ham ta'sir etmaydi. Mashg'ulot mazmuni samarali bo'ladi.

Mavzu asosida rasm ishlash syujet qidirishdan boshlanib, o'quvchining vazifasi mazkur yoshdagi o'quvchilar uchun tushunarli va zavqli bo'lgan syujet topib berishdan iboratdir. Qo'yilgan vazifani muvaffaqiyatli hal qilishda dastavval bolalarning oldindan ko'rgan voqealardan qolgan taassurotlari, yo'llarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlaridan foydalanish yordam beradi.

Fikr qilish va tasavvur etishda o'tgan tajribalardan foydalanmasdan inson yangilik ijod etish, fikr qilishi mumkin emas. Rassom yoki yozuvchi asar yaratar ekan, doim hayotdan olingan real obrazlardan kelib chiqadi. Hatto fantastik obrazlarni yaratish jarayonida ijodkor insonga yaxshi ma'lum bo'lgan obrazlar elementlariga tayanadi.

Mavzu asosida rasm chizish darslarida o'quvchilarning ijodiy xayollarini rivojlantira turib, o'qituvchi doim buni nazarda tutishi va o'quvchilarning tafakkurlarini

doim aktivlashtirishi, ularga kompozitsion tema qidirishlaridan to uni rasmda nihoyasiga yetkazgunlariga qadar bo'lgan ishlarida ko'maklshib bormog'i kerak. Ayni vaqtda o'qituvchi rasm kompozitsiyasini izoxlar ekan, rasm chizuvchiga syujetni aniqroq, ifodaliroq tasvirlashga, mazkur voqea va xodisaga nisbatan o'zining munosabatini bildirishga yordamlashadi.

O'qituvchi rahbarligidagi amaliy ishlar quyidagi yo'nalishlarda bajariladi:

-maktabda tasviriy san'atdan bironta dars mavzusi yuzasidan konspekt tayyorlash;

-maktabda bironta sinf uchun mashg'ulotlarni taqvimiy rejalashtirishini bajarish;

-bironta dars mavzusiga doir ko'rgazmali material, illyustratsiya, tablitsalar, narsalar modelini tayyorlash;

-bironta dars mavzusiga doir xotiradan sinf doskasida ishlashni mashq qilish;

-tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir trening.

Maktabda tasviriy san'atdan dars mavzularini taqvimiy rejalashtirish har bir sinf va bir yil uchun mo'ljallab tuziladi, u matnli yoki matn va illyustratsiya tarzda bo'lishi mumkin. Taqvimli rejalashtirishni ishlab chiqishdan maqsad har bir sinfda o'tiladigan mavzular haqidagi nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash va o'quv materiallarni yil davomida to'g'ri va ma'lum ketma-ketlikda taqsimlashni maqsadga muvofiq tashkil etish hisoblanadi.

Mazkur rejalashtirishni choraklar bo'yicha tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

Illyustrativ rejalashtirish uchun yarim formatdagi vatman qog'oz olib, uni o'ttiz to'rt katakka bo'linadi va har bir katakka dars raqami, mavzusi hamda shu mavzuga aloqador illyustratsiyalar ishlanadi. Bu amaliy ishni bajarish uchun avvalo talaba maktab tasviriy san'at davlat standarti va dasturini o'rganib chiqadi.

Mazkur rejalashtirish o'z mazmuniga ko'ra biroz murakkabligi uchun kataklarga mos o'lchovdagi qog'ozlarga o'ttiz to'rt darsga mo'ljallangan mavzular qo'lda yozib chiqiladi. So'ngra bu mavzularni oddiy yoki murakkabligiga qarab kataklarga qo'yib chiqiladi. Bunda albatta mavzularni bir-biri bilan bog'liqligi, ketma-ketligi, oddiy va murakkabligi e'tiborga olinadi. Shuningdek, mavzularni belgilashda

keyingi mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar, avvalgi darsda olingan bilim va malakalarga tayanilishini nazarda tutish kerak. Xullas, mavzularni rejalashtirishda bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalar yuzasidan tizim bo'lishi lozim.

Illyustrativ rejalashtirishdagi rasmlar oq-qora shuningdek, rangli bo'lishi ham mumkin.

Dars konspektini tayyorlash. Mazkur topshiriq umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchi tomonidan har bir dars uchun zarur bo'lgan dars ishlanmasini tayyorlash yuzasidan amaliy malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Bu ish yana shuning uchun ham zarurki, o'qituvchi maktabda o'tishi kerak bo'lgan har bir darsni avvaldan to'liq tasavvur etishi mashg'ulotni samarali va yuksak talablar darajasida o'tkazish imkonini beradi.

Dars konspekti ikki asosiy qismdan tashkil topadi:

1. Darsning tuzilishi.

2. Darsni tashkil etish metodikasi. (Mashg'ulot ishlanmasi).

Darsning tuzilish qismi quyidagicha qismlardan tashkil topadi.

1. Dars mavzusi. Unga ajratilgan soat hajmi.

2.Tashkiliy qism. Bu qismda bolalarning darsdagi davomati, sinfni darsga tayyor yoki tayyor emasligini tekshirish. 2-3 daqiqa.

3.Uy topshiriqlarini tekshirish, avvalgi darsda o'tilgan materiallarni qaytarish. 5-6 daqiqa.

4.Yangi dars mavzusini e'lon qilish va uni tushuntirish. 10-15 daqiqa.

5.O'quvchilarning mustaqil ishlari. 20-25 daqiqa.

6.O'tilganlarni mustahkamlash. 4-5 daqiqa.

7.Uyga vazifa berish va uni tushuntirish. 2-3 daqiqa.

Mashg'ulot ishlanmasi esa quyidagicha tuzilishga ega bo'ladi.

1.Dars mavzusi.

2.Darsning vazifalari (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalar).

3. Darsning jihozlanishi.

a) O'qituvchi uchun.

b) O'quvchilar uchun.

4.Darsni o'tkazish metodlari (Suhbat, namoyish etish, ijodiy amaliy ish, trening, munozara, referat yozish v.b.)

5.Darsning mazmuni. Bu qismda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga mavzu yuzasidan topshiriq tushuntiriladi. Tushuntirish jarayonida o'qituvchi tomonidan aytiladigan fikrlar, namoyish etiladigan ko'rgazmalar ularni qaysi yo'llar bilan qachon bildirilishi va namoyish etilishi bayon etiladi.

Bu qismda bolalarni darsga jalb etish maqsadida ularga beriladigan savollar ham aks etgan bo'ladi. Shu bilan birga unda o'quvchilarga ko'rgazmali qurollar, ularni ishlash bosqichlariga doir illyustrativ materiallar ham beriladi.

6.O'tilganlarni mustahkamlash. Bu qismda bolalar tomonidan bilim, malaka va ko'nikmalarni qanchalik o'zlashtirilganligi aniqlanadi hamda ular qaytarilib mustaqkamlanadi. Agarda o'quvchilar tasviriy va amaliy ishlarni bajargan bo'lsalar, ularning ishlari butun sinf ishtirokida tahlil qilinadi. Ularning yutuq va kamchiliklari ko'rsatiladi.

7.Uy vazifalari. Bu bo'limda uy topshiriqlari e'lon qilinadi va uning mazmuni tushuntiriladi.

Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san'at darslari o'z mazmuniga ko'ra ham nazariy, ham amaliy tarzda o'tkaziladi va ular o'qitish metodlari jihatidan bir-birlaridan farq qiladi. Shuni hisobga olib mashg'ulot ishlanmalarining dars mazmuni qismida bu farq e'tiborga olinishi lozim. Ya'ni, nazariy mashg'ulotlar ko'proq suhbat, namoyish, savol-javob tarzda o'tkazilsa, amaliy ishlar tasviriy, ijodiy yo'nalishda bo'ladi. Amaliy xarakterdagi mashg'ulotlar suhbat, savol-javob, namoyish etish kabi metodlardan foydalanishni inkor etmaydi.

Nazorat savollari:

1. Kelajakda tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashning qanday maqsadlari mavjud?

2. Bo’lajak o'qituvchi didaktik va tarbiyaviy vazifalarni sanab o’ting?

3. O'qituvchi rahbarligidagi amaliy ishlar qanday yo'nalishlarda bajariladi?

4. Dars konspekti nechta asosiy qismdan iborat?

5. Darsning tuzilish qismi qanday tashkil qilinadi?.

6. Darsni o'tkazish metodlarini sanab o’ting?

5.2 Talabalarning mustaqil amaliy ishlari.

Reja:

1. Mustaqil amaliy qobiliyatlarni rivojlantirish ta'limning eng muhim vazifasidir.

2. Tasviriy san'atni o’qitish metodikasi darslarida talabalarning mustaqil amaliy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ta'lim usullaridan foydalanish.

Tayanch iboralar: Taraqqiyot, tashabbuskorlik, nostandart yechimlar, vizual idrok, cheklovlar tizimi, dialoglik usuli, dars konspekti.

Jamiyatning bugungi rivojlanish taraqqiyoti maktabga bir qator talablar qo'yadi, ulardan biri bitiruvchilarning ijodiy faolligini shakllantirishdir. Zamonaviy umumta'lim maktabi tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash qobiliyati va nostandart yechimlarni topish, hayot davomida o'z-o'zini tarbiyalashga tayyor bo'lish kabi muhim fazilatlarga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishga yordam berishi kerak., Shu munosabat bilan, talabalarning mustaqil amaliy ishlashi va ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun eng qulay shart — sharoitlarni yaratish vazifasi mavjud. Bu jihatdan badiiy va estetik yo'nalishdagi narsalar muhim o'rin tutadi.

Tasavvurni rivojlantirish orqali biz talabaga nafaqat atrofdagi dunyoni bilish uchun emas, balki kelajakda jamiyatni rivojlantira oladigan va ayni paytda Vatan oldida turgan vazifalarni hal qiladigan shaxs sifatida rivojlanish uchun kuchli zamin bo’la olamiz. Mustaqil amaliy qobiliyatlarni rivojlantirish ta'limning eng muhim vazifasidir. Axir, bu jarayon tashabbuskorlikni, qabul qilingan qarorlarning mustaqilligini, erkin ifoda etish odatini, o'ziga ishonchni uyg'otadi. Chunki ta'limning haqiqiy maqsadi nafaqat ma'lum bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga ega bo'lish, balki ijodiy shaxsni rivojlantirish, tarbiyalashdir.

Psixologlar inson psixikasining xususiyatlarini, aqlning asoslarini va barcha ruhiy sohani yoshlik davrida paydo bo'lishini va shakllanishini aniqladilar. Shunday

qilib, tasviriy san'at o'qituvchisi bolaning mustaqil ijod qilish imkoniyatlarini rivojlantirish vazifasini o'z zimmasiga oladi. Mustaqil amaliy ishlashning eng yuqori shakli, yangi g’oyalarni yaratish qobiliyatidir. Mustaqil ijod qilish inson faoliyatining har qanday sohasida talab qilinadi: ilmiy, badiiy, ishlab chiqarish va texnik, iqtisodiy va boshqalar.

Talabalarda mustaqil amaliy ishlash faoliyati deyarli hech qachon o'qituvchining yordamisiz va ishtirokisiz paydo bo'lmaydi, uning roli talabalar bilan birgalikda o'zlarining ijodiy ishlarining rejalarini yaratishi va amalga oshirishi uchun darsni yaratishdir. Alabalar mustaqil amaliy ishlarini to'g'ri boshqarish uchun biz pedagoglar talabalarning tasviriy faoliyatining xususiyatlarini bilishinmiz kerak. Bu bilim talabalarning qalbiga kalit topishga yordam beradi, u bilan aloqa o'rnatadi, badiiy qobiliyatlarini va estetik his-tuyg'ularini rivojlantiradi, o'quvchining haqiqatni qanday bilishini, uning vizual idrokini, tasavvurini, xotirasini va boshqalarni tushunishga yordam beradi.

Talabalarning tasviriy faoliyatga bo'lgan moyilligi ularning badiiy ijodga bo'lgan uyg'ongan qobiliyatlari va unga qiziqishning rivojlanishidan dalolat beradi. Har bir shaxsda ijodkorlikka qiziqish faqat shaxsiy qobiliyatlarni hisobga olgan holda rivojlanishi mumkin. Tasviriy faoliyat bo'yicha amaliy mashg’ulotlar mashg'ulotlar talabalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va har bir talabaga individual yondashuvni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu ularning nafaqat badiiy-ijodiy qobiliyatlarini, balki diqqat-e'tibor, kuzatish, qat'iyat va irodani rivojlantirishga yordam beradi.

Badiiy tasvirning o'ziga xosligi darajasi vahiyning xiralashishi va hayotning idrokining aniqligi, estetik ta'mi va rassomning tasavvurlari bilan belgilanadi. Bu tasviriy san’atno o’qitish metodikasi darslarida o'qituvchi o'z talabasida o'sishi kerak bo'lgan fazilatlar hisoblanadi. Tasviriy san'atni o’qitish metodikasi darslarining asosiy vazifasi maqsadli va tashkiliy ta'lim orqali talabalarning mustaqil amaliy ishlash va badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Mustaqil ijod qilish turli darajalarda namoyon bo'lishi mumkin. Eski bilimlarni, ko'nikmalarni, tajribalarni yangi holatga ko'chirish yoki amaliy ishlashning yangi usullarini topishdan iborat.

Mustaqil amaliy ishlash har doim yangi narsalarni yaratish, o'zi uchun yangi bilimlarni kashf qilish, o'zida yangi imkoniyatlar topish bilan bog'liq. Bu o'z-o'zidan bilish uchun kuchli va samarali rag'bat bo'lib, harakatni amalga oshiradi. Bunday faoliyat ijobiy o'z-o'zini hurmat qilishni kuchaytiradi, da'vo darajasini oshiradi, o'z-o'ziga ishonch va erishilgan yutuqlarda qoniqish hissini uyg'otadi.

Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi darslarida talabalarning mustaqil amaliy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi ta'lim usullaridan foydalanish mumkin:

"Kashfiyotlar" usuli. Ijodiy faoliyat yangi g'oya – kashfiyot yaratadi.

Shaxsiy va jamoaviy qidiruv faoliyati usuli. Qidiruv faoliyati o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi, barcha mumkin bo'lgan to'g'ri echimni topishga yordam beradi.

Cheklovlar tizimida erkinlik usuli. Bir tomondan, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini doimo keng imkoniyatlar palitrasida faollashtirish va boshqa tomondan, cheklovga qat'iy rioya qilishni o'rgatish.

Dialoglik usuli. O'qituvchi va talaba suhbatdoshlardir.

Taqqoslash usuli. Ijodiy fikrlashni faollashtirish usuli. Darslarda bir xil vazifani hal qilish uchun ko'p tomonlama imkoniyatlarni ko'rsatish kerak.

Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi darslariga qiziqishni saqlashning eng samarali vositalaridan biri o'quvchilarning ijodiy ishlari ko'rgazmalari va tanlovlaridir. Ta'limning asosiy vazifalaridan biri ta'labalarning mustaqil ijod qilish va bilim jarayonini shakllantirish, atrofdagi dunyoni bilish vazifasidir. Bu esa, tasviriy san'at mavzusini butun shaxsni rivojlantirish uchun unumdor tuproqning asosi sifatida oldinga surishga imkon beradi.

Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi darslarida mustaqil amaliy ishlash orqali talabalarda zamondoshlarning ideallari, o'tgan davrlarning madaniyati va yangi zamon haqidagi g'oyalar shakllanmoqda. Mustaqil ijod qilish mahoratiga ega bo'lgan talabalar boshlang'ich ijodiy faoliyatga jalb etilmoqda. Ular atrofdagi hodisalarining tasvirlarini to'liq yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tasviriy san’atni o’qitish metodikasi kursidan bajariladigan mustaqil amaliy ishlar, talabalar mazkur fan bo’yicha bilim va malakalarini mustahkamlash bilan bir qatorda kelajakda ularni o’qituvchilik faoliyatlaridagi amaliy ishlari uchun zamin yaratadi. Talabalarning mustaqil amaliy ishlarining quyidagi turlari mavjud:

-umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun yaratilgan tasviriy san’at darsliklarini o’rganish va ularni yozma ravishda tahlil qilish.

-tasviriy san’atni o’qitish metodikasiga doir bironta mavzu yuzasidan referat yozish.

-tasviriy san’atni o’qitish metodikasiga bironta mavzu bo’yicha auditoriyada ko’rgazmali dars o’tish.

Maktabda tasviriy san’atni o’qitish metodikasi kursining muhim qismlaridan biri hisoblangan namunaviy dars o’tish talabalarni o’quvchilar jamoasi orasida o’zlarini to’g’ri boshqarish, o’qituvchi bilan bolalar, o’quvchilar oralarida ro’y beradigan kelishmovchilik va situatsiyalarni bartaraf etish yo’llari bo’yicha ma’lum bilim va malakalar hosil qiladilar. Shu bilan bir qatorda bunday darslar talabalarni maktabdagi faol pedagogik amaliyotlari hamda kelgusidagi o’qituvchilik faoliyatlarida ham qo’l keladi.

Namunaviy dars o’tish uchun talaba belgilangan mavzu asosida tayyorgarlik ko’radi. Bu tayyorgarlik mazkur darslikni amaliy ishlar qismida bayon etilgan bo’lib, u quyidagi qismlardan tashkil topadi:

1.Dars konspektini muxtasad qilib tayyorlash.

2. Dars ishlanmasini qoidasiga ko’ra ishlab chiqish.

3. Ko’rgazmali qurollar tayyorlash.

4. Tayyorlangan materiallar asosida mustaqil ravishda dars o’tishni mashq qilish. Namunaviy dars uchun dars konspekti va dars ishlanmasi talabaning avvallari tayyorlagan konspekti dars ishlanmasi bo’lishi mumkin. Tayyorlangan konspekt, dars ishlanmalari va ko’rgazmali qurollar metodika o’qituvchisiga ko’rsatilib, uning ijobiy fikr olingandan so’ng auditoriyada talabalar oldida namunaviy dars o’tiladi. Bu darsda talabalar o’quvchilar o’rnida faollik ko’rsatishlari maqsadga muvofiqdir. Qirq besh

minutlik darsdan so’ng o’qituvchi va talabalar orasida namunaviy o’tkazilgan dars muhokama etiladi.

Tasviriy san'atni o’qitish metodikasi darslarida talabalarning mustaqil amaliy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish tajribasini istiqbolli deb hisoblayman, chunki u ta'lim jarayonida yuqori sifatli, yuqori samarali ta'lim olish imkonini beradi. Bu esa har bir talabaga o'z maqsadiga erishishga o'rgatadi, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini faollashtiradi va dars samaradorligini oshiradi.

Nazorat savollari:

1. Mustaqil amaliy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ta'limning qanday vazifalari mavjud?.

2. Tasviriy san'atni o’qitish metodikasi darslarida talabalarning mustaqil amaliy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qanday ta'lim usullaridan foydalanish mumkin?

3. “Taqqoslash usuli” qanday ta’lim usuli hisoblanadi?

4. Talabalarning mustaqil amaliy ishlarining qanday turlari mavjud?

5. Namunaviy dars o’tish qanday qismlardan tashkil topgan?

6. Siz mustaqil amaliy ishlash qobiliyatingizni qanday usullar orqali o’quvchilarga yetkaza olasiz?

IZOHLI LUG'AT

A

Abris-chegara chiziq suvratdagi tasvir, rang va tuslarni chegarasini belgilaydi.

Abstraktsionizm-lotin tilidan olingan bo'lib, "mavxum" degan ma'noni anglatadi. Bu oqim XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropada paydo bo'lgan. San'atdagi mazkur yo'nalish namoyyandalari narsa va xodisalarni real tasvirlashdan voz kechganlar. Ularning asarlarida borliq emas ijodkorning xis-tuyg'ulari shakl va ranglar o'yini aks etgan.

Abstraktsionizm oqimidagi asarlarda ma'no va mazmun ayrim dog', xajm, chiziq, ranglarning tartibsiz, xaakati qonuni va qoidalarsiz tasvirlanadi.

Avtolitografiya-yunoncha "toshga chizaman" degan ma'noni anglatadi. Unda rassom o'z asarini tosh ustiga ishlab so'ngra undan qog'ozga tasvir oladi.

Avangardizm-Avangard so'zi frantsuz tilidan olingan bo'lib, "oldindagi qo'riqchi" ma'nosini anglatadi. Avangardizm oqimi XX asr boshlarida Frantsiyada paydo bo'lgan. Uning tarafdorlari san'at tubdan yangilashni maqsad qilib olganlar. Avangardizm oqimi vakillari o'sha davrgacha mavjud bo'lgan realizm, romantizm, impressonizm kabi oqimlarini tanqid qilib, san'at asarlariga zamonaviylikni olib kirishga uringanlar. Ulaning g'oyalari XX asr boshlarida mavjud bo'lgan kubizm, formalizm, futurizm, syurealizm, ekspresionizm kabi oqimlarda o'z aksini topgan.

Avtoportret-"Avto" so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, o'zim ma'nosini anglatadi. Avtoportret esa o'zimni portretim demakdir. Ko'pchilik rassomlar oynaga qarab o'zlarini portretlarini ishlashadi. Avtoportretda rassomlar o'zlarining harakterlari, tabiat ikki dunyosini ko'rsatmoqchi bo'ladilar.

Agitplakat-grafikaning bir turib bo'lib, unda turli g'oyalar targ'ibot va tashviqot qilinadi.

Akademizm –tasviriy san'atdagi akademik uslubga asoslangan badiiy yo'nalish. Ba'zida bu bilan yangi badiiy yo'nalishlarni ham atashadi. Ijodkorlardan tashkil topgan tasviiy san'atdagi badiiy yo'nalish.

Akvatinta-metallga chuqur o'yib ishlanadigan gravyuraning bir turi. Bunda rassom metall taxtachaning ayrim joylariga avval asfal't kukuni sepib, keyin uni azot kislotada yuvadi.

Akvarel'-lotin tilidan olingan bo'lib, suv ma'nosini anglatadii. U suvda yaxshi eriydigan va yuviladigan mayin va shaffof bo'yoq. Akvarel' tasviri nihoyatda rangli, nafis va nozik bo'lib, ular ko'pincha qog'oz ustiga ishlanadi.

Allegoriya-yunoncha o'zgacha ifodalash, ma'nosini anglatadi. Bu yo'nalishdagi ijodkorlar mafxum tushuncha va g'oyalarni aniq obrazlilik, badiiylik yordamida simvolik tarzda, muayyan narsa, voqealar orqali ifodalaydilar.

Al'fresko (fresko)-devordagi qurib ulgurmagan nam suvoq ustiga buyoq bilan ishlanadigan tasvir.

Alla prima-xo'llangan qog'oz ustida akvvarel buyoq bilan tezda rasm ishlash usuli.

Animal janr-hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san'at janri.

Animalist-hayvonlarni tasvirlovchi rassom, xaykaltarosh.

Antik san'at-qadimgi degan ma'noni bildiradi. Bunda taraqiy etgan qadimgi Yunon, Rim san'ati nazarda tutilgan.

Applikatsiya-lotincha yopishtirish ma'nosini anglatadi. Mazkur tasvirlash texnikasi tabiiy (barg, tosh, meva-sabzovotlarning urug' va po'choqlari), badiiy (rangli, folьga qog'ozlar v.b.), va tashlandiq (gazmol parchalari, dori-darmondan, xo'jalikda ishlatilib bo'shagan narsalar v.b.) materiallar yordamida tekislik ustida bajariladigan tasvirlash usuli.

Asosiy ranglar-qizil, sariq, zangori ranglar shunday deb ataladi. Bu ranglarni bir-birlari bilan aralashtiib boshqa ko'p ranglar olinadi.

Assimetriya-yunon tilidan olingan bo'lib, "simmetrik emas" degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atda asardagi detallarni, suvratni chap va o'ng yoki yuqori va pastki tomonlaridagi tenglik, o'xshashlik alomatlarining yo'qligi assimetriya hisoblanadi.

Afsonaviy janr-xalq og'zaki ijodi asosida tasviriy san'at namunalarini aks etdiruvchi janr. Bunday janrda yaratilgan tasvirlar afsonaviy odam va mahluqlar (xayvonlar) bo'lib, xaqiqatda ular bo'lmaydi. Masalan dev, ajdar, kentavr, rusalka, pegas, putti grifon, va boshqalar shular jumlasidandir. Afsonaviy janrda yaratilgan ishlarning ko'pchiligi rangtasvir va xaykaltaroshlikda uchraydi.

Axzar-rang nomi, meditsinada ishlatiladigan zelenkaning rangi.

Axromatik ranglar-yunon tilidan olingan bo'lib, rangsiz degan ma'noni anglatadi. Ular oq, qora, kulrang va ularning aralashmasidan hosil bo'lgan tuslardir.

B

Badiiy an’ana-qadimdan inson faoliyatining adabiyot, san’at kabi sohalarida erishilgan va saqlanib qolingan ilg’or yutuqlar va tajribalar.

Barel’ef-frantsuzcha past relьf ma’nosini anglatadi. Xaykaltaroshlikda ishlatiladigan relьf atamasining bir turi. Relьfning bu turida tasvir tekislik yuzasidan uning xaqiqiy o’lchovining yarmidan kam nisbatida bo’rtib chiqan bo’ladi. Masalan tanga, medal v.b. bunga misol bo’la oldi.

Baget-rasm, suvrat kabilarni solishga mo’ljallangan moslama.

Badiiy ko’rgazma-deganda tasviriy, amaliy, me’morchilik san’at asarlari yoki loyxalarni ommaga namoyishi tushuniladi. Ular muzey, galereya, san’at saroylari va markazlarida o’tkaziladi. Ko’rgazma bir yoki bir necha muallifning tasviriy san’at ayrim tur yoki janrlari bo’yicha ham o’tkaziladi. Ular davriy yoki doimiy va ko’chma tarzda o’tkazilishi mumkin. Badiiy ko’rgazma xalqaro, mintaqaviy, milliy turlari ham bor. Badiiy ko’rgazmada ba’zi birgina asar qo’yilishi xollari ham bo’lgan. Masalan, ko’p yillardan buyon Leonardo da Vinchining “Monna Liza Jokonda” nomli asrining bir o’zi ko’chma ko’rgazmada namoyishi etilgan.

Badiiy akademiya-bu nom bilan asosan rassom, haykaltarosh, me’morlar tayyorlanadigan oliy o’quv yurtlari ataladi. Shuningdek bu nom bilan nafaqat san’atga balki ularda rahbarlik qiladigan, tashkiliy ishlarni olib boradigan davlat muassasalari ham yuritiladi. Masalan, O’zbekiston badiiy akademiyasi.

Barikaram-rang nomi, karam bargining rangi.

Batal janri-harbiy mavzuni aks etdiruvchi tasviriy san’at janri. U tarixiy janrning bir turi sifatida qaralishi ham mumkin.

Batalist-harbiylar hayoti va jang lavhalarini tasvirlaydigan rassomlarga qo’yiladigan kasbiy nom.

Binafsha-rang nomi, gunafsha gulining rangi.

Blik-narsa va tasvirlarning eng yorug’ yaltiroq joyi.

Bosh bezak-kitoblarning ichki bezagi, kitob varag’ining eng tepa qismida beriladigan tasvir. Ular rasmli yoki, naqshli bo’lishi mumkin.

Bronza-mis, qalay, alyuminiy, berilliy, qo'rg'oshin kabilar aralashmasidan hosil bo'lgan qotishma. U alyumin, kul rangiga yaqin bo'ladi.

Bucharda-xaykaltaroshning tosh taroshlash ish asbobi.

Bo'yoq-tasviriy san'atda, shuningdek badiy-bezak ishlarida ishlatiladigan qorishma. Uning moy bo'yoq, akvarel, guashь, tempera, emal, emulsiya kabi turlari bor.

B'enale-ikki yilda bir marta bo'ladigan ko'rgazma nomi.

Byust-frantsuzcha so'z bo'lib, qabr ustiga qo'yiladigan xaykal ma'nosini anglatadi. U odamni ko'kragidan yuqori qismini tasvirlaydigan xaykal hisoblanadi.

V

Vernisaj-ko'rgazmaning ochilishi. Dastlab u Frantsiyada ko'rgazmadan oldin rangtasvir asarlari sathiga lok berish degan ma'noni anglatgan.

Vitraj-oyna ustiga bo'yoq bilan ishlangan rangtasvir. Uni ikki tomonlama ko'rish mumkin. Ular ko'pincha uy derazalari yoki eshik oynalariga, shuningdek ma'muriy, o'quv yurtlari binolariga ishlanadi. Ular rasmli yoki naqshli bo'ladi.

G

Galereya-tasviriy va amaliy san'at asarlari saqlanadigan va ko'rgazmalar o'tkaziladigan maxsus bino.

Gamma-o'zaro uyg'un ranglar yig'indisi bo'lib, unda bironta rang yetakchilik qiladi. Masalan, iliq rang gammasi, sovuq rang gammasi, yorqin rang gammasi shular jumlasidandir.

Gliptika-qimmatbaho toshga o'yib tushirilgan tasvir, ba'zida zeb-ziynat va muhr o'rnida ham ishlatiladi.

Gorelьf-frantsuzcha so'z bo'lib, yuqori relьf ma'nosini anglatadi. Xaykaltaroshlikda ishlatiladigan relьf atamasining bir turi. Relьfning bu turida tasvir tekislik yuzasidan uning xaqiqiy o'lchovining yarmida ko'p nisbatida ko'rinishda bo'rtib chiqan bo'ladi.

Gravyura-frantsuzcha o'yish ma'nosini bildiradi. Gravyura metall, yog'och, linoleum, tosh kabi materiallarni maxsus asboblar bilan o'yish orqali hosil qilinadigan va ulardan qog'ozga ko'chiriladigan tasvir turidir.

Gravyor-metal, tosh, yog'ochga o'yib tasvir ishlaydigan usta, rassom.

Grifon-qadimgi Sharq san'atida uchraydigan tanasi arslon, kallasi va qanoti burgutsimon afsonaviy mahluq tasviri.

Grizayl'-tasvir usuli bo'lib, birgina bo'yoq bilan ishlangan tasvir. Bunda ko'pincha qizig'ish, qora, jigarrang, zangori ranglar qo'llaniladi.

Grunt-tasvir ishlanadigan zamin. U karton, bo'z, devor bo'lishi mumkin. Unga tegishli qorishma surtilgan bo'ladi.

Guash'-Italyanlar tilidan olingan bo'lib, suvli bo'yoq ma'nosini anglatadi. U suvda yaxshi eriydi. Guashь bo'yog'i akvareldan uni qog'oz yuzasiga barnecha qavat qilib turlicha qalinlikda berilishi bilan farqlanadi.

Gulgun-rang nomi, kechki shafaq paytida ro'y beradigan ko'rinish rangi.

D

Dastgohli rangtasvir-rangtasvirning dastgox (molьbert)ga o'rnatib ishlanadigan turi. Rangtasvirning bu turida tasvirlanayotgan odam, xayvon v.b. larning o'lchovlari o'zini xaqiqiy o'lchovidan katta bo'lmasligi lozim.

Devoriy rantasvir-(freska, alfresko)-uy shifti, devorga berilgan suvoq qurib ulgurmasdan uning ustiga ishlangan tasvir. Ular ba'zan shift, devor ustiga qoplangan mato, qog'oz ustiga ham ishlanadi.

Dekoratsiya-teatr sahnasini spektakl mazmuni bilan bog'liq holda tasvirlanadigan bezak ko'rinish. Ular rangtasvir va butafor shaklida bo'ladi.

Diptix-qo'sh tasvir. Ko'pincha ular bir mavzu va bir mazmunda bo'lib yonma-yon namoyish etiladi.

Yo

Yodgorlik xaykal-mashhur va tarixiy shaxslarga bag'ishlab ishlangan xaykal. U mahobatli, relьfli yoki dastgoxli-yumaloq bo'lishi mumkin.

Yorug'soya-Tasviriy san'at nazariyasiga doir atama. Uni yorug'soya qonuni deb ham ataladi. U tasvirlanayotgan narsalarning yoki tirik mavjudotni qalamtasviri va rangtasvirini hajmli qilib ishlanishiga qo'llaniladi.

Yorug' (shul'a)-tasviriy san'atning nazariy asoslariga oid atama bo'lib, uning yorug'soya qonuniga tegishlidir. Ma'lumki, har qanday narsa va mavjudotlar xajimlidirlar. Rasmda uni xajmli ekanligini yorug'lantirmasdan, turib ko'rsatib bo'lmaydi. Bunda narsaning yorug'lik man'baiga qaragan qismi yorug', teskari tomoni soya bo'ladi. Ularning o'rtasidagi qismi yarim soya deyiladi. Yorug' atamasi shundan kelib chiqan.

J

Janr-hayot lavhalarini, ko'rinishlarini uning mazmuniga ko'ra tasvirlovchi badiiy asar turidir. Masalan, manzara, natyurmort, turmush, portret, nyu v.b. tasviriy san'at janrlari hisoblanadi.

Jangnoma-(batal) harbiy mavzudagi tasviriy san'at asarlarining janri.

Jaydarirang-lokal rang. Tasvirlanayotgan narsa, buyumning asosiy rangi yoki bir rang bilan atalishi. Masalan; barg-yashil, osmon zangori.

Jigarrang-rang nomi, hayvonlarning jigari rangiga o'xshash rang. Ba'zilar uni "qo'ng'ir" deb ham atashadi.

Z

Zarhal-rang, nomi, tillasimon rang.

Zarg'aldoq- rang nomi apaelьsin, mandarin yoki qovoqning ichki rangiga o'xshash rang.

Zangori-rang nomi, to'q osmon rangi.

Zafaron-rang nomi, to’q sariq rang.

Zirxal harf-kitoblarning bob va fasllarining matn qismidagi bezakli va yirik qilib ishlanadigan birinchi harfi.

Zumrad-rang nomi, yashil yaltiroq tosh rangiga yaqin rang.

I

Illyustratsiya-lotincha ko’rgazmali tasvirlash, yoritish ma’nosini anglatadi. Ular oq-qora yoki rangli rasm, suvrat, sxema, jadval, diogramma shaklida bo’lib, kitob, jurnal, gazetalarning mazmunini oson va tez idrok etishga yordam beradi.

Iliq ranglar-kishilarda iliqlik (issiqlik) xislarini uyg’otuvchi ranglar. Ular qizil, sariq, zarg’aldoq, malla, novvoti, qirmizi, pushti, shingab, sabza, sadaf, lolaro’y, gulgun, noranvash, somoniy, barikaram kabi ranglardir.

Impressionizm-franzuzcha taassurot ma’nosini anglatadi va u XIX asr oxiri XX asr boshlarida Frantsiyada shakllangan. Bu oqimdagi san’at asarlarida rassomlar hayotdagi murakkab jarayonlarni tez, oson idrok etadigan qilib, tasvirlashga harakat qildilar. Hayotdagi real borliqni harakatda va o’zgaruvchanlikda, hayotdagi eng harakterli daqiqalarni real, haqiqatda qanday bo’lsa shunday tasvirlaganlar. Ularning asarlariga suvrat detallarining muvozanatda bo’lmasligi, kompozitsiyani birnecha bo’laklarga bo’linishi xos.

Interьer-tasviriy san’at va me’morchilik, amaliy san’atda binoning ichki qismi ko’rinishini bildiradi.

K

Karikatura-italiyancha so’z bo’lib, bo’rtirib tasvirlash ma’nosini anglatadi. Bunday xajviy rasmlarda ijtimoiy, siyosiy, maishiy mavzudagi mazmunlar aks etadi. Karikatura mavzusidagi rasmlarda ayrim voqea va shaxslar tanqid qilinadi, kishilar ustidan kulinadi. Ayrim xollarda unda ba’zi kishilar do’stona-xajviy tarzda ifodalanishi ham mumkin. Karikatura jamiyatda ro’y berayotgan xo’jasizlik,

isrofgarchilik, poraxo'rlik, laganbardorlik, ichkilikbozlik kabi salbiy illatlarga qarshi kurashda katta rol o'ynaydi.

Katalog-badiiy asarlar, shu qatori tasviriy san'at asarlarining mualliflari va ularning nomlari, yaratilgan yili kabilar yozilgan ro'yxat.

Kentavr-qadimgi Yunoniston xaykaltaroshligida uchraydigan tanasi ot boshi odam tasviri.

Kontrast-frantsuzcha keskin ziddiyat ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda och va to'q, oq va qora, iliq va sovuq ranglarni yonma-yon turishi kontrastlikni keltirib chiqaradi.

Kompozitsiya-badiiy asarlarda (adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, amaliy san'at v.b.) qo'llaniladigan atama bo'lib, u tuzish, qurish ma'nosini anglatadi. Badiiy obrazlar va vositalarning asarda o'z o'rnida shakl, rang, mazmun jihatdan qurilishi uning kompozitsiyasini anglatadi va u badiiy obrazlarni ifodaliligini oshirishga xizmat qiladi.

Kompozitsiya qonunlari-tasviriy san'atda yaratiladigan badiiy asarlarning g'oyasi, mazmuni hamda badiiyligini tartibga soluvchi nazariy tushunchalar. Asarning muvaffaqiyati ko'pincha uning kompozitsiya qonunlariga rioya qilishga bog'liq bo'ladi. Kompozitsiyaning bir butunlik, suvrat detallarini asar g'oyasiga, bo'ysnishi muvozanat, suvratda yangilikni bo'lishligi, kontrastlar, hayotiylik qonunlari bor.

Kompozitsiya qoidalari-deganda ijodkorning kompozitsiya ishlash jarayonida rioya qilishi kerak bo'lgan tamoyilar tushuniladi. Uning ritm, kompozitsion markaz, simmetriya harakat, turg'unlik, planlik, pralellik turlari bor. Kompozitsiya qoidalari asarlarni ifodalilik vositalari ma'nosini ham anglatadi.

Kompozitsiya uslublari-ijokorning asr g'oyasini uning badiiyligini, savodxonligini ko'tarishga qaratilgan chora-tadbir va yo'l-yo'riqlar majmuasi. Uning monumentlik (mahobatli), fazoviylik, gorizontallar, variantlar, diogonallar kabi turlari bor.

Kompozitsiya vositalari-asrni yaratishda qo'llaniladigan asosiy tasvirlash texnikasi, ular qatoriga chiziqlar, ranglar, oq, qora dog'lar, kolorit kabilar kiradi.

Kolorit (gamma)-lotin tilidan olingan bo'lib, rang (buyoq) ma'nosini anglatadi. Kolorit asosan rangtasvirda qisman grafikada real borliq va voqelikni ifodali

tasvirlashda ranglarni o’zaro uyg’un va mutanosibligida nixoyatda ahamiyatlidir. Kolorit ranglar mutanosibligiga ko’ra iliq yoki sovuq, yorqin yoki to’q, muloyim yoki jiddiy bo’lishi mumkin. Koloritda u yoki bu ranglar guruxi yoki yagona bir rang yetakchilik qiladi.

Konstruktivizm-lotin tilidan olingan bo’lib, qurish (yasash) ma’nosini anglatadi va u XX asrning birinchi choragida san’at va adabiyotda vujudga kelgan.

Bu oqimdagi rassomlarning ijodi tasviriy va amaliy san’atda idish tovoqlar, uy jixozlari, kiyim-kechak, gazlama kabilarni yangi nusxalarini ishlab chiqish bilan bog’liq. U kitob grafikasi, teatr bezaklarida ham o’z ifodasini topgan. Natijada an’anaviy teatr bezaklarining o’rnini harakatli jixozlar egallagan.

Bu oqim XX asr oxirlarida paydo bo’lgan mum (vosk) xaykallarni paydo bo’lishligiga ham olib keldi. Konstruktivizm oxir oqibat dizayn san’atini keltirib chiqardi.

Ksilografiya-frantsuzcha yog’ochga o’yilgan degan ma’noni anglatadi. U grafika (gravyura) ning bir turi sifatida tasvir yog’ochda hosil qilinib, so’ngra undan tasvir qog’ozga ko’chiriladi. Bu tasviriy texnologiyada grafik asar ko’p nusxada tayyorlanishi mumkin.

Kulrang-rang nomi, yoqilgan o’tindan qolgan kulning rangiga yaqin bo’lgan rang nomi.

Kubizm-kub so’zidan olingan bo’lib, XX asrning birinchi choragida Frantsiyada paydo bo’lgan. Bu yo’nalishdagi rassomlar realistik san’at an’analarini inkor etgan holda o’z asarlarida har qanday mavjudot va narsalar-kub, shar, silindir, konus piramidalar va ularning o’zaro qo’shilmasidan hosil bo’lgan shakllar yordamida tasvirlaydilar.

Kumushrang-rang nomi, kumish rangiga yaqin bo’lgan rang.

Kesishuv nuqta-ma’lumki, bir xil o’lchovdagi premetlar kishi ko’zidan uzoqlashgan sari kichrayib ko’rinadi. Bora-bora ular nuqtaga aylanib qolgandek tuyuladilar. Bu xodisa ufq chizig’iga borganida ro’y beradi. Yoki uzoqlarga qarab yo’nalgan ikki paralel chiziq borgan sari bir-birlariga yaqinlashib chiziqlar oralig’i kamayib borayotgandek tuyuladi. Oxir oqibatda bu ikki chiziq bir-birlari bilan

kesishgandek tuyuladi va u ufq chizig'i ustida ro'y beradi. Uni kesishuv nuqtasi deyiladi. Masalan, temir yo'l, tramvay izini kuzatish orqali bunga ishonch hosil qilish mumkin. Buning uchun temir yo'l yoki tramvay izlarining o'rtasida turib temir izlarini uzoqlashuvi kuzatiladi. Ma'lum bo'ladiki temir izlar borgan sari bir-birlariga yaqinlashib boraveradilar va oxirida bu ikki paralel izlar ufq chizig'iga borganda uning ustida kesishib bir nuqtaga aylanib qoladilar.

Klassitsizm-lotin tilidan olingan bo'lib, namunaviy degan ma'noni anglatadi va u XUIII-oxiri XIX asr boshlarida Frantsiyada shakllangan. U qadimgi Yunoniston va Rim san'ati an'analariga asoslangan va unga taxlid qilib yuzaga kelgan san'at va adabiyotdagi yo'nalish. Bu oqim tarafdorlari Antik davrning afsona va rivoyatlari, tovrot voqealaiga murojaat qilib ulardan olingan mazmun orqali o'z zamondoshlarining axloqiy va siyosiy muammolarini san'at va adabiyot vositasida ko'tarishga harakat qilganlar.

Ularning asarlarida mazmunni mantiqiy rivojlanib borishi, kompozitsiyada muvozaat, aniq tasvilash, xajmni aniq andoza asosida ifodalash, chiziqlarni umumlashgan holda rovon bo'lishi talab etilardi. Ranglar esa asar g'oyasini ifodalashda yordamchi vazifani bajarishi lozim deb hisoblangan.

L

Lavkas-rangtasvir ishlash uchun tayyorlangan qorishma. U mato, karton kabi materiallarni ustki qismini maxsus suyuq qorishma bilan yopib chiqish orqali tayyorlanadi.

Lessirovka-rangtasvirga xos bo'lib, tayyor ishni ustini pardozlash, sayqallashtirish ma'nosini anglatadi. Bunda qurigan tasvir ustidan yorqin yoki yoqimli bo'yoq beriladi.

Linogravyura-gravyuraning bir turi bo'lib, unda tasvir linoleum parchasi ustida hosil qilinadi. So'ngra undan qog'ozga rasm ko'chiriladi. Bu tasvir texnologiyasida grafik asar ko'p nusxada tayyorlanishi mumkin.

Lolaro'y-rang nomi, lola gulining rangiga o'xshash rang.

Lojuvard-rang nomi, eng to'q zangori rang.

M

Manzara-tasviriy san’atning janrlaridan biri. Unda tabiat, shuningdek shahar ko’rinshlari tasvirlanadi.

Maishiy (turmush) janr–deb kishilarning kundalik hayoti, turmushi, mehnatini aks etdiruvchi tasviriy san’at janriga aytiladi.

Manera–tasviriy san’atda rassom yoki xaykaltaroshning ish uslubi.

Mallarang-rang nomi, limon mevasining rangiga o’xshash rang.

Marina janri-deb dengiz, daryo ko’rinishlarini va u yerdagi voqea va xodisalarni tasvirlovchi asarlarga aytiladi.

Mastexin–yunoncha so’z bo’lib, undan ko’pincha rang tasvirchi rassomlar foydalanadilar. U andava o’xshash shaklda yasaladi va suvratda noto’g’ri qo’yilgan, politradagi keraksiz moybo’yoqlarni sidirib tashlashda ishlatiladi.

Mahobatli rangtasvir–tasvirlanuvchilarning xaqiqiy o’lchovidan katta qilib ishlangan suvrat. Ular ko’proq devoriy rangtasvirda ko’p qo’llanadi.

Mahobatli haykal–tasvirlanuvchi odam yoki xayvonlarni o’z o’lchovlaridan katta qilib ishlangan xaykali.

Malьbert-rassomning suvrat yaratishda ishlatadigan ishasbobi. (dastgoh).

Metsenat–san’at homiysi.

Moybo’yoq-rangtasvirda ishlatiladigan asosiy material (buyoq) bo’lib, u maxsus qorishma moy yordamida eritib ishlatiladi.

Modernizm–“Modern” so’zi eng zo’r zamonaviy degan ma’nosini anglatadi va u XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmi oralig’ida Yevropa hamda AqSh san’ati va adabiyotida shakllangan. U akademizm, klassitsizm, realizmni inkor etuvchi oqim. Bu oqim vakillari mumtoz san’atning badiiy an’analaridan voz kechish, asarlarda rassomlar o’zlarining shaxsiy kechinma va taasurotlarini ustun qo’yish lozimligini asoslashga harakat qildilar. Ularning ijodida real obrazlar shaklini o’zgartirish, xattoki yo’qotish, ularni o’rnini turli shakl va ranglar bilan almashtirishdek ko’rinishlar o’z aksini topgan.

Moviy-rang nomi, erta tongdagi sof osmon rangi.

Mozaika-rangtasvirning bir turi bo'lib, qattiq materiallar hisoblangan koshin, rangli shisha, marmar, tosh, yog'och, metall parchalarini tekis yuzaga maxsus qorishmalar yordamida yopishtirib yaratiladigan tasvirlash texnikasi. Bunday asarlar ko'pincha devorga, shiftga, uy poliga ishlanadi.

Mosh rang-rang nomi, mosh rangiga yaqin bo'lgan rang.

Mo'yqalam-qilqalam, rassomlar ishlatadigan tasvir quroli. ularning jundan yoki sintetik materiallardan tayyorlanadi.

Mum xaykal-asalari mumidan rangli qilib tasvirlanadigan xaykal. Ko'pincha mashhur shaxslar xaykali shu yo'sinda ishlanadi. Mum xaykallarda xaqiqiy liboslar va turli ish qurollari ham qo'llaniladi.

Mo''jaz rangtasvir-tasvirlanuvchilarni kichik o'lchovda ishlangan suvrati. Ular ko'proq kitob bezagida ishlatiladi. Shuningdek ular mustaqil san'at asari sifatida, turli quticha va guldonlar ustiga ishlanishi ham mumkin.

Musavvir-arabcha rassom degan ma'noni bildiradi.

N

Natura–tasvirlash uchun mo'ljallangan odam, xayvon, manzara, predmet va boshqalar hisoblanadi.

Naturshchik–natura vazifasini o'tayotgan odam.

Natyurmort janri-tasviriy san'atning janrlaridan biri bo'lib frantsuzcha jonsiz tabiat degan ma'noni anglatadi. Mazkur janrda gullar, meva va sabzavotlar, uy-ro'zg'or buyumlari, san'at va sport atributlari aks etdiriladi.

Nilgun-rang nomi, och jigar rang.

Noranjvash-rang nomi, apelьsin rangiga yaqin rang.

Novvoti–rang nomi, novvot rangiga o'xshash rang.

Novshadil-rang nomi, o'tkir yorqin yashil rang.

Nofarmon-rang nomi, och binafsha rang.

Nyuans-frantsuzcha so'z bo'lib, narsa va xodisalardagi, tasvirdagi nozik, yaxshi ilxab bo'lmaydigan farq ma'nosini anglatadi.

NYu-tasviriy san’at janrlaridan bari bo’lib, unda kishilar, ko’pincha ayollar yalang’och tarzda tasvirlanadi.

O

Oq-rang nomi, paxta rangi.

Orginal–asli, asl nusha, asl ko’rinish ma’nosini anglatadi.

Ofort–frantsuzcha kislota ma’nosini anglatadi, gravyuraning bir turi hisoblanib. Unda tasvir avval kislota yordamida metalda (mis, qo’rg’oshin) hosil qilinib, so’ngra undagi tasvir qog’ozga ko’chiriladi.

Ottisk-rus tilidan olingan bo’lib, bironta tasvir yoki matnni bosmaxona sharoitida ko’p nusxada, odatda qog’oz yoki boshqa materialga ko’chirilishi ma’nosini bildiradi.

Oldinga intiluvchi ranglar-ranglar davrasida kuzatuvchi e’tiborini tez o’ziga tortuvchi ranglardir. Ular asosan iliq ranglar qizil, sariq, zarg’aldoq, pushti, va boshqa shu kabilar hisobanadi.

Orqaga intiluvchi ranglar-ranglar davrasida kuzatuvchi e’tiboridan o’zini olib qochishga harakat qiladigan ranglardir. Ular asosan sovuq ranglar-zangori, xavorang, yashil, binafsha kabi ranglardir hisoblanadi.

P

Politra–Frantsuzcha yupqa plastinka degan ma’noni anglatadi. Ular yog’ochdan ishlanadi. Politralar metall, plastmasa, chinni kabi materiallardan ham ishlanishi mumkin. Palitralar buyoqlarni aralashtirish uchun tayyorlangan bo’lib, rangtasvirchi rassomning ish quroli hisoblanadi. Akvarel bo’yoqlarni aralashtirish uchun bir parcha qog’oz ham palitra vazifasini o’tashi mumkin.

Panno–lotin tilidan olingan bo’lib, mato parchasi ma’nosini anglatadi. Pannolar ko’pincha moybo’yoq bilan mato ustiga ishlanadi.

Ular maxsus joyga o’rnatish uchun mo’ljallangan bo’lib, rangtasvir, relьfli va naqshli hoshiya bilan chegaralangan bo’ladi.

Panorama–yunon tilidan olingan bo'lib, ko'rinish ma'nosini anlatadi. Panoramada suvratlar aylana, yarim aylana shaklidagi uzun devorga ishlanadi. Shuningdek, unda ro'y berayotgan voqea haqida to'liq tasavvur hosil qilish maqsadida suvrat oldiga butafor tasvirlar, uy maketlari, odam, hayvon, tabiat shakllari joylashtiriladi. Panoramalarni tomoshabinlar zaldagi maxsus ajratilgan joydan turib kuzatadilar.

Panьe-mishe-frantsuz tilidan olingan bo'lib, ezilgan qog'oz ma'nosini anlatadi. Bu uslubda tasvir qog'oz, karton kabi materiallar sirtida yelimli moddalar, kraxmal, gips kabilarni aralashtirish orqali hosil qilinadi. Bunday tasvirlardan o'yinchoqlar, uy-ro'zg'or buyumlari, ta'lim jarayonida didaktik materiallarni tayyorlashda foydalaniladi.

Pastelь–italiyanlar tilidan olingan bo'lib, hamir ma'nosini anglatadi. Rassomlar qoralama va grafik ishlarda keng foydalanadilar. Pastellar rangli ingichka bo'r shaklida bo'lib, ularni qog'ozga yopishqoqlik xususiyatlari kuchli bo'ladi.

Perspektiva–lotin tilidan olingan bo'lib, ravshan ko'raman degan ma'noni anlatadi. Borliqdagi barcha narsalar ma'lum masofadan turib kuzatilganda ular kuzatuchiga o'lchovlari, hajmi, rangi o'zgargandek bo'lib tuyuladi. Bu xodisani perspektiva deb yuritiladi. Tasviriy san'atni nazariy asoslaridan hisoblangan perspektiva maxsus fan darajasiga ko'tarilgan bo'lib, uning chiziqli, havo (rang) va relьf (hajm perspektivasi) turlari bor.

Primitivizim-primitiv so'zi sodda, oddiy ma'noni anglatadi va u XIX asr oxiri XX asr Yevropa va AqSh san'atida paydo bo'lgan. Mazkur oqim vakillari o'z asarlarini, san'atda ataylab ibtidoiy, o'rta asrlar, halq san'ati, bolalar ijodiga yaqinlashtirib rasm ishlaganlar. Bu oqimning maqsadi o'sha davrda paydo bo'lgan fovizm, kubizm, futurizm kabi turli yo'nalishlarning tasviriy uslublaridan voz kechish hisoblangan.

Bu oqimda ko'proq maxsus badiiy ta'lim olmagan xavaskor va ularga ergashgan rassomlar ijod qilishgan.

Plakat–frantsuz tilidan olingan bo'lib, e'lon ma'nosini anlatadi. U tasviriy san'atning grafika turiga kiradi. Plakatlar kishilarni hayotidagi eng muhim bo'lgan muammolarni yechimiga qaratiladi, ular tashviqot va targ'ibot qilinadi. Masalan,

tinchlik, ekologiya spid kabilar muhim muammolardir. Plakatlar ko'pincha katta o'lchovda va rangli qilib tasvirlanadi.

Plastilin-xaykaltaroshlikda ishlatiladigan maxsus qorishma. U mum, loy kabi modalardan tashkil topgan bo'lib, hamirsimon yumshoqlikda bo'ladi. Undan xaykaltaroshlar xaykallarni maketini tayyorlashda foydalanadilar.

Plastika-yunon tilidan olingan bo'lib, muloyim, go'zal ma'nosini aglatadigan xakaltaroshlikka doir atama. Unda obrazlar bo'rtirilgan holda ifodali qilib, uyg'unlik qonunlari asosida yaratilgan bo'ladi.

Plastik anatomiya-odam va xayvonlarning a'zolarini o'rgatadigan fan. U odam va xayvonlarning tana tuzilishi, mushaklarining shakli, o'lchovlari hamda ularning o'zaro bog'liqligini o'rgatadi. Plastik anatomiyani bilish meditsina xodimlari, portretini rassom va xaykaltaroshlar uchun nixoyatda muhim.

Plener-frantsuz tilidan olingan bo'lib, ochiq joy, keng ko'rinish ma'nosini anglatadi. Ko'pincha rassomlar o'z asarlari uchun etyud, qoralama, ranglamalarni plenerda bajaradilar. Ochiq havoda etyud, qoralama ranglamalar ishlashdan maqsad kunduzgi tabiat va boshqa ob'ektlarning ranglari haqida aniq tasavvur etishdan iborat.

Podramnik–rus tilidan olingan bo'lib, suvrat ishlash uchun mo'ljallangan matoni tarang tortib turishga xizmat qiluvchi qurilma. Ular to'rtta yog'ochni bir-biriga mahkamlanishi orqali to'rtburchak yoki kvadrat shaklida tayyorlanadi.

Portret –frantsuz tilidan olingan bo'lib, tasvir, aniqrog'i odam tasviri ma'nosini anglatadi. U tasviriy san'atning bir janri hisoblanadi. Portretda bir yoki bir necha shaxs tasviri ishlanishi mumkin. Ularda odamlarning boshi yoki beligacha bo'lgan yoki to'liq qomati tasvirlanishi mumkin.

Postament–nemis tilidan olingan bo'lib, taglik ma'nosini anglatadi. Postament xaykalni ko'tarib turadigan to'rt yoqli prizma yoki silindr shaklida bo'ladi. Ular muzey va ko'rgazma zallarida ham namoyish etiladigan xaykal yoki amaliy san'at buyumlarini tagiga qo'yiladi.

Postimpressionizm-lotin tilidan olingan bo'lib, impressionizmdan so'nggi ma'nosini anglatadi. U XIX asr oxiri XX asr boshlarida Frantsiyada paydo bo'lgan. Tasviriy san'atdagi neoimpressionizm, kubizm, fovizm v.b. shu kabi oqimlarning

umumiy nomi hamdir. Bu oqim vakillari davr bilan bog'liq yangi badiiy tasviriy vositalarni yaratishga harakat qildilar. Postimpressionistlar bir onni (moment) ifodolovchi taasurotlar o'rniga jo'shqin xis-tuyg'ularga boy shakl va ranglarni qo'llashgan afzal ko'rdilar.

Proportsiya-lotin tilidan olingan bo'lib, munosabat degan ma'noin anglatadi. U tasvirdagi o'lchovlar (bo'yi, eni, qalinligi, och-to'qligi, katta-kichikligi v.b.) o'rtasidagi nisbatlarni nazarda tutadi.

Poliptix-ko'p qismi yoki bir necha qismli degan ma'noni anglatadi. Ma'lumki dastgohli san'at asarlari ikki qismdan iborat bo'lsa diptix, uch qismdan iborat bo'lsa triptix deb ataladi. Agarda o'sha asarlar to'rt va undan ortiq qismdan tashkil topsa poliptix deb yuritiladi. Shuni ham hisobga olish lozimki, diptix, triptix, poliptix asarlaridagi g'oyalar va mazmun o'zaro bog'liq va bir-birining davomi yoki to'ldiruvchisi bo'ladi.

Putti–ko'pincha Yevropa rangtasviri va xaykaltaroshligida parishtalar ramzi sifatidagi qanotli go'daklar tasviridir.

Pushti-rang nomi, och zarg'aldoq rang.

Puantilizm-frantsuz tilidan olingan bo'lib, nuqta ma'osini anglatadi. Bu yo'nalishdagi rassomlar o'z suvratlarini ma'lum mayda shakldagi (nuqta, kvadrat, doira v.b.) rang dog'lari yordamida ishlaganlar. Xozirda ham bu yo'nalishda ijod qilayotgan rassomlar bor.

P'edestal–haykal yoki yodgorlik tagiga qo'yiladigan taglik supa. Ular kub, prizma, silindr, kesik konus shaklida bo'lishi mumkin.

Pistoqi – rang nomi, pista mag'zining rangi.

R

Rakurs–odam, xayvon, manzara va boshqa narsalarning ufq chizig'idan ancha yuqori yoki pastdan turib ishlangan tasviri. Bunda tasvirlanadigan narsalar keskin qisqarib ko'rinadilar.

Ranglama– qisqa vaqt ichida buyoqlar bilan ishlanadigan xomaki rasm.

Rassom–rangtasvir va grafika turida ijod qiluvchi mutaxassis.

Ranglar toni-bu ularning och-to'qligi darajasini anglatadi. Ranglar toni bo'yoqlarning tarkibidagi eritmaning oz yoki ko'pligiga qarab belgilanadi. To'q ranglar qora, zangori, binafsha bo'lsa och ranglar oq, puti, xavorang bo'ladilar.

Rang tusi-bu birgina rangni bir necha darajasidagi bir-biridan farq qiluvchi sifatlaridir. Masalan qizil, sariq, yashil, zangori kabilar rang tusi hisoblanadi. qizil rangni qirmizi, pushti, lolaro'y, gulgun kabi tuslari ham bor. Yoki zangori rangning xavorang, moviy, lojuvard tuslari bo'ladi.

Rang to'yimliligi-bo'yoqlarni yorqinligini bildiradi. qorishmada kul rang qanchaliku kam bo'lsa, u shunchalik to'yimli va yorqin, aksincha ko'p bo'lsa shunchalik to'yinmagan bo'ladi.

Ranglar spektri-spektr so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, tasavvur ma'nosini anglatadi. Spektrni boshqa turlari kabi optik turi ham bor. Optik spektrda oddiy quyosh nurini linzadan o'tkazilganda oyna uni turli qizil, sariq, zangori, yashil v.b. ranglarga ajratib beradi. Bu xodisani ranglar spektri deb ataladi. Ranglar spektrini tabiatda yomg'idan so'nggi osmonda paydo bo'ladigan ranglar kamalagida ham ko'rish mumkin.

Rangshunoslik-hayotda va san'atda ranglarning kishilar kayfiyatiga, ularni xis-tuyg'ullariga ta'sirini o'rganadigan fan. Rangshunoslik sanoat, meditsina muammolari bilan ham shug'ullanadi. Tasviriy san'atda rangshunoslik fani ranglar yordamida tasviriy obrazlar yaratish, uning ifodaliligini oshirish masalalarini yechishga harakat qiladi.

Rang (havo) perspektivasi-real borliqdagi narsa va xodisalarning kishi ko'zidan uzoqlashgan sari ularning ranglarida ro'y beradigan xodisa o'zgarishidir. Bunda ularning ranglari xavo, chang, tuman ta'sirida o'z tusini yo'qotadilar.

Ranglar garmoniyasi-garmoniya so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, bog'lanish, mutanosiblik ma'nosini anglatadi. Rangtasvir suvratlarda ishlatilgan turli ranlar bir-biri bilan bog'lansa, hamoxang bo'lsalar ular ranglar garmoniyani tashkil etadilar. Aksincha ular bir-birlarini inkor etsalar, bir-birlari bilan bog'lanmasalar disgarmoniyani keltirib chiqaradilar.

Ranglar qarama-qarshiligi (kontrast ranglar)-rangtasvir suvratlarda ishlatiladigan ranglarni bir-birlariga teskari turlari bor. Ular och va to'q, iliq va sovuq, shaffof va kir, yorqin va xira ranglardir. Ularni qarama-qarshi ranglar deb hisoblanadi. Ikki qarama-qarshi rang yonma-yon qo'yilganda ularning birining yorqinligi kuchayadi, ikkinchisiniki esa susayadi.

Ranglar doirasi-asosiy ranglardan (qizil, sariq, zangori) va qo'shimcha ranglarni olinishini ko'rsatuvchi jadval. Ranglar doirasida o'n ikki yoki yigirma to'rt rang tusi doira cheti bo'ylab joylashtirilgan bo'lib, ular iliq va sovuq ranglardan tashkil topadi. Bir rang ustidan doira markazidagi nuqtadan to'g'ri chiziq o'tkazilsa, chiziqning ikkinchi uchi o'sha rangga mutanosib, mos rangga to'g'ri keladi. Rang doirasidagi ranglar asosiy (qizil, sariq, zangori), ranglarni o'zaro aralashtirish orqali olinadi. Asosiy uch rangni bir biriga qo'shishi orqali birinchi darajali yana uch rang guruxi olinadi. Paydo bo'lgan o'n ikki yonma-yon turgan ranglarni qo'shib yana o'n ikki rang olinadi. Ularni uchinchi darajali ranglar deb hisoblanadi. Natijada rang doirasida yigirma to'rt rang paydo bo'ladi.

Relьef–lotin tilidan olingan bo'lib, qabariq, bo'rtma ma'nosini anglatadi. Xaykaltaroshlikda tasvir tekislik yuzasidan qisman bo'rtib chiqan bo'ladi. Uni birelьf va gorelьf turlari bir.

Reproduktsiya-lotin tilidan olingan bo'lib, hosil qilish ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda reproduktsiya deb suvrat, grafik ish va xaykaltaroshlik asarlarini bosmaxonalar sharoitida ko'p nusxalarda qog'ozda ko'paytirilgan tasvirlariga aytiladi.

Restavratsiya–san'at asarlarini ta'mirlash ma'nosini anglatadi.

Retushь–frantsuz tilidan olingan bo'lib, tasvirni tuzatmoq ma'nosini anglatadi. Retushь qalam shaklida bo'lib, uning tarkibi oddiy qalamdan farq qiladi. Unda turli grafik ishlarni kamchiliklarini tuzatishda foydalaniladi.

Refleks–yonma yon turgan narsalar va ularning tasviridagi rang yoki ton jihatidan bir birlariga ko'rsatadigan aks ta'sirlaridir.

Realizm-XIX asrning o'rtalarida Frantsiyada paydo bo'lgan. U tasvirni xaqiqatdagidek borliqda qanday ko'rinsa shunday ifodalashni nazarda tutadi. Lekin u fotografiyadan farq qilib yuqori badiiy, mazmunan boy bo'lishni talab etadi.

Ritm-yunon tilidan olingan bo'lib, "oqaman" ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda asarni ifodalilik vositalaridan biri hisoblanib, u tomoshabinga estetik ta'sirini kuchaytirishga yordam beradi. Ritmda suvratdagi detallarni, ularni shakllarini, ranglarini o'lchovlarini qaytarilib yoki almashinib kelishi ritmni hosil qiladi.

Romantizm-Evropa va Amerika madaniyati va san'atidagi g'oyaviy va badiiy yo'nalish. Bu yo'nalishdagi rassomlarning ijodiga ma'naviy-ijodiy erkinlik, kuchli extiros va shiddatlarga talpinish, milliy madaniyat va folьklorga o'tish, uzoq yurtlar va halqlar hayotini tasvirlash xosdir.

Ularning asarlarida g'alati kutilmagan, o'tkir dramatik voqealar, inqilobiy kurashlar, tarixiy voqealar, qaxramonona afsonalar, Sharqning qiziqarli ko'rinish va xodisalari ifodalanadi. Bu yo'nalishdagi ijodkorlar o'z asarlari uchun kuchli extiros va harakterli shaxs obrazlarini tanlab olishgan.

Rusalka-rus rangtasvirida uchraydigan boshi ayol, tanasi baliq tasviri. Suv parisi deb ham yuritiladi.

S

Sabza-rang nomi, erta bahorda yangi o'sib chiqan o't-o'lanlar rangi.

Salon–tasviriy va amaliy san'atga doir materiallar, ish qurollari, san'at asarlari sotiladigan do'kon.

San'atshunos–san'at tarixi, nazariyasi va uning taraqiyoti bo'yicha tadqiqot olib boruvchi mutaxassis.

San'atshunoslik–san'at tarixi, uning muammolari bilan shug'ullanuvchi fan.

Somoniy–rang nomi, somon rangi, tillasimon rang.

Sangina–lotin tilidan olingan bo'lib, qonga o'xshash ma'noni anglatadi. Ular qalam shaklida, yog'ochsiz temir oksidli tuproqsimon moddalardan tayyorlanadi. Ularni qog'ozga yopishqoqlik xususiyatlari kuchli bo'ladi. Rasomlar ulardan xomaki rasm ishlash jarayonlarida keng foydalanadilar.

Sanoat grafikasi-sanoatda qo'llaniladigan reklama, yorliq, emblema, blanka, konvert, tovar belgilari, etiketka, upakovka va boshqalarni ifodalaydigan grafika turi.

Sariq-rang nomi, momaqaymoq (qoqi o’t) rangining nomi.

Sadaf-rang nomi, och sarg’ish rang.

Sepiya-jigar rang bo’yoq bilan ishlangan rasm, tasvir.

Siluet–bir randa, hajmsiz qilib ishlangan rasm. Uni sharpa tasvir desa ham bo’ladi.

Siybob-rang nomi, simob rangi.

Simmetriya-yunon tilidan olingan bo’lib, o’lchovdosh degan manoni anglatadi. Tasviriy san’atda suvratdagi detalni yoki narsani o’rtasidan vertikal o’q chiziq o’tkazilganda uning chap va o’ng tomonlarini bir-biriga tengligi kuzatilsa u simmetrik shakl hisoblanadi. Yoki suvratning chap va o’ng yoki yuqori va pastki qismlaridagi o’zaro tenglik yoki o’xshashlik ham simmetriyani bildiradi. Masalan, kapalak, simmetrik shaklga ega. Simmetriyani o’qli va markaziy turlari bo’ladi. O’Qli simmetriyada simmetriya o’qi bitta bo’lsa, markaziy simmetriyada u bir necha bo’lishi mumkin.

Simvolizm-Yunon tilidan olingan bo’lib, ramziy, timsol ma’nosini anglatadi va u XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Frantsiyada paydo bo’lgan badiiy yo’nalish. Mazkur yo’nalishdagi ijodkorlarning badiiy ijodi asosini suvratda yashiringan obraz-simvollar tashkil etadi. Simvolizm yo’nalishdagi rassomlar ko’proq g’ayri-tabiiy kayfiyat bilan sug’orilgan yarim afsonaviy kompozitsiyalar yaratishgan. Ularning ijodida alohida badiiy-tasviriy tilni izlash ko’zga tashlanadi. Buni ular chiziqlar ritmi, ranglar uyg’unligi yordamida amalga oshirganlar va murakkab simvolik mazmunni yaratishga erishganlar.

Slayd–diapozitiv, fotoplyonkaga tushirilgan suvrat tasviri.

Sovuq ranglar–yashil, zangori, binafsha ranglarni shunday deb ataladi.

Soya–narsalarning yorug’lik tushmaydigan qismida hosil bo’lgan ko’rinishi. Soyalarning ikki xili bo’ladi. Ular shaxsiy soya va tushuvchi soyalardir.

Sous-qalam shaklidagi rassomning ish quroli. U yog’ochsiz bir rangda bo’lib, o’lchovi 4-5 sm.dan oshmaydi. Sousdan rassomlar ko’proq xomaki ishlar jarayonida foydalanadilar.

Stek–xaykaltaroshlik asbobi. Ular yog'och yoki plastmassa materiallardan tayyorlanadi. Steklarni turli shakl va o'lchovdagilari bo'ladi. Loy va plastilin bilan xaykal ishlashda qo'llaniladi.

Supermuqova–kitob badiiy bezagida ishlatiladigan qog'ozga ishlangan tasvir. Ular bezakli va rangli holda kitoblarni tashqi ta'sirdan saqlash maqsadida kitob ustiga kiydiriladi. Supermuqovani sarmuqova ham deyishadi.

Suvrat–yuksak badiiy saviyada ishlangan rangtasvir yoki grafik tasvir.

Sfinks-qadimgi Misr xaykaltaroshligida uchraydigan tanasi sher boshi odam tasviri.

Syurealizm-frantsuz tilidan olingan bo'lib, o'ta realizm ma'nosini anglatadi va u Frantsiyada XX asrda san'atda paydo bo'lgan. Bu oqim vakillari avangardlik yo'nalishdagi san'atda aql-zakovat, mantiq, har qanday tabiiy-estetik va ahloqiy hissiyotlarni tasvirlashga qarshi chiqadilar. Ular o'z asarlarida aqliy faoliyatdagi, jamiyat hayotidagi shakllangan tizimni tubdan o'zgartirishga harakat qilganlar.

Syurealizm vakillari ijodkor ongiga ilk bor kelib qolgan so'z, fikr, turli-tuman tasavvurlarning dastlabki, kutilmagan xolatdagi shakli asarning asosi bo'lishi lozim deb hisoblaganlar.

T

Tarixiy janr–tarixiy voqealarni tasvirlovchi tasviriy san'at janri.

Tasviriy san'at–borliqda mavjud va mavjud bo'lmagan mavjudot, narsa va xodisalarni tasvirlovchi san'at turi.

Tempera-italyanlar tilidan olingan bo'lib, bo'yoq qorishtirish ma'nosini anglatadi. Bu bo'yoq suv bilan eritib ishlatiladi. U ko'proq binolarni bezagida, rangtasvir ishlarda keng qo'llaniladi. Tarkibida maxsus moddalar bo'lganligi sababli quyosh va yorug'lik ta'sirida o'z rangini o'zgartirmaydi, uzoq vaqtgacha o'z tusini saqlab qoladi.

Tushь-qora siyoh. Shu vosita bilan ishlagan asar ham tushь deyilgan.

To'tiyo-rang nomi, yorqin yaltiroq yashil rang.

To’tigiy-rang nomi, zangori va yashil bo’yoqlarning qo’shilishidan olingan rang.

Tulum-xayvon, qush, baliq kabilarni maxsus materiallar yordamida o’ziga o’xshatib tayyorlangan nusxasi.

Tushuvchi soya-soyalar nazariyasida ular ikkiga shaxsiy va tushuvchi soyalarga bo’linadi. Predmet tanasidagi soya shaxsiy soya, bir predmetdan ikkinchi predmetga yoki tekislikka tushgan soya tushuvchi soya deb yuritiladi.

Titul-lotin tilidan olingan bo’lib, yozuv ma’nosini anglatadi. Titul varroq kitoblarda muqovadan keyin keladi. Ularda kitob muallifi, kitobning nomi, kitob nashr etilgan shahar, un nashr etilgan yili yozilgan bo’ladi.

Tors-italyanlar tilidan olingan bo’lib, inson tanasi ma’nosini anglatadi. qadimda badiiy o’quv yurtlarida talabalar boshsiz, qo’lsiz, oyoqsiz gipsdan ishlangan odam tanasini rasmini ishlab chizishni o’rganganlar.

Triptix-yunon tilidan olingan bo’lib, u buklangan degan ma’noni anglatadi. Aslida u yagona umumiy mazmun va g’oyani ifodalaydigan uch bo’lakdan iborat rangtasvir, yoki grafika asari hisoblanadi.

U

Upakovka-san’oat grafikasining bir turi bo’lib sanoatda ishlab chiqariladigan mollarni maxsus idishlarga joylashtirilib, uning ustiga yozib qo’yiladigan ma’lumotlardir.

Ufq chizig’i-yunon tilidan olingan bo’lib, chegaralash ma’nosini anglatadi. U kuzatuvchining ko’z balandligida tasavvur etiladigan gorizontal (yotiq) chiziq. Ochiq kengliklarda u kuzatuvchi tasavvuridagi osmon bilan yerni kesishgan joyidagi chiziqni bildiradi.

F

Faktura–lotin tilidan olingan bo’lib, tuzilishi ishlovi ma’nosini anglatadi. Unda asosan narsalarni ustki qismining tuzilishi nazarda tutiladi. Faktura-silliq, g’adir-budir, tekis bo’lishi mumkin.

Fas–tasviriy san’atda rasmi ishlanayotgan mavjudot va narsalarning oldidan ko’rinishidir.

Fleyts–katta o’lchovdagi va kenglikdagi mo’yqalam. Ular ko’pincha bino va maxobatli rangtasvir ishlarini bajarishda ishlatiladi.

Fon –lotin tilidan olingan bo’lib tubi, asosi, zamini ma’nosini anglatadi. Tasviriy san’atda fon rasmning orqa qismidagi tasvirli yoki tekis bo’yalgan qismidir.

Firuza-rang nomi, zangori yorqin tosh rangi.

Frontispis–lotin tilidan olingan bo’lib, oldi, ko’raman ma’nosini anglatadi. U kitob titul varag’ining chap, muqovaning orqa tomonidagi bezakli sahifasi hisoblanadi. Frontispisda kitob muallifining rasmi yoki u haqda ma’lumot, kitob mazmuni, g’oyasi bilan bog’liq illyustratsiya beriladi.

Frontal kompozitsiya-Frontal so’zi ro’parasidan, to’g’risidan ko’rinishi ma’nosini anglatadi. Bunday kompozitsiyalar, rangtasvir, grafika, relьfli bo’ladi va tekis yuzalarda aks etdiriladi. Ularni faqat bir tomondan, old tomondan kuzatish mumkin.

Futurizm-lotin tilidan olingan bo’lib kelajak ma’nosini anglatadi va u o’z mazmuniga ko’ra kubizmga yaqin turadi. Futurizm XX asr boshlarida Frantsiyada paydo bo’lgan avngardizm oqimi hisoblanadi. Bu oqim vakillari kelajak san’atini yaratishni maqsad qilib an’naviy madaiyat va sanatning moxiyati va mazmunin inkor etganlar, katta mashinalashgan shahar yutuqlarini, ularning harakatini, kuch-quvvatini ulug’laganlar. Futuristlar o’z asarlarida shakllarining o’zaro kesishuvi, surilishi, to’qnashuvlarini, motivlarni ko’plab qaytarilishini ifodalaganlar. Bu orqali ular zamonaviy shaharlardagi shiddatli harakatlarni tasvirini ko’rsatmoqchi bo’lganlar.

X

Xromatik ranglar-atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, rang, bo'yoq ma'nosini anglatadi. Ular qatoriga oq, qora, kul rang ranglardan tashqari barcha ranglar kiradi.

Ch

Chiziqli perspektiva-deb narsalarning kishilar ko'zidan uzoqlashgan sari ularning o'lchovlarida ro'y beradigan qisqarib ko'rinishiga aytiladi.

Chuqur fazoviy kompozitsiya-bunday kompozitsiyalar asosan jamoat va turar-joy binolarini ichki qismini, xususan yo'lak, karidor, foe, uy xonasi kabilarni loyihalashda ishlatiladi.

Sh

Shaxsiy soya-tasvirlanayotgan mavjudotlar tanasidagi yoki ularning tasviridagi soya.

Shedu-qadimgi Sharq, Oldi Osiyo xaykaltaroshligida uchraydigan atama. Unda boshi odam, tanasi buqa tasvirlanadi.

Shingob-rang nomi, tilla rangiga o'xshash rang.

Shmutstitul–nemis tilidan olingan bo'lib, ifloslanish, sarlavxa, titul so'zlarini ifodalaydi. Va u kitoblarini ifloslanishidan saqlashga xizmat qiladi. U kitobning titul varag'i yoki kitob bobidan oldin qo'yiladigan qog'oz varaq. Shumtstitulda kitob nomi yoki bob nomi, kitob va nashriyot nomi, badiiy bezaklar ham ifodalanadi.

Shtrixlash-qalam yoki shu kabi ish qurollari bilan rasm chizganda qo'llaniladigan uslub.

E

Ekslibris-bir shaxsning kutubxonasiga tegishli ekanligini bildiruvchi tamg'a. Unda shaxsiy kutubxona egasining ismi va familyasi, shuningdek unda biror tasviriy belgi bo'lishi ham mumkin. Ekslibrislar gravyura uslubida tayyorlanadi.

Ekspozitsiya-lotin tilidan olingan bo'lib, ko'rsatish, namoyish etish ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda muzey, badiiy ko'rgazmalarda san'at asarlarini tomoshabinga namoyish etish tushuniladi.

Eksponat–lotin tilidan olingan bo'lib, ko'rgazmaga qo'yilgan degan ma'noni bildiradi. Tasviriy va amaliy san'atda namoyish etilayotgan asar tushuniladi.

Ekspressionizm-lotin tilidan olingan bo'lib, ifodalash ma'noisini anglatadi va u XIX asr boshlarida adabiyot va san'atda paydo bo'ldi. Bu yo'nalishdagi rassomlar ijodida zamonaviy sivilizatsiyaning inqirozi va insoniyatni xalokatga yetaklayotgan voqealar aks etdiriladi. Shuningdek, ularda urush va insonlar xuquqini oyoq osti qilinishga qarshi mavzular va tasviriy vositalar ishlatildi. Ekspressionizm oqimida ishlangan rangtasvir va grafik ishlarda (qarama-qarshi och, to'q, oq, qora) rang dog'larini keng qo'lanilishi asar g'oyalarini yorqin ifodalashga yordam bergan.

Emblema-yunon tilidan olingan bo'lib, biron g'oyani shartli tasvirlash ma'nosini anglatadi. Masalan, kitob tasviri ma'naviyat va ta'lim belgisidir.

Eskiz-frantsuz tilidan olingan bo'lib, xomaki tasvir ma'nosini anglatadi. Rangtasvirda u bo'lg'usi asarni kichik o'lchovdagi xomaki ishlangan namunasi. Unda suvrat kompozitsiyasi, mazmuni, ranglari, asosiy detallar tasvirlanadi.

Estamp-grafikaga doir mustaqil asar. Ular gravyura uslubida ko'p nusxada tayyorlanadi va ish muallifning rassomning ko'rigidan o'tkaziladi, zarur bo'lgan taqdirda ularga qisman tuzatishlar kiritiladi va ish tagiga rassomning shaxsiy imzosi qo'yiladi. Estamplar oq-qora yoki rangli bo'lishi mumkin.

Etyud-frantsuz tilidan olingan bo'lib, mashq qilish ma'nosini anglatadi. Etyud rassomni kelajakda biror asar yaratishidagi, dastlabki tayyorgarlik bosqichidir. U tasviriy san'atning deyarli barcha janrlarida ishlatiladi. Bir suvrat uchun ko'plab etyudlar ishlanishi mumkin.

Etyudnik–rassomning ish qurollari va materiallarni solib yuradigan qutisi. Unda mo'yqalam, bo'yoq, qog'oz, karton va boshqa shu kabilar saqlanadi. Etyudnik rassomga manzara, portret, etyud ishlaganda molbert vazifasini ham o'taydi.

Etiketka-grafikaning bir turi bo'lib, ko'pincha u sanoatda ishlab chiqilgan mollar haqida ma'lumotlar yozib va ularni mol ustiga yopishtirib qo'yiladi. Namoyishga qo'yilgan yoki muzeylarda saqlanayotgan tasviriy san'at asarlari ham etiketkalari bo'ladi. Etiketkalarda asarni yaratgan muallifning ismi va sharifi, uning nomi, yaratilgan yili, qanday materialdan ishlanganligi yozib qo'yiladi.

Ya

Yakuniy bezak-kitob grafikasiga mansub bo'lib, uning bob yoki fasllari, qismlarining oxirida boriladigan tasvir. Ular naqshli yoki mazmunli bo'lishlari mumkin.

Yarim soya-turli-tuman mavjudot va narsalar tanasidagi shuningdek, ularning tasviridagi yorug' va soyalari o'rtasidagi qismi.

Yashil-rang nomi, to'q barg rangi.

O'

O'zbekiston xalq rassomi-O'zbekiston tasviri san'atini rivojlantirishda ko'plab halqga manzur yuksak badiiy saviyada asarlar yaratishda ko'rsatgan katta xizmatlari uchun rassom va xaykaltaroshlarga beriladigan davlat unvoni.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi-O'zbekiston san'ati (musiqa, teatr, kino, me'morchilik, tasviriy va amaliy san'at v.b.) rivojlantirishdagi katta xizmatlari, ko'plab yuqori badiiy saviyada san'at asarlarini yaratganliklari uchun san'at namoyondalariga davlat tomonidan beriladigan unvon.

Q

qo’shimcha ranglar-asosiy ranglar hisoblangan qizil, sariq, zangori, shuningdek oq va qora ranglardan tashqari barcha ranglardir.

qoralama-qora qalam, retush, ugol (ko’mir), sous, sangina kabi ish qurollari bilan tez va qisqa vaqt davomida bajariladigan xomaki rasm.

H

Haykal-xaykaltaroshlik mahsuli bo’lib, ular loy, tosh, yog’och, temir, mo’m kabi materiallardan hajmli qilib ishlanadi. Xaykallarni yumaloq va relьfli turlari bo’ladi.

Haykaltaroshlik-tasviriy san’atning bir turi. Bunda odam, xayvon va qushlarning hajmli tasviri turli materiallar yordamida ishlanadi. Xaykaltaroshlikda ko’pincha tosh, yog’och, loy, gips, metall kabi materiallardan foydalaniladi. Uning mayda plastika, terrakota, dastgoxli xaykaltaroshlik, mahobatli xaykaltaroshlik, istirohat bog’i xaykaltaroshligi, dekorativ xaykaltaroshlik kabi turlari bor.

Havo rang-rang nomi, osmon rangi.

Hajmli kompozitsiyalar-xaykaltaroshlikda amaliy san’at va me’morlikdaqo’llaniladi. Bunday kompozitsiyalar uch o’lchovli bo’lib, ularni har tomondan kuzatish mumkin.

Hajm (relьf) perspektivasi-Har qanday narsalar kishi ko’zidan uzoqlashgan sari faqat o’lchov, rang jihatdan emas, balki relьf perspektivasiga duch keladilar. Bunda predmetlar o’z hajmini yo’qotib, yupqa bo’lib ko’rinadilar.

TEST SAVOLLARI

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qaysi qismida tasviriy san’atni o’qitish bilan bog’liq fikrlar bayon etilgan?

«Umumiy o’rta ta’lim» qismida.

«Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlar» qismida.

*Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish printsiplari» qismida.

«Shaxs» qismida.

Milliy istiqlol g’oyasini o’quvchilarga singdirishda tasviriy san’atning qaysi turlari ko’proq ahamiyat kasb etadi?

Borliqni idrok etish, naturaga qarab tasvirlash, badiiy-qurish, yasash.

Kompozitsiya, badiiy qurish-yasash, san’atshunoslik asoslari

*San’atshunoslik asoslari, borliqni idrok etish, kompozitsiya.

Naturaga qarab tasvir ishlash, kompozitsiya, badiiy qurish-yasash.

«Metodika» so’zining ta’rifi qaysi qatorda to’g’ri berilgan?

*Metodika–bu ta’lim va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yo’l va ulublar majmui.

O’qitishning nazariy asoslarini ifoda etuvchi asosiy vositalardan biri.

O’qitishda didaktik printsiplarni maqsadga muvofiq yo’nalishlariga xizmat qiladigan pedagogik texnologiya.

Ta’lim sohasida o’quvchilarni bilim va malakalarini oshirishga qaratilgan mexanizm.

«Metodika» turlari qaysi qatorda to’g’ri berilgan?

Didaktika, uzluksiz ta’lim.

*Umumiy metodika, xususiy metodika.

Ko’rgazmalilik, ilmiylik.

Doskada rasm ishlash, ijodiy rasm ishlash.

Rasm chizishga o’rgatish dastlab qaysi mamlakatlarda boshlangan?

Yunonistonda.

Rimda.

O’zbekistonda

* Misrda.

Jahon tarixida rasm chizishga o’rgatish metodikasi bo’yicha dastlabki samarali mehnat qilingan mutaxassislar qaysi qatorda to’g’ri berilgan?

* Pamfil, Chennini, Alьberti, Leonardo da Vinchi.

Dyupyui, Ashbe, Prang, Russo.

Gete, Shmidt, Prang, Bryullov.

Tedd, Kulьman, Karrachi, Renuar.

Rasm chizishga o’rgatishda «Naturadan chizish metodi» qaysi olimlar tomonidan kiritilgan?

Pestalotstsi, Shmidt, Gete.

*Komenskiy, Russo, Gete.

Kulьman, Prang, Baumgart.

Ausberg, Braunshvig, Tedd.

Rasm chizishga o’rgatishdagi «Geometrik metod» vakillari qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

Gete, Komenskiy, Russo.

Ausberg, Kulьman, Prang.

Baumgart, Tedd, Braunshvig.

*F.Dyupyui, I.Pestalotstsi, I.Shmidt.

Rossiyada birinchi bor yaratilgan «Kurs risovaniya» nomli darslik muallifi kim?

*A. Sapojnikov.

V. Beyer.

A. Voskresenskiy.

P. Chistyakov.

XX asrning ikkinchi yarmida Rossiyada tasviriy san’atni o’qitish metodikasiga doir samarali mehnat qilgan pedagog-olimlar kimlar?

G.Labunskaya, V.Sherbakov, A.Shimanskaya.

A.Karlson, G.Orlovskiy, R.Korguzalova.

A.Brajnikova, T.Belyaev, B.Nosov.

*N.Rostovtsev, V.Kolokolьnikov, V.Kuzin.

O’quvchilar badiiy ijodiga doir Rossiyada «Erkin tarbiya» nazariyasining vakillaridan biri kim?

N.Radlov.

D.Kardovskiy.

V.Beyer.

*A.Bakushinskiy.

O’zbekistonda birinchi bor tasviriy san’at darsligi qachon chop etilgan?

1995 yilda.

1964 yilda.

*1969 yilda.

1972 yilda.

O’zbekistonda oliy ma’lumotli rassom-o’qituvchilar tayyorlovchi fakulьtet qoshidagi bo’lim qachon va qaysi institut qoshida ochilgan?

1950 yilda Samarqand davlat pedagogika institutida.

1950 yilda Qarshi davlat pedagogika institutida.

1966 yilda Namangan davlat pedagogika institutida.

*1955 yilda nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida.

O’zbek grafik rassomlaridan Iskandar Ikromovning tasviriy san’at o’qituvchilariga yordam tariqasida 1932 yilda chop ettirgan ishi qanday ataladi?

Rasm chizishni o’rganing.

Maktabda rasm darslari.

Rasm chizishni o’rganish kerakmi?

*Rasm chizishga o’rgatish qullanmasi.

Borliqni idrok etish darslari qaysi sinflarda o’tkaziladi?

*1-4 sinflarda.

Barcha sinflarda.

1-2 sinflarda.

5-7 sinflarda.

N.Rostovtsevning maktabda tasviriy san’atni o’qitish metodikasiga doir o’quv qo’llanmasining nomi qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

Metodika risovaniya v shkole.

*Metodika prepodavaniya izobrazitelьnogo iskusstva v obщeobrazovatelьnoy shkole.

Soderjanie i metodika prepodavaniya izobrazitelьnogo iskusstva v shkole.

Metodika prepodavaniya izobrazitelьnogo iskuvsstva v shkole.

Tasviriy san’at o’quv predmeti qaysi san’at turlarini o’z ichiga oladi?

Tasviriy san’at, amaliy san’at, foto san’ati.

Tasviriy san’at, me’morchilik, grafika, musiqa.

Tasviriy san’at, amaliy san’at.

*Tasviriy san’at, amaliy san’at, me’morchilik,grafika,haykaltaroshlik.

Badiiy qurish-yasash mashg’ulotlarida materiallarning qaysi turlari qo’llaniladi?

Badiiy materiallar.

Tabiiy materiallar.

*Tashlandiq materiallar, badiiy materiallar, tabiiy materiallar.

Tabiiy materiallar, tashlandiq materiallar.

Maktabda tasviriy san’at mashg’ulotlarining maqsadi qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

O’quvchilarni rasm chizishga o’rgatish.

*O’quvchilarning badiiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish.

O’quvchilarni oliy o’quv yurtlariga kirish uchun tayyorlash.

O’quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash.

Boshlang’ich sinflarda tasviriy san’at mashg’ulotlarining turlari qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

San’atshunoslik asoslari, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya.

Naturaga qarab tasvirlash, san’atshunoslik asoslari, badiiy qurish-yasash.

*Borliqni idrok etish, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, badiiy qurish-yasash.

San’atshunoslik asoslari, borliqni idrok etish, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya.

Tasviriy san’atni o’qitishda tabaqalashtirishni qaysi turi qo’llaniladi?

Milliy tabaqalashtirish.

*Darajali tabaqalashtirish.

Regional tabaqalashtirish.

Jinsiy tabaqalashtirish.

Adabiy asarlar asosida rasm ishlash tasviriy san’at mashg’ulotlarining qaysi turiga kiradi?

*Kompozitsiya.

Badiiy qurish-yasash.

San’atshunoslik asoslari.

Naturaga qarab tasvirlash.

Darsda o’quvchilar faoliyatini baholash yo’llari qaysi qatorda to’g’ri belgilangan?

*Kuzatish, suhbat, ijodiy ish, munozara.

Mustaqil ish, test, insho, og’zaki so’rov, mashq.

Tabiatga sayohat, diktant, insho, rasm chizdirish.

Viktorina, krossvord yechish, test, rasm chizish.

O’quvchilarning tasviriy faoliyatlarida ko’proq qaysi psixologik sifatlar ishtirok etadilar?

Tasavvur, iroda, bilish, sezish.

Tafakkur, xarakter, qobiliyat.

Tafakkur, nutq, idrok.

*Tasavvur, xotira, tafakkur.

O’qituvchining mustaqil o’zi ustida ishlash turlari qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

*Kitob o’qish, o’qitish metodlari yuzasidan ijod qilish, tajribalarni o’rganish, tasviriy tarixini o’rganish, ijodiy ishlar bajarish.

Kitob o’qish, kontsert va spektakllarga borish, ilg’or o’qituvchilar bilan muloqotda bo’lish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o’rganish, boshqalar darslarini kuzatish, o’z darslarini yuqori saviyada o’tkazish.

Yangi tasvirlash texnologiyalarini o’rganish.

«1-4 sinflarda rasm darslari» nomli metodik qo’llanmaning mualliflari kimlar va u qaysi yili chop etilgan?

M.Nabiev, H.Egamov, 1961 yilda.

I.Ikromov, M.Nabiev, 1953 yilda.

R.Hasanov, H.Egamov, 1976 yilda.

*M.Nabiev, A.Shohamidov, 1965 yilda.

Tasviriy san’at o’qitishdagi didaktik printsiplar soni qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

*6 ta.

3 ta.

4 ta.

7 ta.

Tasviriy san’atni o’qitishda nazoratning qaysi turlari qo’llaniladi?

Joriy nazorat.

Oraliq nazorat.

Yakuniy nazorat, oraliq nazorat.

*Joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat.

«San’atshunoslik asoslari» darslarida o’quvchilar qanday shaklda faoliyat ko’rsatadilar?

Naturadan rasm chizadilar.

Naqsh ishlaydilar.

Kompozitsiya ishlaydilar.

*O’qituvchi suhbatini tinglaydilar.

Illyustrativ rasm ishlash qaysi sinflarda amalga oshiriladi?

Birinchi sinfda.

Boshlang’ich sinflarda.

5-7 sinflarda.

* 1-7 sinflarda.

Maktabda bolalar qanday bo’yoqlar bilan rasm ishlaydilar?

Moybo’yoq, akvarelь.

*akvarelь, guashь.

Tempera, akvarelь.

Akvarelь, guashь, moybo’yoq.

O’zbekistonda rasm chizishga o’rgatishga doir birinchi bor qo’llanma chop etgan muallif kim?

M.Nabiev.

*I.Ikromov.

R.Hasanov.

B.Oripov.

Rasm chizishni o’rgatishga bo’lgan birinchi intilishlar qaysi tarixiy davrga to’g’ri keladi?

*Neolit

Paleolit

Mezolit

Ibtidoiy

O’zbekistonning mashhur miniatyurachi rassomi qaysi qatorda?

*Ch. Axmarov

Sh.Abdurashidov

R.Ahmedov

R.Choriev

XX asrning mashhur o’zbek rassomlari kimlar?

O.Yunusov, N.Abdusalomxo’jaev, A.Isaxo’jaev, G’.Abduraxmonov

A.Mirzaev, B.Maxkamov, Ya.Salpinkidi, N.Usmonov

D. Boqiev, I. Jabborov, O.Qozoqov, A.Mo’minov

*U.Tansiqboev, Z.Inog’omov, A.Abdullaev, M.Nabiev

Ibtidoiy odam nima bilan rasm chizgan?

*Ko’mir va o’tkir tig’li tosh bilan

Stiliusda, ko’mirda

Mo’yqalamda, qalamda

Qush patlari yordamida

Ibtidoiy odam rasm chizish ko’nikmalari qanday paydo bo’lgan?

Tabiatdan

Xayot tarzidan

*Kuzatish va taqlid qilish

Xayvonot olamidan

Poytaxtimizning Milliy bog’ida o’rnatilgan ulug’ shoir Alisher Navoiy obraziga atalgan yodgorligi qaysi haykaltaroshlar tomonidan yaratilgan ?

*A. Raxmatullaev, L.Ryabtsev, D.Ro’ziboev

I. Jabborov, R.Mirtojiev, T.Toshxo’jaev

E.Aliev, N.Bandeladze, V.Degtyarov

A. Raxmatullaev, I.Jabborov, E.Aliev

Rasm chizish ta’lim va o’qitishning metodlarini ishlab chiqqan Uyg’onish davri rassomlari?

*Ch. Chennini, L.B.Alьberti, Leonardo da Vinchi, Dyurer

Ch. Chennini, Titsian, Velaskes

L.B.Alьberti, Rembrand, Melantiy

Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo

Tasviriy san’atda Leonardo da Vinchi nimalarga ahamiyat bergan?

Inson gavdasining go’zalligiga

Ilohiy farishtalar to’plamiga

*Nisbatlar ta’limoti, perspektiva qoidalari, plastik anatomiyaga

Tibbiy materiallarga

Leon Battista Alьbertining mashhur asari qanday nomlangan?

*Rangtasvir to’g’risida uch kitob

Emilь asari

Buyuk didaktika

Rasm chizishni namunalardan boshlash kerak

Markaziy Osiyoda qanday miniatyura maktablari mavjud bo’lgan? *Samarqand, Yazd, Sheroz maktabi

Mavjud bo’lmagan

Xiva va Buxoro maktabi

Temuriylar davrida rivojlangan Samarqand maktabi

Temuriylar davri tasviriy san’at maktablarini asoschilari kimlar?

*Jahongir Go’ng(soqov) Pir Said Ahmad Tabriziy, Kamoliddin Behzod Ma’sud ibn Usmoniy, Ko’listoniy

Abulxayrxon, Xotadiy

Sharofiddin Ali Yazdiy, Xalil Mirzo

Rasm chizishga o’rgatishda mashhur rassomlarning ishlaridan namunalar ko’chirishni taklif etgan shaxs.

K.Soldan

Resten

Surikov

*Sapojnikov

XX asrning eng mashhur o’zbek rassomlari kimlar?

O.Yunusov, N.Abdusalomxo’jaev, G’.Abduraxmonov, T.Qo’ziev

A.Mirzaev, Ch. Radjabova, I.Inog’omxo’jaev, O.Yunusov D. Boqiev, I. Jabborov, O.Qozoqov, Mo’minov, Kaydalov, A.Volkov.

*U.Tansiqboev, Z.Inog’omov, A.Abdullaev, S.Abdullaev, M.Nabiev

Markaziy Osiyoning eng qadimiy rassomi kim?

*Moniy

Kamoliddin Behzod

Ibn Xdim

Mahmud Muzahib

Boburiylar minatyura maktablari namoyondalari kimlar?

Murod Muhammad Murod Muhammad Samarqandiy

Kamoliddin Behzod

*Xondamir Ar-Rashid

Mahmud Muzahhib

Qadimgi Yunoniston rassomchilik maktablari qaysi qatorda?

*Sikion, Efess, Fivan

Afina, Fivan, Sparta

Makedoniya, Sikion, Afina

Krit, Epir, Delьflar oroli

Qadimgi Yunonistonda rassomlarni maktablari tayyorlashda qaysi metodlardan foydalanilgan?

nusha ko’chirish metodi

*o’qitshni ilmiy asoslangan metodi

parda metodi

natura asosida rasm chizish

Sikkion maktabning qaysi vakili yoshlarga saboq berishni ilmiy

asoslangan, nazariy va ilmiy metodikasining ishlab chiqqan

*Pamfil

Apeleks

Melantiy

Evomp

O’rta Osiyo ibtidoiy davrga mansub dastlabki namunalar qaerda

topilgan?

*«Zarafshon vohasi «Sarimishsoy»

Surxondary vohasi»

Toshkent viloyati

Andijon, Farg’ona

Qadimgi O’rta Osiyoda tasviriy san’atning eng rivojlangan davri?

*Afrosiyob

Xiva xonligi

Buxoro xonligi

Xorazm

O’rta Osiyodagi rangtasvirning qadimiy markazlari?

Buxoro

So’g’diyona

Samarqand

*Afrosiyob,Varaxsha

Qadimgi yunon rassom-pedagoglari birinchilardan bo’lib rasm chizishni o’rgatishning metodlaridan birinchi asos solgan va uning negizida qanday metodlar yotadi.

Geometrik shakllarni tasvirlash

Sxemalar chizish

Nusha ko’chirish

*Narsani o’ziga qarab tasvirlash

O’zbekistonda 1995 yili eng yirik mehmonxonalari sarasiga kiradigan «Interkontinentalь» qaysi me’mor loyihasi asosida bunyod etilgan?

Ye. Rozanov

*A. Tuxtaev

V. Spivak

Ye. Jmuyda

Boburiylar minatyura maktablari namoyondalari kimlar?

K. Behzod,Muzaxxib

Murod Muhammad Samarqandiy

Xondamir Ar-Rashid

*Mir Said Ali, Mir Mansur, M.Murod, M.Nosir Muzaxxib

Sharq mo’jaz san’at mussavviri Kamoliddin Behzod ning asarlari qaysi kitoblarda tasvirlangan?

Shohnoma

Gliston

Bo’ston

*Xamsa

Kamoliddin Behzodning ustozi va u o’qigan maktab nomi?

Shayxzoda Xursanniy – Xirot san’at maktabi

Mahmud Muzoxib – Sherzod san’at maktabi

*Mir Sayyid Ali – Xirot maktabi

Sulton Muhammad «Nigoriston»

Yevroprda Badiiy Akademiya nechanchi asrdan boshlab ochila boshlangan?

XVII asrdan

XV asrdan

X VIII asrdan

*XVI asrdan

Leonardo da Vinchi mashxur kitobi qanday nomlanadi?

Qalamtasvir

Odam anatomiyasi

Xaykaltaroshlik

*Rangtasvir haqida kitob

Sharq mo’jaz san’ati ustasi Kamoliddin Behzodning asarlari qaysi kitoblarda tasvirlangan?

Shohnoma

Guliston

Bo’ston

*Xamsa

O’rta Osiyo Sharq mo’jaz san’at maktablari namunalari aniqlang?

Eron, Movarounnaxr, Tobriz, Bog’dod

Isfaxon, Tobriz, Afrosiyob, Eron

Bog’dod, Avrosiyob, Isfaxon, Tobriz

*Movoraunnaxr, Avrosiyob, Xirot, Bog’dod

Sharq mo’jaz san’at musavviri K. Behzodni nechanchi yilda tavallud topgan?

1454 yilda Xirotda

*1455 yilda Xirotda

1946 yilda Xirotda

1456 yilda Xirotda

Ibtidoiy odam nima bilan rasm chizgan?

*Ko’mir va o’tkir tig’li tosh bilan

Stiliusda

Mo’yqalamda

Qush patlari yordamida

Qalamda

Rasm chizish ta’limiga ulkan xissa qo’shgan qadimgi Yunoniston rassomlari?

Parrasiy, Ch. Chennini,

L.B.Alьberti, Rembrand

Pamfil, Evpompf

*Apelleks, Poliklet

Temuriylar davrida tasviriy san’at maktablarini asoschilari kimlar?

*Jahongir Go’ng (soqov) Pri Said Ahmad Tabriziy, K Behzod

Ma’sud ibn Usmoniy, Ko’listoniy

Abulxayrxon, Xotadiy

Sharofiddin Ali Yazdiy, Xalil Mirzo

O’rta Osiyodagi «Donishmandlar uyi» qaysi shaharda mavjud bo’lgan?

Damashq

Xiva

Toshkent

*Bog’dod

O’rta Osiyo Sharq mo’’jaz san’at maktablarini nomlari to’g’ri ko’rsatilgan.

Eron, Movarounnahr, Tabriz, Bog’dod

Isfaxon, Tabriz, Afrosiyob, Eron

Movarounnahr, Afrosiyob, Xirot, Bog’dod

*Xirot, Bog’dod, Eron, Tabriz, Isfaxon

O’rta Osiyo Sharq mo’’jaz san’ati maktablari ichida ilk bor tashkil topgan maktab?

X-XI asr Isfaxon mo’’jaz maktabi

*X-XI asr Tabriz mo’’jaz maktabi

IX-X asr Xirot mo’’jaz maktabi

X-XI asr Bog’dod mo’’jaz maktabi

Kamoliddin Bexzodning ustozi va u o’qigan maktabning nomi?

Shaxzoda Xursoniy – «Xirot» san’at maktabi

Mahmud Muzaxib – «Sheroz» san’at maktabi

Mir Saida Ali – «Xirot» san’at maktabi

* Mirak Naqqosh – «Nigoriston» san’at maktabi

Amaliy san’atda ishlatiladigan jihoz va asboblar?

mo’yqalam, qalam, chizg’ich, sirkulь, politra

sirkulь, chizg’ich, o’chirgich, qalam, moybo’yoq

chizg’ich, qalam, kalka, xoka, sangina

* xitoy qog’oz, ulgi, xoka, mo’yqalam, ko’mir

Amaliy san’atning naqqoshlik turida ishlagan ustalar ismi.

U.Tansiqboev, A.Abdullaev, Sh.Hakimov, Yo.Raufov

Yo.Raufov, Sh.Hakimov, A.Temurov, Ch.Ahmedov

Sh.Umarbekov, B.Jalolov, Sh.Hakimov, Yo.Raufov

* A.Qosimjonov, Yo.Raufov, T.To’xtaxodjaev, Sh.Hakimov

Amaliy san’atning qaysi turida faqat materialning o’ziga ishlanadi? naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik

ganchkorlik, kulolchilik, yog’och o’ymakorligi

*yog’och o’ymakorligi, misgarlik

misgarlik, ganchkorlik, naqqoshlik

Ilk bor O’zbekistonda tasviriy san’at maktablarining ochilishi

*1920-1940 yillar

1922-1941 yillar

1919-1939 yillar

1919-1945 yillar

Xalq milliy amaliy san’at yodgorliklari topilgan qadimiy joylar?

Afrosiyob, Tuproq qal’a, Varaxsha, Zafarnoma

*Dalvarzin tepa, Afrosiyob, Tuproq qal’a

Davvarzin tepa, Afrosiyob, Tuproq qal’a, Zafarnoma

Afrosiyob, Tuproq qal’a, Varaxsha, Zafarnoma

Sharq mo’’jaz san’ati asarlarining asosiy xususiyatlari.

yorqin ranglar, oldi va orqa ko’rinishlar

*tekis yuzada, yorqin ranglar, o’lchami yo’q

tekis yuzada, ufq chiziqlar asosida

yoriq ranglar, tekis yuzada, soya-yorug’

Xalq amaliy san’atda me’morchilik yodgorliklari bo’yicha mashhur shaharlar.

Buxoro, Xiva, Toshkent

Samarqand, Buxoro, Xiva, Kesh

*Samarqand, Buxoro, Xiva

Buxoro, Toshkent, Qo’qand

Samarqand shahridagi milliy amaliy durdona yodgorlik Registon qachon bunyod bo’lgan.

*XIV-XV asr Ulug’bek, Sherdor, Tilla Qori

XV-XVI asr Sherdor, Tilla Qori, Ulug’bek

XIV-XV asr Tilla Qori, Ulug’bek, Sherdor

XV-XVISh asr Sherdor, Tilla Qori Ulug’bek

Amaliy san’at turlaridan qaysi birida ayollar bezagi ishlanadi.

Misgarlik

*Zargarlik

Do’ppichilik

Ganchkorlik

Nizomiy nomidagi pedagogika instituti qaysi me’mor loyihasi asosida bunyod etilgan?

Ye. Rozanov

S. Adыlov

V. Spivak

*E. Jmuyda

Tasviriy san’at nachta janrdan iborat?

11 janr

9 janr

15 janr

*7 janr

Xaykaltaroshlikning nechta turi bor?

6 tur

*3 tur

5 tur

4 tur

Samaraqandagi «Sherdor ansambli» qaysi asrda yaratilgan?

19 asr

*17 asr

21 asr

11 asr

«Registon ansambli» qaysi asrlarda yaratilgan?

15 asr

14 – 15 asr

13 – 14 asr

* 16 – 17 asr

Xirot miniatyura maktabini asoschisini aniqlang.

Farobiy

*Kamoliddin Behzod

Xusayin Bayqaro

Alisher Navoiy

«Toj–Mahal» maqbarasi Xindistonning qaysi shahrida qurilgan?

*Agrada

Bombeyda

Dexlida

Xarappa

Ibtidoiy jamoa davri san’atiga oid yodgorliklar O’zbekistonning qaysi xududlarida topilgan?

Varaxsha, Dalverzintepa

*Teshiktosh, Zaravutsoy

Zaravutsoy, Xalchayon, Teshiktosh

Xalchayon, Surxandaryo

Toshkentdagi (1982) xalqlar do’stligi haykalini mualliflari qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

* D.Ryabichev - haykaltarosh, S.Adыlov - arxitektor

S.Ryabchev - haykaltarosh, S.Bulatov - arxitektor

A.Boymatov - haykaltarosh, L.Adamov - arxitektor

A.Shapiro - haykaltarosh, S.Adыlov - arxitektor

Samarqanddagi «Sherdor ansambli» qaysi asrda yaratilgan?

19 asr

*17 asr

21 asr

11 asr

Malika Nefertiti byusti qaysi xaykaltarosh tomonidan yaratilgan?

Mai

*Tutmes

Amarn

Xemiun

Somoniylar maqbarasi qaysi asr va qayrda qurilgan?

17 asr Xivada

12 asr Marg'ilonda

*9 – 10 asr Buxoroda

13 asr Samarqandda

"Go'ri - Amir" maqbarasi nechanchi yillarda qurilgan?

* 1403 - 1404

1415 - 1417

1667 - 1601

1556 - 1560

Bibixonim masjidi qaysi shaxarda qurilgan?

Andijonda

Buxoroda

Jizzaxda

* Samarqandda

Kamoliddin Bexzod qaysi shaxarda tavallud topgan?

Marg'ilonda

Xivada

Samarqandda

* Xirotda

Qaysi qatorda O’zbekiston san’atshunos – olimlarining ismi berilgan?

G. Pugachenkova, Veymrman A. Umarov

* G. Pugachenkova, L. Rempelь, A. Umarov, R. Toktosh

R. Toktosh, S. Bulatov, Saloxov, T. Maxmudov

Lazarov, Veymarn, L. Rempelь

Tasviriy san’at nechta janrdan iborat?

11 janr

9 janr

15 janr

*7 janr

Kamoliddin Behzod qaysi shaharda tavallud topgan?

Marg’ilonda

Xivada

Samarqandda

*Xirotda

Samoniylar maqbarasi qaysi asr va qaerda qurilgan?

17 asr Xivada

12 asr Marg’ilonda

18 asr Andijonda

* 9–10 asr Buxoroda

«Go’r - Amir» maqbarasi nechanchi yillarda qurilgan?

*1403–1404

1415–1417

1667–1601

1556–1560

Bibixonim masjidi qaysi shaharda qurilgan?

Andijonda

Buxoroda

Jizzaxda

*Samarqandda

Kamoliddin Bexzod san’atning qaysi turida ijod qilgan?

Naqqoshlik

*Miniatyura

Rangtasvir

Grafika

Asosiy ranglar kaysi katorda tulik berilgan?

Zargaldok, kuk, jigarrang:

Sarik, ok, kora

*kizil, zangori, sarik

yashil, siyoxrang, zangori

kuyidagi asarlardan kaysi biri Zokir Inogomovning asari?

Choyxonada

*Choyga

Kuz

Bahor

“Nakkoshlik” san’atida ishlatiladigan terminlar kaysi katorda kursatilgan?

Kundal, mexrob, axta, bofta, namoyon, sangina, pastel.

Etyud, natura, molьbert

Xaykal, portret, manzara

*Kundal, mexrob, axta, bofta, namoyon,shobarg

Tarixiy janr ustasi kaysi katorda?

A.Mirzaev, N. Repin

L.Abdullaev, M. Nabiev.

A.Abdullaev, J.Umarbekov.

*M.Nabiev. A.Surikov.

Mashxur Amir Temur portretining muallifi kim?

R.Choriev;

*M.Nabiev:

A.Nabiev:

¢.Abduraxmanov.

Nakshlarni ranglashda kaysi buyok turidan kuprok ishlatiladi?

Moybuyok, tempera.

*Guash,akvarelь.

Guash,moybo’yoq

Emulьsiya buyog’i,tempera

Ganchkorlikda ishlatiladigan materiallar kaysi katorda?

Plastilin, oxak, gips

*Gips, ganch, alebastr

Kumir, ohak, alebastr:

Sement, oxak, gips.

Xromatik ranglar kaysi katorda tugri kursatilgan ?

kora, sarik, ok:

*kizil, sarik, yashil:

jigarrang, okish, kulrang:

sarik, kulrang, kora.

Toshkentdagi “Amir Temur” xaykalining muallifi kim?

M.Nabiev:

D.Ruziboev:

*I.Jabborov:

A.Boymatov.

Natyurmort janrida ijod kiluvchi rassomlar kaysi katorda?

*¢.Abduraxmanov, L.Sharden, A.Ikromjonov

N.Ten, L.Abdullaev, A.Savrasov

I. Perov, J.Umarbekov, M.Nabiev:

A.Muminov, Kupriyanov, A.Volkov.

Tus jixatdan tuk ranglar kaysi katorda?

Sarik,ok,xavorang

Kulrang, kizil, zargaldok

*Jigarrang, zangori, binafsha

Yashil, sarik, barikaram.

A.Savrasovning yirik asari kaysi?

Yomgirdan sung

Bugdoyzorda

Turnalar uchib keldi

*kargalar uchib keldi

Pista gul, anor, atirgul, majnuntol, bodomgullar asosan kaysi nakkoshlik maktabiga mansub?

Toshkent nakkoshlik maktabi

*Fargona nakkoshlik maktabi

Xiva nakkoshlik maktabi

Buxoro nakkoshlik maktabi

xosila ranglar kaysi katorda tugri berilgan?

*Zargaldok, yashil, binafsha

Sarik, jigarrang, xavorang

Qizil, sarik, zangori

ok, kirmizi, kora.

kizil va zangori buyoklar aralashmasidan kanday rang xosil buladi?

kora

kulrang

*yashil

xavorang

Mastixindan kaysi san’at turida kullaniladi?

grafikada

rangtasvirda

*xaykaltaroshlikda

xalk amaliy san’atda

Tanikli manzarachi rassomlar kaysi katorda?

M.Nabiev, N.Ten, k.Basharov

*¤.Tansikboev, I.Shishkin, I.Xaydarov

Ya.Salpinkidi, Tatevosyan, Kovalevskaya

V. Kaydalov, I.Repin, N.Kashina

Toshkent nakkoshlik maktabining uziga xosligi?

Aylana nakshlardan tuzilganligi:

Anor, atirgul, bodomgullarning kullanilishi:

*Geometrik va usimliksimon nakshlarni kullash:

Kvadrat nakshlardan tuzilganligi.

“Tong” (Onalik) asarining muallifi kim?

R.Choriev

A.Abdullaev

B.Jalolov

*R.Axmedov

Yashil rang kaysi buyoklar aralashmasidan xosil buladi?

kizil va sarik

Zangori va binafsha

*Zangori va sarik

Zangori va pushti

“Issikkulda okshom” asarining muallifi kim?

J.Umarbekov

R.Axmedov

¢.Abduraxmanov

*¤.Tansikboev

Xiva nakkoshlik maktabida asosan kanday rang koloritidan foydalaniladi?

kizil koloritda

Pushti koloritda

*xavorang kolritda

Sarik kolritda

Mashxur “Mona Liza” asarining muallifi kim?

P.Rubens

Titsian

Mikelandjelo

*Leonardo da Vinchi

Stekdan kaysi san’at turida foydalaniladi?

Me’morchilikda

*xaykaltaroshlikda

Misgarlikda

Grafikada

“Spitamen kuzgoloni” asarining muallifi kim?

R.Axmedov

Ch.Axmarov

*M.Nabiev

R.Choriev

Tasviriy san’at janrlari kaysi katorda?

*haykaltaroshlik, me’morchilik, rangtasvir

natyurmort, manzara, portret

grafika, ofort, natyurmort

rangtasvir, kompozitsiya, kalamtasvir

Konstruktiv rasm deganda nimani tushunasiz?

Akademik usulda tasvir ishlash

Ranglavxa bajarish

Muykalamda rasm ishlash

*Sinch usulida tasvirlash

Grafik rassomlar kaysi katorda?

A. Muminov, ¢.Abduraxmanov, Ya. Salpinkidi

*V. Kaydalov, K.Basharov, I. Ikromov

I. Ikromjonov, I.Xaydarov, N.Ten

A.Mirzaev, D.Ruziboev, M. Saidov

Marina janriga oid asar kaysi katorda ko’rsatilgan?

«Fonton buyida»

* «Tukkizinchi val»

«Pompeyning sunggi kuni»

«Qarg’alar uchib keldi»

Bosh bezak (zastavka) deganda nimani tushunasiz?

Badiiy asar sunggida beriladigan bezak

*Badiiy asarning matn kismidan oldin beriladigan bezak

Badiiy asar mazmuni bilan boglik rasmlar

Badiiy asar mazmuni bilan boglik bulmagan rasmlar

Respublikaning eng kadimgi noyob san’at asarlari kaysi joydan topilgan?

kukon, Fargona, Samarkand

Samarkand, Chust, Besharik

*Varaxsha, Afrosiyob, Tuprokkal’a

Buxoro, Fargona, Sariosiyo

Tasviriy san’atda keng tarkalgan okimlar kaysi katorda kursatilgan?

Postimpersionizm, syurrealizm

Kubizm, simvolizm

*Realizm, abstraktsionizm

Formalizm, puantalizm.

Kubizm okimida ijod kilgan rassomlar kaysi katorda?

S.Dali, Ya.Salpinkidi

E.Mone, K.Mone

*P.Pikasso, P. Sezann

P.Rubens, R.Axmedov

Triptix nima?

Uch rassom tomonidan yaratilgan san’at asari

Uch xaykaltarosh tomonidan bajarilgan san’at asari

*Bir mavzudagi uch bulakdan iborat san’at asari

Uch bulakdan iborat uch mavzudagi san’at asari

Abstraktsionizm okimi kaysi qatorda okim?

Turli obrazlarni xakkoniy tasvirlash

Ayrim obrazlarni xakkoniy tasvirlash

*Xayoliy obrazlarni talkin etish

Xakkoniy obrazlarni aslidek tasvirlashdan voz kechish

“Pompeyning sunggi kuni” asarining muallifi kim?

P. Rubens

*K. Bryullov

B. Mikelandjelo

I.Repin

Tanikli rus manzarachi rassomlari kaysi katorda?

Kuindji, Perov

Serov, Petrov-Vodkin

*I.Shishkin, I.Savrasov

I.Ivanov, Ya.Salpinkidi

Impressionizm okimini aniqlang?

Borlikni buzib kursatish

Borlikni asl xolidek tasvirlash

Borlikni tasavvurdan ishlash

*Borlikni inkor etish

“San’at atributlari” asari kaysi rassom tomonidan yaratilgan?

P. Pikasso

*J. Sharden

I. Shilov

M. Vrubelь

Manьerizm okimi kanday okim?

Borlikni xakkoniy tasvirlash

Tabiatdan aynan nusxa kuchirish

*Tabiatdan uzoklashish, konun-koidalarga amal kilmaslik

Tabiatni tasvirlashda konun-koidalarga amal kilish

Nakkoshlikda dastlab kaysi shakllarni chizish zarur?

Girix, bofta

Panjara, aylana

*Barg,gul

Stilizatsiya, aylana

Dastgoxli rangtasvir nima?

Jurnalda tasvirlangan rasm

Kitobga ishlangan rasm

*Molьbertda ishlangan surat

Devorga ishlangan tasvir.

*Joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat.

«San’atshunoslik asoslari» darslarida o’quvchilar qanday shaklda faoliyat ko’rsatadilar?

Naturadan rasm chizadilar.

Naqsh ishlaydilar.

Kompozitsiya ishlaydilar.

*O’qituvchi suhbatini tinglaydilar.

Illyustrativ rasm ishlash qaysi sinflarda amalga oshiriladi?

Birinchi sinfda.

Boshlang’ich sinflarda.

5-7 sinflarda.

* 1-7 sinflarda.

Maktabda bolalar qanday bo’yoqlar bilan rasm ishlaydilar?

Moybo’yoq, akvarelь.

*akvarelь, guashь.

Tempera, akvarelь.

Akvarelь, guashь, moybo’yoq.

O’zbekistonda rasm chizishga o’rgatishga doir birinchi bor qo’llanma chop etgan muallif kim?

M.Nabiev.

*I.Ikromov.

R.Hasanov.

B.Oripov.

Rasm chizishni o’rgatishga bo’lgan birinchi intilishlar qaysi tarixiy davrga to’g’ri keladi?

*Neolit

Paleolit

Mezolit

Ibtidoiy

O’zbekistonning mashhur miniatyurachi rassomi qaysi qatorda?

*Ch. Axmarov

Sh.Abdurashidov

R.Ahmedov

R.Choriev

XX asrning mashhur o’zbek rassomlari kimlar?

O.Yunusov, N.Abdusalomxo’jaev, A.Isaxo’jaev, G’.Abduraxmonov

A.Mirzaev, B.Maxkamov, Ya.Salpinkidi, N.Usmonov

D. Boqiev, I. Jabborov, O.Qozoqov, A.Mo’minov

*U.Tansiqboev, Z.Inog’omov, A.Abdullaev, M.Nabiev

Ibtidoiy odam nima bilan rasm chizgan?

*Ko’mir va o’tkir tig’li tosh bilan

Stiliusda, ko’mirda

Mo’yqalamda, qalamda

Qush patlari yordamida

Ibtidoiy odam rasm chizish ko’nikmalari qanday paydo bo’lgan?

Tabiatdan

Xayot tarzidan

*Kuzatish va taqlid qilish

Xayvonot olamidan

Poytaxtimizning Milliy bog’ida o’rnatilgan ulug’ shoir Alisher Navoiy obraziga atalgan yodgorligi qaysi haykaltaroshlar tomonidan yaratilgan ?

*A. Raxmatullaev, L.Ryabtsev, D.Ro’ziboev

I. Jabborov, R.Mirtojiev, T.Toshxo’jaev

E.Aliev, N.Bandeladze, V.Degtyarov

A. Raxmatullaev, I.Jabborov, E.Aliev

Rasm chizish ta’lim va o’qitishning metodlarini ishlab chiqqan Uyg’onish davri rassomlari?

*Ch. Chennini, L.B.Alьberti, Leonardo da Vinchi, Dyurer

Ch. Chennini, Titsian, Velaskes

L.B.Alьberti, Rembrand, Melantiy

Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo

Tasviriy san’atda Leonardo da Vinchi nimalarga ahamiyat bergan?

Inson gavdasining go’zalligiga

Ilohiy farishtalar to’plamiga

*Nisbatlar ta’limoti, perspektiva qoidalari, plastik anatomiyaga

Tibbiy materiallarga

Leon Battista Alьbertining mashhur asari qanday nomlangan?

*Rangtasvir to’g’risida uch kitob

Emilь asari

Buyuk didaktika

Rasm chizishni namunalardan boshlash kerak

Markaziy Osiyoda qanday miniatyura maktablari mavjud bo’lgan? *Samarqand, Yazd, Sheroz maktabi

Mavjud bo’lmagan

Xiva va Buxoro maktabi

Temuriylar davrida rivojlangan Samarqand maktabi

Temuriylar davri tasviriy san’at maktablarini asoschilari kimlar?

*Jahongir Go’ng(soqov) Pir Said Ahmad Tabriziy, Kamoliddin Behzod Ma’sud ibn Usmoniy, Ko’listoniy

Abulxayrxon, Xotadiy

Sharofiddin Ali Yazdiy, Xalil Mirzo

Rasm chizishga o’rgatishda mashhur rassomlarning ishlaridan namunalar ko’chirishni taklif etgan shaxs.

K.Soldan

Resten

Surikov

*Sapojnikov

XX asrning eng mashhur o’zbek rassomlari kimlar?

O.Yunusov, N.Abdusalomxo’jaev, G’.Abduraxmonov, T.Qo’ziev

A.Mirzaev, Ch. Radjabova, I.Inog’omxo’jaev, O.Yunusov D. Boqiev, I. Jabborov, O.Qozoqov, Mo’minov, Kaydalov, A.Volkov.

*U.Tansiqboev, Z.Inog’omov, A.Abdullaev, S.Abdullaev, M.Nabiev

Markaziy Osiyoning eng qadimiy rassomi kim?

*Moniy

Kamoliddin Behzod

Ibn Xdim

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent: Sharq, 1997.

2. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at ta’limi kontseptsiyasi.-Toshkent, 1995.

3. Tasviriy san’at. Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o’quv dasturi.-Toshkent: Sharq, 1999.

4. Hasanov R. Tasviriy san’at . 1-sinf o’quvchilari uchun dasrlik.– Toshkent: Yozuvchi, 2002.

5. Abdurasilov S.N.Tolipov “Tasviriy sanat o‘qitish metodikasi (amaliy mashg‘ulotlar)” Toshkent-2007 yil

6. Abdirasilov S. Boymetov B, Tolipov N .Tasviriy san’at. T.:Cho’lpon, 2006.

7. Boymetov B, Abdurasulov S. Chizmatasvir. T.: G‘.G‘ulom – matbuot ijodiy uy. 2004.

8. Ishmuhamedov R.J.Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo'llari. T: Nizomiy nomidagi T D F J , 2004.

9. Tolipov N . Maktabda tasviriy san’a to ‘garagi. T.: Fan. 1995.

10. S.S.Abdullayev,Azimov S.S, Avezov Sh.N. “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasini o’qitish metodikasi” –“Durdona”-2020 yil

Elektron resurs:

1. http://kutubxona.adu.uz/kutubxona
2. http://library.ziyonet.uz
3. https://www.sgu.ru
4. https://www.twirpx.com
5. http://www.orenipk.ru

M U N D A R I J A

SO‘Z BOSHI.....4
1 MODUL. TASVIRIY SAN’ATNI O‘QITILISH TARIXI.
1.1. Chet ellarda tasviriy san’atni o‘qitish tarixidan 7

1.2. Rossiyada tasviriy san’atni o‘qitish metodlari 14
1.3. O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda tasviriy san’atning o‘qitilishi.....17
2 MODUL. TASVIRIY SAN’ATNI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDAGI BOSHQA O‘QUV FANLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.
2.1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at ta’limining maqsad va vazifalari, mashg‘ulotlarning mazmuni.....24
2.2. Tasviriy san’at fanida davlat ta’lim standarti (maktab, oliy ta’lim) 29
2.3. Tasviriy san’atni o‘qitishda didaktik prinsiplar.....42
3 MODUL. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARINI O‘QITISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI.
3.1. Boshlang‘ich 1-4 sinflarda va 5-7 sinflarda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi……..48
3.2. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasidan topshiriqlar, ularni nazorat qilish va baholash …….....86
3.3. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi fanidan darsdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi …….....91
4 MODUL. TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHISINING MA’NAVIY VA KASBIY SIFATLARIGA BO‘LGAN ZAMONAVIY TALABLAR.
4.1. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi o‘qituvchisi tashkilotchi va ijodkor.....95
4.2. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi mashg‘ulotlarining zamonaviy ta’limi.....101
4.3. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi xonasini tashkil etish va jihozlash 114
5 MODUL. TASVIRIY SAN’ATNI O‘QITISH METODIKASI BO‘YICHA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINI AMALIY ISHLASH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH.
5.1. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari faoliyatida bajariladigan amaliy ishlar.....120
5.2. Talabalarning mustaqil amaliy ishlari 130
IZOHLI LUG’AT……..135
TEST SAVOLLARI……..161
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....186

СОДЕРЖАНИЕ

ПРЕДИСЛОВИЕ.....**4**
1 МОДУЛЬ. ИСТОРИЯ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ.
1.1. Из истории преподавания изобразительного искусства за рубежом 7
1.2. Методы преподавания изобразительного искусства в России 14
1.3. Преподавание изобразительного искусства в Средней Азии и Узбекистане.....17

2 МОДУЛЬ. ЗНАЧЕНИЕ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДРУГИХ УЧЕБНЫХ ДИСЦИПЛИН В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ.
2.1. Цели и задачи изобразительного художественного образования в общеобразовательных школах, содержание занятий.....24
2.2. Государственный образовательный стандарт по предмету изобразительное искусство (школа, высшее образование) 29
2.3. Дидактические принципы в обучении изобразительному искусству.....42
3 МОДУЛЬ. ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ.
3.1. Методика обучения изобразительного искусства в начальных 1-4 классах и в 5-7 классах.....48
3.2. Задания из методики обучения изобразительного искусства, их контроль и оценка……..….....86
3.3. Методика организации внеклассной работы по предмету методика обучения изобразительного искусства.....91
4 МОДУЛЬ. СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ДУХОВНЫМ И ПРОФФЕСИОНАЛЬНЫМ КАЧЕСТВАМ УЧИТЕЛЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА.
4.1. Учитель методики изобразительного искусства организатор и творец.....95
4.2. Современное обучение методике изобразительного искусства.....101
4.3. Организация и оборудование методического кабинета обучения изобразительному искусству 114
5 МОДУЛЬ. РАЗВИТИЕ ПРАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ОБУЧАЮЩИХ МЕТОДИКЕ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА
5.1. Практическая работа, выполняемая в деятельности будущих учителей изобразительного искусства.....120
5.2. Самостоятельная практическая работа студентов 130
АННОТИРОВАННЫЙ СЛОВАРЬ…….....135
ТЕСТОВЫЙ ВОПРОСЫ…….....161
СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ ……..... 186